10. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 100-102.
11. Ahmadovich H. H., Amrulloeyvna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 248-250.
12. Ahmadovich K. H., Bahriddinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – С. 141-145.

13. Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 133-137.
14. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.
15. ВухДУПИ Н. А. Н. et al. АКМЕОЛОГИЯ ВА УНИНГ О'QUVCHILAR О'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.
16. Хайтов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.
17. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
18. Найитов Н. А. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
19. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.
20. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.
21. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. О 'QUVCHILAR О 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.
22. Akhmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.
23. Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.
24. Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.
25. Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-63.

BOLALARNING INDIVIDUAL RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK KUZATUV

Tashxanova Sevara Qobuljanovna

Toshkent pedagogika kolleji «Maxsus fanlar» kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarni kuzatish va baholash mazmuni yoritib berilgan, bolalarning individual rivojlanishida pedagogik kuzatuv haqida yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar bilan hamkorlik ishlari tarbiyalanayotgan bolalarni hamkorlikda kuzatish va baholashda xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Nazorat, baholash, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, indikatorlar (kutilayotgan natija) individual va jamoa bo'lib, to'g'ri strategiya, refleksiya, mashg'ulot, rivojlantirish markazlari, faoliyat turlari, kayfiyati va temperamenti, aniq va tadrijiy mezonlar, ob'ektiv, tadqiqot, ijobiy o'zgarishlar, maqbul strategiyasi, individual ish, ta'lim sohalari, bo'shliq tomonlari, sub'ektiv talqin, rivojlanish dinamikasi.*

Pedagogik nazorat va bolani baholash davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta sohasining har biri bo'yicha bolani rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Bola rivojlanishining mezonlari – bu davlat talablarida ko'rsatilgan indikatorlar (kutilayotgan natija).

Pedagog bolani va uning xulq-atvorining real sabablarini yaxshiroq tushunish, bolaning rivojlanishini, ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini aniqlash, ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash maqsadida bolalar hayotini tizimli ravishda kuzatib boradi.

Kuzatish, shuningdek, bolaning xatti-harakati va ta'lim olishi haqida aniq va ob'ektiv ma'lumotni to'plash jarayoni hisoblanib, unda u yakka yoki boshqalar bilan ishlayotgan yoki o'ynayotgan bo'ladi.

Kuzatish jarayonini tashkil etishda jarayon ham, natija ham baholanadi; axborot turli holat va kontekstlarda to'planadi va qayd etiladi; bolalar xulq-atvorini tahlil qilish esa pedagogik qarorlar uchun asos hisoblanadi.

Pedagogning ishi aynan pedagogik kuzatishdan boshlanishi kerak, chunki u bolani tushunishga, tushunishdan esa – u va uning oila a'zolari bilan muloqot qilish uchun to'g'ri strategiyani tanlashga olib keladi. Faqat guruhdagi bolalarni kuzatib, ular o'zlarini yaxshi his qilayotganliklarini va mashg'ulotlar qanday o'tayotganini bilib olamiz. Shuningdek, guruh va rivojlantirish markazlaridagi materiallar va mashg'ulotlar bolalarda qiziqish uyg'otgan yoki uyg'otmaganini, ular ehtiyojlarini qanoatlantirayotgani yoki qanoatlantirmayotganini bilib olamiz.

Kuzatishlar, shuningdek, bizga refleksiya uchun zarur bo'lgan ma'lumotni beradi: muayyan bolalar yoki bolalar guruhlari qanday o'rganayotgani, ularning eng yaqin rivojlanish zonasida qanday ishlash va ularning bilimlaridan qanday foydalanish kerakligi haqida tushuncha hosil qilishga zamin yaratadi. Ular, shuningdek, bizga aniq xatti-harakat tiplari haqida ma'lumot berishi mumkin:

- Bola qoida va tartib-taomillarga qanday munosabat bildiradi?

O'tish davri, tinch va faol davrlar, guruhda va yakka tartibda ishlash davrlarini qanday eplaydi? Ertalablari bola ota-onasi bilan qanday xayrlashadi, ovqatlanish vaqtida o'zini qanday tutadi, kiyinadi, dam oladi va h.k.

- Bola qaysi materiallardan va qanday foydalanadi? Bola ularni osonlik bilan ishlata oladimi? Unga turli-tuman materiallar yoqadimi yoki faqat bir qanchasimi? Ular ijodiy qo'llaniladimi yoki oldindan belgilangan tartibdami?

- Muayyan faoliyat turlari va materiallarga bolaning qiziqishi qanday. Bola boshqa bolalar bilan qanday munosabatda bo'ladi? Bola ko'pchilik bilan o'ynaydimi yoki faqat bir-ikkita bola bilanmi? Bola boshqa bolalar bilan gaplashadimi? Bola o'yinni birinchi boshlayaptimi yoki uni chaqirishligini kutayaptimi? Bola boshqalar bilan qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanishni yoqtiradi?

- Bola pedagoglar va boshqa kattalar bilan qanday munosabatda bo'ladi? Kerak bo'lganida bola yordam so'ray oladimi? U ko'p e'tibor yoki yordam talab qilyaptimi? Bola doimiy maqtovgga muhtojmi? Unga pedagog bilan muloqot qilish yoqadimi? Bola guruhga keladigan kattalar bilan vaqt o'tkazadimi?

- Bola tildan qanday foydalanadi? Bolani tushunish osonmi? U o'z niyatlarini ayta oladimi? Uning so'z boyligi qanchalik katta?

- Bola qanday harakat qiladi? Masalan, tepaga chiqa oladimi, yuguradimi, sakraydimi? Muvozanat saqlay oladimi? Bola koptokni ushlay va ota oladimi? Harakatda o'zini ishonch bilan tutadimi yoki yo'qmi? Unga futbol, raqs va boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish yoqadimi?

- Bolaning kayfiyati va temperamenti barqarormi yoki o'zgaruvchanmi?

Bola ruhiyati tinchmi yoki tajangmi? U tez-tez yig'lab, kulib va tabassum qilib turadimi? Bolalar o'z tuyg'ularini og'zaki izhor qila oladimi? Ular bolalar va kattalar bilan kelisha oladimi? Ular tez xafa bo'ladimi?

- Bola guruhda qanday rol o'ynaydi (masalan, sardor, ergashuvchi, tinglovchi, so'zlovchi)?

- Bola guruh hayotida ishtirok etish uchun maxsus yordamga muhtojmi?

Bolalar vaqtini guruhda qanday o'tkazayotgani haqida olingan kuzatishlarimizni ular oilalari bilan ham o'rtoqlasha olamiz. Shuningdek, bolaning ta'limi, rivojlanishi va xatti-harakati borasida yuzaga kelgan har qanday muammoni hujjatlashtirishimiz mumkin.

Kuzatish – bu bir martalik jarayon emas. Biz uni muntazam, aniq maqsadlar bilan tashkil etishimiz kerak. Bu maqsadlar biz kuzatishlarni necha marta, qancha vaqt davomida va qanday sharoitlarda o'tkazishimizni aniqlab beradi. Bunda e'tiborimiz markazida muayyan bola yoki guruh haqida nima bilishni istashimiz bo'ladi. Tizimli bo'lish kuzatishlarimizni yo'naltirish hamda hujjatlashtirish va anglash uchun aniq va tadrijiy mezonlarga ega bo'lishni anglatadi. Biz ko'rayotgan va eshitayotgan xatti-harakat yoki amallarni aynan ta'riflash orqali (ayblash va baholash emas) ob'ektiv bo'lishga intilamiz.

Kuzatish, shuningdek, tadqiqotni o'z ichiga olishi mumkin. Biz tabiiy sharoitlarda ko'rishimiz amri mahol bo'lgan muayyan ko'nikma, bilim yoki xatti-harakatni kuzatish uchun savollar berishimiz, muammolarni belgilashimiz yoki tadbirlarni tashkil etishimiz (vaziyatni yaratishimiz) mumkin. Masalan, bolalar tomonidan asosiy matematik tushunchalarni o'zlashtirilishini kuzatish uchun biz kichik bolalar guruhlarini bilan “kattaroq”, “kichikroq” va “teng” tushunchalarini hisoblash va tushunish kerak bo'lgan o'yinlar o'ynashimiz mumkin. Bundan tashqari, biz bola haqida ko'proq bilish va bolani yaxshi biladigan boshqa kattalar bilan bola haqidagi tasavvurlarni solishtirish uchun oila a'zolari va hamkasblarga savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin.

Kuzatish jarayoniga qisqacha tushuncha:

Kuzatish – bolalar rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarni ularni tabiiy sharoitda (uyda, guruhda, ochiq maydonchada), kun davomida turli vaqtda, butun yil davomida hamda to'plangan ma'lumotlarni hujjatlashtirib borgan holda baholashning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Pedagogning ishi aynan pedagogik kuzatuvdan boshlanishi zarur, chunki u bolani tushunishga, bolani tushunishdan esa – u va oila a'zolari bilan o'zaro aloqalarning eng maqbul strategiyasini tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

Kuzatish – bu bolaning ishlayotgan yoki o‘ynayotgan paytida, uning faoliyatiga aralashmagan holda uni kuzatish jarayonidir. Pedagog bolani kuzatish orqali xatti-harakatining turi, bilim olish bo‘yicha qiziqishlari, ko‘nikmalar darajasi va rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlarni aniqlaydi.

Kuzatuv rivojlanishning barcha sohalari bo‘yicha olib boriladi. Bolalarni ta’lim-tarbiya jarayonida kuzatish, ularning turli faoliyat davomidagi dastur asosida bilimlarni egallashi, erishayotgan yutuqlari, ijodiy ishlari, jamoada va yakka tartibdagi ishlari tahlil etib borish orqali xulosalarga tayangan holda xaritalar bolalar yoshiga mos ravishda tegishli kutilayotgan natijalar to‘ldiriladi. Agar u yoki bu bilim olish sohasida kutilayotgan natijalar “ishlamasa”, tarbiyachi daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo‘yishi yoki izoh berishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda yordam beradi. Ushbu belgi yoki izoh asosida tarbiyachi psixolog, defektolog, jismoniy tarbiya bo‘yicha yo‘riqchi va boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini, shuningdek, ta’lim sohasini o‘zlashtirishning salbiy tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta’lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi.

Tarbiyachi bola yutuqlari xaritasini yiliga 3 marta to‘ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi bilan belgilaydi. Agar u yoki bu bilim olish sohasida qiyinchiliklar duch kelinganda, tarbiyachi daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo‘yishi yoki izoh berishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda yordam beradi. Ushbu belgi yoki izoh asosida tarbiyachi psixolog, defektolog, jismoniy tarbiya bo‘yicha yo‘riqchi va boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini, shuningdek, ta’lim sohasini o‘zlashtirishning bo‘shliq tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta’lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi.

Bolaning rivojlanish xaritalarini yuritish mas’ulligi guruh tarbiyachilariga yuklatilsada, uni to‘ldirishda barcha mutaxassis-pedagoglar ma’lum kutilayotgan natijalarni bola tomonidan egallanishini belgilashda ishtirok etishi va pedagoglarning hamkorligi to‘laqonli olib borilishi hamda xaritaning to‘g‘ri va aniq yuritilishini MTT metodisti tomonidan nazoratga olinishi muhim hisoblanadi.

Kuzatuv ma’lum tamoyillarga tayangan holda olib borilishi lozim. Bular:

- Bolaning kuzatilayotgan harakatini pishiq-puxta hujjatlashtirish;
- Sub’ektiv talqin (pedagogning shaxsiy fikri, his-tuyg‘ulari) yo‘l qo‘ymaslik;
- Bola tomonidan shaxsan bajarilgan ishni yoki aytilgan gapnigina xolisona kuzatish;
- Imkon boricha ko‘proq ma’lumot to‘plash, ular imkon darajasida sodda va tushunarli bo‘lishi kerak
- Bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatuv kamida ikki hafta (yoki oy) mobaynida olib boriladi;
- Tarbiyachi bola to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ota-onalar yoki Tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin;
- Tarbiyachi bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e’tibor qaratishi lozim.

Kuzatishni o‘tkazishdan maqsadlar

Har bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va ko‘nikmalarini aniqlash uchun. Kuzatish bolalarni shaxs sifatida bilishni, ularda intiluvchanlik rag‘batlantirish va bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirishga yordam beradi.

Vaqt o‘tishi va ta’lim natijalariga ko‘ra boladagi o‘zgarish va rivojlanish dinamikasini tushunish uchun. Kuzatish bolalarning jismoniy, ijtimoiy va hissiy, nutq, muloqot, o‘qish va

yoziq malakalari, bilish, ijodiy jihatdan yil davomida rivojlanishini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonga o'zgarishlari kiritish uchun. Pedagoglar bolalar uchun tayyorlangan joy va materiallardan ular qanday foydalanayotganini kuzatib, mavjud materiallar bolalarning ehtiyojiga javob berish-bermasligi, qo'shimcha materiallarga zarurat bor-yo'qligi masalasiga javob topishi mumkin.

E'tibor talab qiladigan holatlarni aniqlash uchun. Kuzatish kattalarga bolalarda qondirilishi zarur bo'lgan alohida ehtiyojlar bor yoki yo'qligini ko'rish imkoniyatini beradi. Bu eshitish, tayanch-harakat apparati va bola rivojlanishidagi boshqa jismoniy va ruhiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu kabi muammolar aniqlanishi bilan o'z vaqtida tegishli mutaxassislariga murojaat etish zarur.

Muammoviy vaziyatlarni mukammal tarzda hal etish usullarini aniqlash uchun. Kuzatish pedagogga muayyan vaziyatda boladan qanday xatti-harakat kutish mumkinligini aniqlash va shu orqali bolalarga o'z xatti-harakatini boshqarishni o'rganishga yordam beradi.

Rejalashtirishga o'zgarishlar kiritish uchun. Pedagog kuzatish natijalaridan foydalanib, u yoki bu narsani o'zgartirishga ehtiyojni, bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda rejaga qanday o'zgartirishlar kiritish lozimligini aniqlaydi.

Ota-onalar va MTT mutaxassislari foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun. Kuzatish bolalarni, ularning qiziqishlari, yutuqlari, muloqot va o'zaro aloqa ko'nikmalarini, muammolarini, alohida ehtiyojlarini tushunishni hamda xulosalarning asoslilikini ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
2. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun. 2018 y.
3. Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "Kuzatish va baholash". T.:2020 yil.

ZIRADOSHLAR (APIACEAE) OILASI VAKILLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyeva Xusnora Numonjon qizi

*Abdulla Qodiriy Nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Biologiya Yo'nalishi
1-Kurs Talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada ziradoshlar oilasiga mansub bo'lgan bir nechta o'simliklarning dorivorlik xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ziradoshlar oilasi vakillarining tarqaladigan hududlarini bilib olish mumkin.*

Kalit so'zlar: *aktinomorf, kallakcha, reduksiya, soyabon, pistacha, alkaloid, daucus carota, pimpinella anisum, ferula, carum carvi.*

Tabiatimizdagi ko'p o'simliklar oziq-ovqatga sifatida ishlatilishi bilan qolmay dorivorlik xususiyatini ham namoyon qiladi. Olimlar tomonidan har bir o'simlikning o'ziga xos bo'lgan dorivorligi o'rganib chiqilgan. Ziradoshlar oilasining ba'zi turlarida ham shifobaxshlik bor.

Ziradoshlar (Soyabondoshlar) oilasi — Apiaceae (Umhelliferae). Bu oila 300 taga yaqin turkumga mansub 3000 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Ular butun Yer yuzi bo'ylab keng tarqalgan. O'rta Osiyoda oilaning 97 turkumga mansub 422 ta turi, yurtimizda 69 ta turkumga oid 198 ta turi o'sadi. Hayotiy shakliga ko'ra ziradoshlar oilasida bir va ko'p yillik o'simliklar ustunlik qiladi, ba'zan yarim buta va butalar ham uchraydi. Barglari turli darajada qirqilgan, butunlari ham mavjud. Ko'pchilik turlarida (kavrak) bargining asosida qini (novi) bo'ladi. To'pguli oddiy yoki murakkab bo'ladi. Soyabon, kallakcha turi uchraydi. Gullarining rangi juda ham xilma-xil, gulqo'rg'oni murakkab, gulkosachabarglari reduksiyalangan 5 tadan, mayda, gultojibarglari 5 ta, tutashmagan. Changchisi 5 ta, urug'chisi 2 ta, tugunchasi ostki tuguncha. Mevasi — pistacha. Gul formulasi: $Ca_5-0 Co_5 A_5 G(2)$. Oila soyabonguldoshlar deb nomlangan, chunki bu oilaga kiruvchi o'simliklarning to'pgullari murakkab soyabondan iborat. Barglari, asosan, murakkab, yon jinsli, aktinomorf, gulqo'rg'oni ikki doira hosil qilib o'rnashgan. Gul bargchasiz, barg bandi kengayib, nov hosil qiladi hamda poyani o'rab turadi. Oila vakillari efir moylariga boy hisoblanadi. Bu oilaga zira (Buniurn), qora zira (Carum carvi), kashnich (Coriandrum sativum), sabzi (Daucus), ukrop (Anethum), petrushka (Petroselinum sativum), kovrak (Ferula), arpabodiyon (Pimpinella anisum) kiradi. Turkum vakillari alkaloid, smola, asalli, sabzavot ekinlari, efir moyli o'simliklar sifatida ahamiyatga egadir.[4]

Dorivor o'simliklar tabiatimizda juda keng tarqalgan. Ulardan turli kasalliklarga qarshi kurashishda foydalanamiz. Ziradoshlar oilasi vakillari ham qadimdan o'zining dorivorlik xususiyatlari bilan tanilib kelgan.

Yovvoyi sabzi - Daucus carota. Bo'yi 30 - 100 sm keladigan 2 yillik o't o'simligi bo'lib, ildizi - ildizmeva. Poyasi 2 yilda rivojlanadi, pastki qismi shoxlangan bo'ladi. Barglari poyada navbatlashib joylashadi, barglari ikki karra patsimon qirqilgan. To'pguli murakkab soyabon, gullari oq-sarg'ish. Mevasi dumaloq, ikki tomondan biroz siqilgan qo'sh pistacha. [2]

Yovvoyi sabzining urug'idan turli mamlakatlarda har xil dori-darmon sifatida foydalaniladi, bizning yurtimizda esa uni gijjaga qarshi va surgi sifatida ishlatiladi. Sabzi turli kasalliklar uchun foydalidir: kamqonlik, bronxit, ba'zi teri, yurak-qon tomir kasalliklari, yaralarni davolash va ayniqsa ko'zlar uchun foydali. May-iyun oylarida gullaydi, iyul-avgust oylarida urug'i pishadi. Daryo, ariq bo'ylarida, bog'larda, adir hamda tog'oldi qismlarida uchraydi[1] (1-rasm).

Sabzining tarkibidagi vitaminlar uchrash miqdori:

Vitaminlar	100 gr dagi tarkibi	Kundalik ehtiyojning ulushi
Vitamin A	2000 mkg	200%
Vitamin B1	0,06 mg	4%
Vitamin B2	0,07 mg	4%
Vitamin C	5 mg	7%
Vitamin E	0,4 mg	4%
Vitamin PP	1,1 mg	6%

Arpabodiyon (*Pimpinella anisum*) — ziradoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘tlar turkumiga kiradi, 2 ta turi bor. O‘zbekistonda oddiy Arpabodiyon (Arpabodiyon Vulgare) ekiladi. Uning pastki barglari buyraksimon yoki uch bo‘lakli, yirik arra tishli, yuqoridagilari barglari ipsimon, bo‘lakchalarga bo‘lingan. Gullari mayda, oq, murakkab soyabonga to‘plangan. Arpabodiyonning mevasi tarkibida 3,2%, ba‘zan 6% gacha efir moyi va 28% gacha boshqa moylar bor. Efir moyi tarkibida 90% gacha anetol bo‘ladi. Mevasi va efir moyidan tayyorlangan preparatlar balg‘am ko‘chiruvchi sifatida qo‘llaniladi. Arpabodiyon mevasi va efir moyi oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi. Bundan tashqari arpabodiyon antiseptik, mikroblar, bakteriyalar va xavfli viruslarni yo‘q qilish vazifasini ham bajaradi [6]

Arpabodiyon o‘simligining urug‘i tarkibidagi vitaminlar uchrash qiymati:


Vitaminlar	Uchrash miqdori
B1 vitamini	27,2%
B2 vitamini	19,6%
B6 vitamini	23,5%
S vitamini	23,3%
PP vitamini	30,3%

Zira – ozdiruvchi ziravor. Zira ovqatga solinadigan va yog‘ hujayralarining to‘planib qolishini kamaytirish bilan birga ozishga yordam beruvchi ajoyib ziravor [5]. Bu ziravor ortiqcha vazn hosil bo‘lishining oldini olishdan tashqari, oldindan mavjud bo‘lgan ortiqcha kilogrammlardan qutulishga ham yordam beradi. Zira yog‘ to‘qimalari miqdorini yuqori darajada kamaytiradi. Eron tibbiyot fanlari universitetida o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘zining ovqatlanish ratsioniga zirani kiritgan ayollar organizmida yog‘ to‘qimalari 14 foizga kamaygani, shu vaqtning o‘zida, nazorat guruhi qatnashchilariniki esa hatto to‘g‘ri ovqatlanish tartibiga qaramasdan 5 foizga kamaygani aniqlandi. Zira uyquning bir maromda kechishini yaxshilaydi. Agarda siz uyquga to‘ymasangiz, unda ko‘proq iste‘mol qilasiz — to‘yib uxlamaslik ishtahani nazorat qila olmaslikka va moddalar almashinuvining sekinlashishiga olib keladi. Zira uyqusizlik bilan kurashishga yordam beradi. Zira qondagi qand miqdorini meyorga keltiradi. Zira hujayralarning insulinga va glyukozaga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirish yo‘li bilan qondagi shakar miqdorini ushlab turish vazifasini ham bajaradi. Zira qondagi shakar miqdorini nazoratda tutib turish bilan uglevodlarga bo‘lgan intilishni yengadi va bizdagi to‘qlik hissini uzoqroq saqlab turadi. Zira hazmni yaxshilaydi. Zira hidi og‘iz bo‘shlig‘idagi so‘lak ajralib chiqishini faollashtiradi, bu esa hazm qilish sistemasini ishga tushiradi va uning birinchi bosqichini yaxshilaydi. Zira tarkibidagi timol moddasi ovqat hazm qilish va so‘rilishda ishtirok etuvchi kislota, o‘t va fermentlar ishlab chiqaruvchi bezlar faoliyatini tezlashtiradi. Shuningdek, zira yel haydovchi vosita hisoblanadi, ya‘ni u gaz yig‘ilishi va qorin dam bo‘lishi kabi muammolarining ham yechimi ekanligini bildiradi (3-rasm).

Zira o‘simligi tarkibidagi uchraydigan vitaminlar :[3]

Vitaminlar	Uchrash miqdori
Beta - karotin	15,2%

3	B1 vitamini	41,9%
	B2 vitamini	18,2%
	B6 vitamini	21,8%
	E vitamini	22,2%
	PP vitamini	22,9%



3-rasm. Qora zira-carum carvi

Kovrak (*Ferula*) turkumi (*soyabonguldoshlar*) *Apiaceae* (*Umbelliferae*) oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik o't o'simligi hisoblanadi. Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod turlari, O'rta Osiyo respublikalarida 104, mamlakatimizda esa 50 turi uchraydi. Smola - yelim olishda sassiq kovrak, Kuhiston kovragi kabi turilaridan foydalaniladi[6].

“Kovrak urug'ining qaynatmasi (urug'i xuddi supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham shunga o'xshab ketadi) 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko'payadi. Shirasiga anjir qo'shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to'kilishiga ham o'ta foydalidir.” Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida ko'pgina kasalliklarga davo bo'lib, o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k-yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida foydalaniladi. Ilmiy tibbiyotda kovrak yelim-smolasi – “*assafetida*” nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi va ko'pgina davlatlar farmokopiyasiga kiritilgan (4-rasm). O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi O'zR FA Botanika instituti, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, “Yaylov xo'jaligini rivojlantirish” uyushmasi, Dehqonobod tumani hokimligi bilan hamkorlikda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani “Beshbuloq QFY xududidagi “Eko komfort” xususiy korxonasi tasarrufidagi kovrak plantatsiya dalasida “Eksport salohiyati yuqori bo'lgan dorivor va ziravor o'simlik – kovrakni yetishtirish” mavzusida amaliy seminar bo'lib o'tdi. Mazkur seminarda mamlakatimiz viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashrif buyurgan

kovrak o'simligi yetishtirish bilan shug'ullanadiganlar hamda ushbu o'simlikni yetishtirish istagini bildirgan bir qator loyiha ustalari shuningdek, uzoq yillar davomida ushbu dorivor o'simlikni eksport qilib kelayotgan 100 ga yaqin tadbirkorlar ishtirok etdi. Bo'lib o'tgan seminarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-apreldagi "Respublikada kovrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 116-sonli Farmonida belgilangan topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish masala va muammolari ko'rib chiqildi. Mutasaddi vazirlik va idoralar mas'ullari kovrak o'simligini yetishtirish, qishloq, o'rmon va yaylov xo'jaliklarida yer ajratish tartibi, madaniy holda yetishtirish uchun mos tuproq-iqlim sharoitlari, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar hamda klaster va kooperatsiya tizimini keng joriy etish haqidagi tadbirkorlarni qiziqtirgan savollarga javob berishdi. Shuningdek, seminar davomida 367 gektar maydonda pista va kovrak plantatsiyasi tashkil etgan salohiyatli "Eko komfort" xususiy korxonasi rahbari madaniy holda kovrak o'simligini suv tanqis hududlarda yetishtirish agrotexnologiyasi, hosil yig'ishtirish va eksport qilish bo'yicha o'z tajribalarini ulashdi. Tadbirda aytib o'tilganidek, respublikada so'nggi yillarda dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham bilinar darajada ortmoqda. Ko'rgazmali seminarda ishtirok etganlar respublikaning og'ir suv-tuproq-iqlim sharoitli hududlarida o'stirish imkoni bo'lgan dorivor va ziravor o'simliklar turlarini yetishtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda respublikada jami 12 ming gektardan ortiq maydonda kovrak o'simligi ekilib, o'stirilmoqda. Ushbu maydonlardan 2021-yilda qiymati 7,65 mln dollarlik 170 tonna kovrak shirasi eksporti amalga oshirildi. Seminar yakuniga ko'ra, aholi o'rtasida kovrak o'simligining keng iste'molini yo'lga qo'yish, yetishtirish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish takliflari ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, sotuv bozorlarini kengaytirish maqsadida marketing tadqiqotlarini olib borish, tabiiy hududlarda o'suvchi kovrak turkumi vakillarini asrab-avaylash, klaster va kooperatsiyalarni tashkil qilish kabi masalalarda tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlar tashkil qilish belgilab olindi.



4-rasm.Kovrak-ferula

Kovrak o'simligining ildizi tarkibida uchraydigan moddalar :

Kraxmal	67,31%
Smola	9%
Efir moyi	0,4%

Xulosa qilib aytganda, ziradoshlar oilasining deyarli barcha vakillarida dorivorlik xususiyati mavjud. Tabobatimizda tabiatdagi barcha o'simliklardagi foydali va zararli xususiyatlar o'rganilgan bo'lib, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida oila vakillariga xos bo'lgan shifobaxshliklar ham keltirib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ikromova .M.I , Normurodov.X.N , Yuldashev.A.S. BOTANIKA . "O'zbekiston" TOSHKENT-2002

2.Pratov.O' , Shamsuvaliyeva L. Sulaymonov E. Axunov X. Ibodov X. Maxmudov V. BOTANIKA ."Ta'lim nashriyoti" TOSHKENT – 2010. 226-bet

3.Tursunboyeva G.S. Komilova Sh.R BOTANIKA ASOSLARI. TOSHKENT – 2009

4.Hamdami I.H, Hamdamova E.I , Suvonova G.A , Begmatova M. BOTANIKA VA O'SIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI. "Sano-standart" nashriyoti.TOSHKENT – 2017. 249-bet

5.Matkarimova A.A, Mahkamova T.X , Maxmudova M.M, Azizova X. Ya , Vaisova G.B. BOTANIKA .TOSHKENT – 2018. 255-bet

6.Berdiyev E.T, Hakimova M.X, Maxmudova G.B O'RMON DORIVOR O'SIMLIKLARI . "Sano-standart" nashriyoti. TOSHKENT-2016. 141-bet ; 110-bet; 106-bet.

O'Z-O'ZINI BAHOLASHNING AYOLLAR PSIXOLOGIYASIDA TADQIQ ETILGANLIGI

Tog'aymurotova Nigora Utkir qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

E-mail: togaymurotovanigora@gmail.com

O'ZMU Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)

II bosqich magistranti

Annotatsiya. *O'z-o'zini baholash - bu nafaqat shaxsning o'zini o'zini balki shaxsni o'zining kuchli va zaif tomonlarini baholash, hamda o'z fazilatlarini va boshqa odamlar orasidagi o'rnini aniqlash o'z navbatida, shaxsning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. O'z-o'zini baholash shaxsi hayot tizimi baholanadigan asosiy mezonidir.*

Annotation. *Self-esteem is not only an assessment of a person himself, but also an assessment of a person's strengths and weaknesses, as well as determining one's own qualities and place among other people, which in turn regulates the behavior of a person. is one of the most important factors. Self-esteem is the main criterion by which a person's life system is evaluated.*

Ayollar psixologiyasida balki butun insoniyat psixologiyasida turli davrlar mavjud: tanazzul va tiklanish paytlari, qayg'u va quvonch, xotirjamlik va hayajon; faqat ba'zilarida bu kamroq, boshqalarda esa tez-tez va keskin namoyon bo'ladi. Ayollardabalki butun jamiyatda o'z o'zini baholash tushunchasi alohida ahamiyatga ega.

O'z-o'zini baholashning uchta asosiy funksiyasi adekvat o'z-o'zini baholashni zarur qilib qo'yadi:

- Himoya – o'z o'ziga to'g'ri baho berish baholash qilish insonning fikri va qilayotgan ishlariga nisbatan ishonchni oshirishga yordam beradi, bu insonning o'zi haqidagi fikrini barqarorligini ta'minlaydi bundan tashqari hissiy fonni barqarorligini, stressni insonga kamroq ta'sir qilishni ta'minlaydi;

- Normativ – insonning o'z shaxsiga nisbatan eng to'g'ri, zarur, ahamiyatli tanlovni o'z vaqtida qilishga yordam beradi;

- Rivojlanayotgan – shaxsni o'zini o'zi to'g'ri baholashi shaxsni shaxs sifatida to'g'ri rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

Psixologlarning fikriga ko'ra, o'z-o'zini to'g'ri baholash bilan bog'liq muammolar ayol hayotining barcha yo'nalishlarga ta'sir qilishi mumkin:

- Professional kasbiy sohada muvaffaqiyat va turli muvaffaqiyatsizliklarning ta'siri;

- muloqot jarayonini tashkil etish do'stlar, hamkasblar va qarindoshlar bilan muloqot qilish;

- oilaviy hayot shakli (to'liq yoki noto'liq oila, notinch oila, noqobil farzandlar va boshqa ta'sirlar) natijasida

- jismoniy va ruhiy salomatlik.

Qizig'i shundaki, deyarli har bir ayol bu masalada muammolar bor yoki yo'qligini bilishadilar.

O'z-o'zini baholashning asosiy funksiyasi bu shaxs hayotini tartibga solish va himoya qilishdir. Tartibga solish funksiyasi asosida insonning shaxsiy tanlovi bilan bog'liq muammolar hal qilinadi, himoya funksiyasi esa shaxsning nisbatan mustaqilligi va barqarorligini ta'minlaydi. Ko'p narsa o'z-o'zini baholashga bog'liq: shaxsning boshqalar bilan munosabati, insonning tanqidiyligi, shuningdek, uning o'ziga nisbatan talabchanligi

kiradi. O'z-o'zini baholash inson faoliyatining samaradorligiga va uning shaxsiyatining yanada rivojlanishiga ta'sir qiladi[1]. Katta psixologik lug'atda ushbu tushunchaning ta'rifiga ko'ra, o'z-o'zini baholash - bu shaxsning o'zini, uning fazilatlarini, imkoniyatlarini va boshqa odamlar orasidagi o'rnini baholash. A.I. Lipkina fikriga ko'ra o'z-o'zini baholash - bu munosabat insonning qobiliyatlari, imkoniyatlari, fazilatlarini, shuningdek, tashqi ko'rinishiga bog'liq. Zamonaviy psixologiyada o'z-o'zini baholashning quyidagi darajalarini ajratish odatiy holdir:

- 1) adekvat;
- 2) ortiqcha baholangan;
- 3) kam baholangan.

Adekvat o'zini-o'zi baholash deganda insonning o'zini, uning qobiliyatlarini, fazilatlarini va harakatlarini real baholash tushuniladi. O'z-o'zini baholash sub'ektning o'zini baholashda yetarli darajada ortiqcha baholanishi deb tushuniladi. O'z-o'zini past baholash sub'ekt tomonidan o'zini baholashda yetarli darajada kamsitish deb hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdi insonning o'zini o'zi qadrlashiga tengdoshlar va ota-onalarning hukmlari katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ota-onaning inson hayotida, asosan, bolalik davrida, o'zini o'zi qadrlash endi shakllanayotganda, uning umumiy o'zini o'zi qadrlashiga ko'proq ta'sir qiladi, tengdoshlari esa uning qobiliyatlarini baholashga ta'sir qiladi. Shaxs haqidagi barcha fikrlarning yig'indisi bolada o'zi haqidagi bilimni shakllantiradi, o'ziga nisbatan qadr-qimmatli fikrlarni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Insonning o'zini o'zi qadrlash darajasi uning intellektual faoliyati natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, o'zini past baholaydigan odamlar uchun to'g'ri keladi. Bu o'z-o'zini baholashning pastligi intellektual faoliyatning sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan haddan tashqari emotsional kuchlanishga olib kelishi bilan izohlanadi. Nazariy tahlil bizni o'z-o'zini baholash insonning jamiyatdagi faoliyatining ahamiyati haqidagi g'oyasi ekanligini tushunishga olib keldi. O'z-o'zini baholashda o'z fazilatlarini, his-tuyg'ularini baholash tushuniladi. O'z-o'zini baholash, asosan, shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasini, uning xulq-atvorini tartibga solishi va aniqlashi mumkin faoliyat hisoblanadi. Adekvat o'z-o'zini baholash o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, o'z imkoniyatlarini ob'ektiv baholash, o'z oldiga amalga oshirilishi mumkin bo'lgan maqsadlarni mustaqil ravishda qo'yish qobiliyati, ilgari surilgan taxminlarni sinchkovlik bilan tekshirish va asoslab bo'lmaydigan farazlar va versiyalardan voz kechishdan iborat. O'z-o'zini hurmat qilishning haqiqiy harakatining boshlanishi o'smirlik davriga, intellektual sohaning jadal rivojlanish davriga to'g'ri keladi. O'z-o'zini baholash muammosi bo'yicha tadqiqotlar natijalari L.I. Bojovich, L.S. Vygotskiy, A.I. Lipkina, V.S. Muxina, S.L. Rubinshteyn, Z. Freyd va boshqalar kabi mualliflarning asarlarida keltirilgan. Chet el psixologiyasi o'z-o'zini baholashni "men-kontseptsiya" ning bir qismi sifatida ko'rib chiqish bilan tavsiflanadi, bu "individning o'zi haqidagi barcha g'oyalari yig'indisi, ularni baholash bilan bog'liq" deb belgilanadi. Mahalliy psixologlar, o'z-o'zini baholashni ko'rib chiqayotganda, avvalo, inson faoliyatining ahamiyati deb belgilaydi.

A.N. Leontievning fikriga ko'ra, o'z-o'zini baholash shaxsning shaxsga aylanishini belgilovchi shartlardan biri hisoblaydi. Bu shaxs uchun motiv bo'lib xizmat qiladi, uni o'z kutishlari darajasiga, shuningdek, boshqalarning talablariga va o'z da'volari darajasiga javob berishga undaydi[2]. Shu bilan birga, inson idrok etadigan qadriyatlar o'z-o'zini baholashning asosini tashkil qiladi, bu esa, o'z navbatida, o'zini o'zi boshqarish va shaxsiy takomillashtirish mexanizmi sifatida uning o'ziga xosligini belgilaydi. Tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, o'z-o'zini baholash ikki shaklda ishlaydi - umumiy va xususiy (qisman, o'ziga xos, mahalliy).

Shaxsiy o'zini o'zi baholashning tabiati, xususiyatlari va yosh dinamikasi ko'proq o'rganiladi, bu sub'ektning o'ziga xos ko'rinishlari va fazilatlarini baholashini aks ettiradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kamroq o'rganilgan narsa o'zini o'zi qadrlashdir. Ko'pgina olimlar buni shaxsning o'zini o'zi qadrlashi bilan bog'lashadi. O'zini yuqori baholash shaxsning maksimal faolligini, uning faoliyati samaradorligini, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishni aks ettiradi. Umumiy o'z-o'zini baholashni tushunishga bunday yondashuv sub'ektning dunyoqarashida o'zidan norozilik, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabat uchun joy qoldirmaydi. Boshqa tadqiqotchilar, masalan, A.I. Lipkin va I.I. Chesnokov, umumiy o'z-o'zini baholashni bir-biri bilan doimiy aloqada bo'lgan shaxsiy o'zini o'zi baholashning ierarxik tarzda qurilgan tizimi sifatida ko'rib chiqan. Shu bilan birga, umumiy o'z-o'zini baholash shaxsiy o'zini o'zi baholashning oddiy birikmasi emasligi ta'kidlaydi. Umumiy o'z-o'zini baholashning bunday tushunchasi uni shaxsiy o'zini o'zi baholashning ishlashi bilan tavsiflaydi: adekvatlik, tanqidiylik, refleksivlik, barqarorlik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini anglash statik hodisa emas, balki yoshga, ijtimoiy kontekstga, hozirgi holatlarga va hokazolarga qarab o'zgaradi.

Buning asosida o'z-o'zini baholash mexanizmlaridan biri - vaqtinchalik taqqoslash ajratiladi. Vaqtinchalik taqqoslash mexanizmining mohiyati sub'ektning shaxsiy tajribasiga, uning hayot aylanishidagi "men" ga yo'naltirilishida, ya'ni. haqiqiy "men" ni o'tmishdagi yoki kelajakdagi "men" bilan solishtirish haqida.

O'tkazilgan tajribalarda shaxsni o'z hayotini ijobiy baholagan respondentlar ("qiziqarli hayot kechirgan odam"; "taqdiridan rozi bo'lgan odam") ko'pincha ko'proq bo'lgan. o'zining o'tmishidan va o'tgan hayotidan noroziligini bildirganlarga qaraganda yuqori o'zini o'zi qadrlash ("ko'p narsaga ega bo'lgan odam" hayotdagi qiyinchiliklar"; "Baxt yo'q edi, qiyin hayot bor edi"). Inson faoliyati hozirgi o'ziga (hozirgi Menga), balki mumkin bo'lgan uzoq kelajakka ham qaratilgan. Hozirgi vaqtda O'ziga bo'lgan shubhalar himoya sifatida ijobiy mumkin bo'lgan O'zini keltirib chiqarishi mumkin: "Endi mening do'stlarim yo'q, lekin bu har doim ham shunday bo'lmaydi"[3]. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ba'zi mumkin bo'lgan "men"lar mustahkam ildiz otgan bo'lishi mumkin. Ijobiy o'zini tutish qobiliyatiga ega bo'lgan odam doimo o'zi haqida ijobiy his-tuyg'ularga ega. Salbiy "mumkin bo'lgan" odamlarda o'zini past baholaydi. O'zini past baholaydigan odamlar katta yutuqlar, quvonch, omad va hokazolarni istisno qiladigan o'zlarining salbiy hayotiy senariylarini yaratishlari odatiy holdir (masalan, "Men muvaffaqiyatga erisha olmayman deb qo'rqaman", "meni hech kim sevmaydi" va hokazo). Ular o'zlari uchun "tuzoq" yaratadilar, undan chiqolmaydilar, chunki men ma'lum bir vaziyatda ularning xatti-harakatlari strategiyasini belgilab beradigan "Men" tushunchasi va motivatsiyasini bog'lashim mumkin. Salbiy mumkin bo'lgan "men"lar odamni samarasizlikka olib keladi va shu bilan o'z-o'zini past baholaydi, bu esa, o'z navbatida, past mumkin bo'lgan "menliklarni" shakllantiradi va hokazo.

Tadqiqotchilar shaxsning o'zini o'zi qadrlashiga ta'sir qiluvchi ikkita fakt guruhini aniqlaydilar :

- birinchidan, shaxsning o'z faoliyatining turli turlarida erishgan yutuqlari yoki uning yutuqlarini muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz deb bilishi U.Jeyms yondashuviga mos ravishda rivojlanadi;

- ikkinchidan, boshqa odamlarning munosabati.

S.Xarter barcha yosh guruhlarida olib borilgan tadqiqotlarida V. Jeymsning taxminini va C. Kuli nazariyasini to'liq tasdiqladi[4]. U o'z-o'zini baholashni belgilaydigan ushbu ikki omil - muvaffaqiyat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash - birgalikda ishlashini eksperimental isbotladi: muhim sohalarda muvaffaqiyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik yuqori bo'ladi. O'z-o'zini hurmat

qilish determinantlarining ushbu modeli uning darajasini bashorat qiladi va o'z-o'zini hurmat qilishda o'zgarishlar uchun imkoniyat yaratadi: kompetentsiyadagi tuzatishlar, shuningdek, muhim ma'qullashdagi o'zgarishlar. O'z-o'zini baholashda mos keladigan o'zgarishlarga olib keladi[5]. O'z-o'zini baholash muloqotda namoyon bo'ladi, shaxs va guruhlar faoliyatining universal shakli bo'lib, ularning o'zaro bilishi va tushunishiga, birgalikdagi faoliyatda o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirishga, o'zaro ta'sirning barcha sub'ektlari uchun umumiy hissiy holatga erishishga qaratilgan. Odamlarning muloqoti mazmunini o'rganayotganda, unda muhim o'rinni xodimlar va hamkasblarning munosabatlari, xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlari haqidagi suhbatlar egallashi ta'kidlandi. Boshqalar bilan muloqotda har biri boshqasiga shaxsan o'zi uchun sub'ektiv muhim narsani ochib beradi, bu esa bir-biri bilan yanada murakkab munosabatlarga sabab bo'ladi. Birining ichki shaxsiy hayoti ikkinchisining mulkiga aylanadi va u go'yo uning haqiqiy ishtirokchisiga aylanadi. Shunday qilib, o'z-o'zini baholash ma'lum bir yoshda o'zini o'zi anglash namoyon bo'lishining o'ziga xos shakli sifatida, o'zaro tushunish zarurati tufayli, tashqi ko'rinishga bo'lgan muhim sifat talablari tufayli sezilarli o'zgarishlarga uchraydi.

Psixologlarning fikriga ko'ra, o'z-o'zini to'g'ri baholash bilan bog'liq muammolar ayol hayotining barcha yo'nalishlarga ta'sir qilishi mumkin:

- Professional kasbiy sohada muvaffaqiyat va turli muvaffaqiyatsizliklarning ta'siri;
- muloqot jarayonini tashkil etish do'stlar, hamkasblar va qarindoshlar bilan muloqot qilish;
- oilaviy hayot shakli (to'liq yoki noto'liq oila, notinch oila, noqobil farzandlar va boshqa ta'sirlar) natijasida
- jismoniy va ruhiy salomatlik.

Qizig'i shundaki, deyarli har bir ayol bu masalada muammolar bor yoki yo'qligini bilishadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Молчанова О.Н. Личность – Время – Самооценка. / Психология здоровья и личностного роста», 2008. № 4. С. 21-32.
2. Бодалев А.А. Личность и общение: Избранные психологические труды. М.: Международная педагогическая академия, 1995. 328 с.
3. Молчанова О.Н. Личность – Время – Самооценка. / Психология здоровья и личностного роста», 2008. № 4. С.
4. Столин В.В. Самосознание личности / В.В. Столин. М.: Изд-во МГУ, 2010. 284
5. Захарова А.В. Психология формирования самооценки / А.В. Захарова. М.:«Прогресс», 2008. 100 с.

TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Karimov Firuz Mustafoyevich

Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi

Annotatsiya: *Maqola transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish sohasidagi munosabatlar, soha bo'yicha amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti muammolariga bag'ishlangan. Shu sababli, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish sohasi munosabatlarini tartibga solishga oid asosiy normativ-huquqiy hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi normalarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *transport, jabrlanuvchi, sug'urta, fuqarolik-huquqiy javobgarli, majburiy sug'urta, sug'urta obyekt.*

Bugungi kunda bozor munosabatlari sharoitida yuridik va jismoniy shaxslarning uchinchi shaxslar manfaatiga zarar yetkazish xavfi kuchaygan. Bu xavfning ro'y berishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarar yetkazgan shaxslarning javobgarligini sug'urta qilish mamlakatimizda o'z rivojini topmoqda. Ana shunday javobgarlikni sug'urta qilishning keng tarqalgan turlaridan biri – transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashdir. Ma'lumki transport yuqori xavfni keltirib chiqaruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Transport haydovchisi transport vositasini boshqarish jarayonida uchinchi shaxslarning muayyan manfaatlariga, sog'lig'iga, mol-mulkiga zarar yetkazishi mumkin. Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish tushunchasini tahlil qilishdan avval sug'urta tushunchasiga ta'rif berib olamiz. Sug'urta shartnomasiga binoan bir taraf (sug'urta qildiruvchi) yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lashidir. Bundan ko'rinadiki, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilishda sug'urtalovchi tashkilot sug'urta hodisasi sodir bo'lganda masalan yo'l transport hodisasi natijasida jabrlanuvchilarga ularning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'zni shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta puli doirasida qoplash majburiyatini tushunishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914-moddasida ham sug'urta tushunchasiga ta'rif berilgan, bundan tashqari, sug'urtaning ixtiyoriy, majburiy va davlat majburiy sug'urtasi shakllari mavjudligi ko'rsatilgan. I.B.Zokirovning "Fuqarolik huquqi" nomli darsligida sug'urta shartnomasi shakllari bo'yicha shunday ta'rif berilgan: sug'urta shartnomasi ixtiyoriy, majburiy, majburiy davlat sug'urtasiga bo'linadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish sug'urta shakllarining qaysi guruhiga mansub? Ushbu savolga Fuqarolik kodeksi va "Fuqarolik huquqi" darsligidan javob olishimiz mumkin. Ixtiyoriy sug'urtaning shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining huquqlari hamda majburiyatlari, shuningdek, har bir sug'urta turning aniq shartlari tegishli sug'urta shartnomalari bilan belgilanadi. Majburiy sug'urta alohida tartibga solinib, qonunda ko'rsatilgan shaxslarga sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkini yohud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o'z hisobidan sug'urta qilish majburiy sug'urta deb yuritiladi. Davlat majburiy sug'urtasi esa fuqarolar va davlatning

manfaatlarini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan sug'urta qildiriladi va bu shartnoma bo'yicha sug'urta badallarini to'lash davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Masalan: "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga ko'ra prokuratura xodimlari, "Sudlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra sudyalari va qonun bilan belgilangan boshqa xodimlarni sug'urtalash davlat majburiy sug'urta qilish shartnomalari turiga kiradi. Ushbu ta'riflardan ko'rinadiki transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish majburiy sug'urta qilish shakliga kirar ekan.

Shartnomalar muayyan muqobil ijroning mavjudligiga qarab haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalarga bo'linadi. Yuqoridagi tariflardan bilishimiz mumkinki, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish haq evaziga tuziladigan shartnomalar sirasiga kiradi, sababi bunda sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'laydi, sug'urtalovchi esa sug'urta hodisasi ro'y berishi bilan sug'urta pulini to'laydi.

Shartnoma tuzilish paytiga va mazmuniga qarab real va konsensual shartnomalarga bo'linadi. Transport vositasi egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish konsensual shartnomalar guruhida mansubdir. Sababi konsensual shartnomalarda huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirilgani zahoti tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomalar unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga bo'linishi bizga ma'lum. Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Chunki sug'urta qildiruvchi ham sug'urtalovchi ham o'z zimmasiga ham huquq, ham majburiyatlarni oladi. Sug'urtalovchi sug'urta badalini talab qilib olish huquqiga ega bo'lishi bilan bir qatorda sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta qildiruvchining esa sug'urta badalini to'lash majburiyati, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta tovonini talab qilib olish huquqi mavjud. Ammo bu fikrning istisnosi mavjudligini quyida ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra sug'urta shartnomasi tuzilishi jarayonida sug'urta badalining bir yo'la to'lanishi bilan sug'urta qildiruvchida majburiyat qolmasligini nazarda tutib uni bir tomonlama shartnomalar turkumiga mansub bo'ladi deb hisoblaydi Braginskiy M.I va Vitryanskiy V.V. Ushbu yondashuvlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkin, sug'urta shartnomasi ikkala tarafga ham huquq va majburiyatlar yuklaydigan shartnoma. Sug'urta qildiruvchi sug'urta badalini bir yo'la to'laydimi yoki bo'lib-bo'lib to'laydimi u ushbu tovonni to'lash majburiyatini zimmasiga olgan holda shartnoma ishtirokchisi sifatida shartnomada qatnashayabdi. Bundan tashqari, sug'urta qildiruvchining sug'urta tovonini to'lashdan boshqa majburiyatlari ham mavjud masalan sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdorini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilish majburiyatini oladi (Fuqarolik kodeksi 931-moddasi birinchi qismi). Shu sababli ushbu shartnomani ikki tomonlama shartnomalar sirasiga kiritish to'g'ri yechim deb o'ylayman.

Transport vositasi egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilishda subyekt sifatida sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchilar ishtirok etadi. Ushbu sug'urta turining obyekti transport vositasidan foydalanishda transport vositalari egalarining jabrlanuvchilar hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarligi qonunchilikka muvofiq yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlar majburiy sug'urta obyektidir. Mazkur shartnomaning shakli yozma

shaklda bo'lib, bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi. Bu haqida Fuqarolik kodeksining 927-moddasida ham belgilab o'tilgan.

Avtomobilida noto'g'ri harakatlanish, yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik, avtomobilni o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazmaslik va boshqa shunga o'xshash sabablar natijasida fuqarolar o'zlari va atrofdagilarga ham turli hil ziyonlar yetkazishi mumkin. Yurtimizda transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi majburiy sug'urta qilish Fuqarolik kodeksi, 2008-yil 21-fevralda qabul qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2008-yil 24-iyunda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 141-sonli qarori, 2015-yil 26-martda qabul qilingan.

Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasida sug'urta qildiruvchi ham sug'urtalovchi ham muayyan majburiyatlarga ega. Transport vositalari egalari zimmasiga yuqorida keltirilgan majburiyatlardan tashqari quyidagi majburiyatlar ham yuklanadi: transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazishda, qayta ro'yxatdan o'tkazishda, ularning majburiy texnik ko'rigini tashkil etish, yo'l harakati qoidalariga va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish va shu kabi boshqa majburiyatlar yuklangan. Bu majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorat yo'l harakati xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Chet davlatida ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtinchalik foydalanilayotgan transport vositalarining egalari tomonidan majburiy sug'urta bo'yicha qonunchiligimizda belgilangan majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazoratni bojxona organlari va davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati amalga oshiradi. Bu borada ham to'g'ri yo'l tutilgan sababi Respublika hududida diplomatiya vakolatxonalari xodimlari ularning oila a'zolari egallab turgan transport vositalari ham harakatlanadi. Ular imtiyozli huquqqa ega ekanliklarini hisobga olgan holda ularning transport vosidasidan foydalanishdagi fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan bir qatorda bojxona tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

ADABIYOTLAR:

1. "Fuqarolik huquqi". Darslik. - Toshkent: Adolat, 2007.- 521-bet
2. Брагинский М.И. Витрянский В.В. Договорный право.- Москва.: 2002.-стр 801-813
3. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 841-853.
4. В.Бакунов. Страпховое право. Южно Сахалинск.:2011 5. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI.

FUQAROLIK JAMIYAT TUZISHDA SUD-HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Shamshetova Zulxumor Karamatdin qizi
Berdiboyev Sardor Erkaboy o'g'li

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, Fuqarolik jamiyatini tuzishda sud huquq sohasida davlatimizda olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan*

Kalit so'z: *Fuqarolik jamiyati, demokratiya, inson, siyosat, Konstitutsiya, sud, huquqiy islohot.*

Fuqarolik jamiyat – bu inson, shaxs erkinligi ustun bo'lgan jamiyat, fuqarolik jamiyatining institutlari (siyosiy partiyalar, turli jamiyat va jamoat tashkilotlari) rivojlangan jamiyatidir.

Fuqarolik jamiyatining bir necha belgilari bor bo'lib ular:

birinchidan, fuqarolik jamiyati huquqiy davlat bilan chambarchas bog'liq, ular bir-birisiz mavjud bolmaydi. Demokratik davlat jamiyat a'zolarining barchasi o'z manfaatlarini ko'zlab teng imkoniyatlar yaratadi, demokratiya xalq hokimiyatining nazorat ob'ekti emas, u hokimiyatining sub'ekti hisoblanadi, ikkinchidan, fuqarolik jamiyatda yoquri turuvchi asosiy idoralarining bazi vakolatlari quyi idoralarga berilishi, uchinchidan, mulkni umumiyashtirishdan voz kechib, uni xususiyashtirish siyosatini amalga oshirish.

Fuqarolik jamiyatining yana bir muhim jihati-erkin shaxsni shakllantirish. Har bir demokratik davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish eng dolzarb vazifalardan sanaladi. Asosiy tayanchimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida demokratik huquqiy davlat barpo etish maqsadi belgilangan¹⁶. Konstitutsiyamizning 13-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplariga asoslanadi. Ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Respublikamizda o'tkazilayotgan sud huquq islohotlarda qonunlarga, shu bois jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligida o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sudlarning va huquq-tartibini muhofaza qilish organlarining faoliyatida asosiy mazmunga aylanishi kerak. Sud jazolovchi organdan oddiy organga aylanib, haqiqattan ham mustaqil bo'lib qolishi kerak. So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash hamda sudyalar hamjamiyati rolini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlovni samaradorligini oshirish" to'g'risidagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 7 dekabrda PF-6127-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 10 avgustdagi PF-6041-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sudlar

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://constitution.uz/oz/clause/index>

faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 3 sentyabrdagi PQ-4818-son qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 30 avgustdagi PQ-3250-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sudyalar va ularning oila a'zolari pensiya ta'minoti shartlari, me'yorlari hamda tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2019 yil 9 yanvardagi 11-son qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sudyalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2018 yil 20 dekabrdagi 1036-son qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sudyalarning hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2018 yil 27 oktyabrdagi 879-son qaroriga muvofiq sud-huquq sohasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish, ishlarni sudda ko'rish sifatini oshirish hamda xolis, adolatli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish uchun taraflarning tengligi va tortishuvchanligini amalda ta'minlash mexanizmlarini kengaytirishni maqsad qildi. Shu qonun doirasida tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyihada quyidagilar ko'rsatilgan:

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatini ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazish;

apellatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud qarorlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari tomonidan kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish; davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan taqdirda rehabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatish

prokuror tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori bo'yicha ishlarni, ushbu ishlar yuzasidan taraflar murojaati mavjud bo'lgan holdagina, suddan chaqirib olib o'rganish, va boshqada islohatlarni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari natijasida Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llash imkoniyat yanada kengaydi. Bu esa, davlatimizning insonparvarlik siyosatining yaqqol ko'rinishidir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan bu keng qamrovli islohotlar huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va shakllantirishga xizmat qiladi. Sud-huquq islohotlari hech qachon bir joyda to'xtab qolmasligi kerak, qo'lga kiritilgan zafarlar bilan chegaralanib qolmasdan, islohotlar yanada keng miqyosda davom etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021y. URL: <https://constitution.uz/oz/clause/index#section1>

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2021 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. URL: <https://lex.uz/docs/-111453>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6034-sonli "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

URL: <https://lex.uz/docs/-4910826>

4. "Фуқаролик жамиятини шакллантиришда демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва ривожлантиришнинг аҳамияти". Республика илмий-амалий конференция материаллари. Нукус, 2011. 204 бет.

5. Утемуратова, Ш. (2014). ЭКОЛОГИЯ СОНАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА БУ ТУРДАГИ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 23(2), 104-107. URL: <https://karsu.uz/wp-content/uploads/2019/04/%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BD%D0%B8%D0%BA-2014-2.pdf#page=102>

BOLALARDA YURAK TUG'MA NUQSONLARI

Ruzmetov Elyor

Tug'ma yurak porogining sababi genetik (irsiy) yoki ekologik (atrof-muhit) omil bo'lishi mumkin, lekin odatda, ikkalasining kombinatsiyasi.

Genetik Omillar; Tug'ma yurak poroklarining eng o'rganilgan sabablari — nuqtali genetik o'zgarishlar yoki DNK segmentlarining delesiya yoki dublikatsiyasi shaklidagi xromosomal mutatsiyalardir. 21, 13 va 18 trisomiya kabi asosiy xromosomal buzilishlar TYP holatlarining taxminan 5-8% ni tashkil qiladi. 21-xromosoma trisomiyasi — eng keng tarqalgan genetik sababdir. Ba'zi genlar muayyan poroklar bilan bog'liq. Yurak mushaklari oqsilining, α -miozin og'ir zanjirining (*MYH6*) mutatsiyalari bo'lmachalararo to'siqning nuqsonlari bilan bog'liq.

MYH6 bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ba'zi oqsillar ham yurak nuqsonlari bilan bog'liq. **GATA4** transkripsiya faktori MYH6 bilan ta'sir qiluvchi **TBX5** geni bilan kompleks hosil qiladi. Yana bir omil, **NKX2-5** oqsili gomeoboksi ham MYH6 bilan ta'sirlashadi. Bu oqsillarning mutatsiyalari bo'lmachalararo va qorinchalararo to'siq nuqsonlari rivojlanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, NKX2-5 yurakning elektr o'tkazuvchanligi nuqsonlari bilan, TBX5 esa Holt-Oram sindromi bilan bog'liq. Boshqa T-box gen, **TBX1**, Di Jorj sindromi bilan bog'liq bo'lib, uning delesiya ko'plab alomatlar paydo bo'lishiga olib keladi, shu jumladan yurak qon otilishi nuqsonlari, shu jumladan Fallo tetradasi.

Genetik mahsulotlar va ular bilan bog'liq namoyishlar misollari						
	MYH6	GATA4	NKX2-5	TBX5		TBX1
Lokus	14q11.2-q13	8p23.1-p22	5q34	12q24.1		22q11.2
Sindrom				Holt-Oram sindromi		Di Jorj sindromi
Bo'lmachalararo nuqsonlari to'siq	✓	✓	✓	✓		
Qorinchalararo nuqsonlari to'siq		✓	✓	✓		
Elektr o'tkazuvchanlik buzilishi			✓	✓		
Qon qayta oqishi buzilishi						✓
Yurak bilgan bog'liq bo'lmagan alomatlar				Qo'llar nuqsoni		Timusning kichikligi yoki yo'qligi; Qalqonsimon orqa bezning kichikligi yoki yo'qligi; Yuz nuqsonlari.

EKOLOGIK OMILLAR

Genetik mutatsiyalar uchta asosiy mutagenlarning ta'siri oqibatida kelib chiqadi:

- **Fizik mutagenlar** — asosan ionlashtiruvchi nurlanish.

• **Kimyoviy mutagenlar** — laklar, bo'yoqlar fenollari, nitratlar, tamaki chekishda *benzpiren*, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, gidantoin, litiy, talidomid, teratogen dorilar — antibiotiklar va HTP, NYQP va boshqalar).

• **Biologik mutagenlar** — asosan onaning tanasida qizilcha virusi mavjudligi, u homilada tug'ma qizilcha va xarakterli Gregg triadasi — tug'ma yurak nuqsoni, katarakta va karlikka olib keladi; shuningdek, onada tizimli qizil volchanka, qandli diabet, fenilketonuriya bo'lishi ham biologik mutagen sifatida xizmat qilishi mumkin.

TUG'MA YURAK POROKLARINING JINS BILAN BOG'LIQLIGI

Tug'ma yurak nuqsonlarining jins bilan bog'liqligini o'rganish 1970-yillarning boshlarida, bir nechta yirik kardioxirurgik markazlarda to'plangan ma'lumotlar va adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan. Tug'ma yurak va magistral tomirlar nuqsonlari bilan og'rigan 31814 nafar bemorni tahlil qilish natijasida porok turi va bemorning jinsi o'rtasida aniq bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Jinslarning nisbati bo'yicha tug'ma yurak nuqsonlari uch guruhga bo'linishi mumkin: «erkak», «ayol» va «neytral». Jadvalda **E** — **erkak**, **A** — **ayol**.

vvTug'ma yurak porogining sababi genetik (irsiy) yoki ekologik (atrof-muhit) omil bo'lishi mumkin, lekin odatda, ikkalasining kombinatsiyasi.

GENETIK OMILLAR

Tug'ma yurak poroklarining eng o'rganilgan sabablari — nuqtali genetik o'zgarishlar yoki DNK segmentlarining delesiya yoki dublikatsiyasi shaklidagi xromosomal mutatsiyalardir. 21, 13 va 18 trisomiya kabi asosiy xromosomal buzilishlar TYP holatlarining taxminan 5-8% ni tashkil qiladi. 21-xromosoma trisomiyasi — eng keng tarqalgan genetik sababdir. Ba'zi genlar muayyan poroklar bilan bog'liq. Yurak mushaklari oqsilining, α -miozin og'ir zanjirining (*MYH6*) mutatsiyalari bo'lmachalararo to'siqning nuqsonlari bilan bog'liq.

MYH6 bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ba'zi oqsillar ham yurak nuqsonlari bilan bog'liq. **GATA4** transkripsiya faktori MYH6 bilan ta'sir qiluvchi **TBX5** geni bilan kompleks hosil qiladi. Yana bir omil, **NKX2-5** oqsili gomeoboksi ham MYH6 bilan ta'sirlashadi. Bu oqsillarning mutatsiyalari bo'lmachalararo va qorinchalararo to'siq nuqsonlari rivojlanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, NKX2-5 yurakning elektr o'tkazuvchanligi nuqsonlari bilan, TBX5 esa Holt-Oram sindromi bilan bog'liq. Boshqa T-box gen, **TBX1**, Di Jorj sindromi bilan bog'liq bo'lib, uning delesiya ko'plab alomatlar paydo bo'lishiga olib keladi, shu jumladan yurak qon otilishi nuqsonlari, shu jumladan Fallo tetradasi.

Genetik mahsulotlar va ular bilan bog'liq namoyishlar misollari

	MYH6	GATA4	NKX2-5	TBX5		TBX1
Lokus	14q11.2-q13	8p23.1-p22	5q34	12q24.1		22q11.2
Sindrom				Holt-Oram sindromi		Di Jorj sindromi
Bo'lmachalararo nuqsonlari to'siq	✓	✓	✓	✓		
Qorinchalararo nuqsonlari to'siq		✓	✓	✓		
Elektr o'tkazuvchanlik buzilishi			✓	✓		

Qon qayta oqishi buzilishi						✓
Yurak bilgan bog'liq bo'lmagan alomatlar				Qo'llar nuqsoni		Timusning kichikligi yoki yo'qligi; Qalqonsimon orqa bezning kichikligi yoki yo'qligi; Yuz nuqsonlari.

EKOLOGIK OMILLAR

Genetik mutatsiyalar uchta asosiy mutagenlarning ta'siri oqibatida kelib chiqadi:

- **Fizik mutagenlar** — asosan ionlashtiruvchi nurlanish.
- **Kimyoviy mutagenlar** — laklar, bo'yoqlar fenollari, nitratlar, tamaki chekishda *benzpiren*, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, gidantoin, litiy, talidomid, teratogen dorilar — antibiotiklar va HTP, NYQP va boshqalar).
- **Biologik mutagenlar** — asosan onaning tanasida qizilcha virusi mavjudligi, u homilada tug'ma qizilcha va xarakterli Gregg triadasi — tug'ma yurak nuqsoni, katarakta va karlikka olib keladi; shuningdek, onada tizimli qizil volchanka, qandli diabet, fenilketonuriya bo'lishi ham biologik mutagen sifatida xizmat qilishi mumkin.

TUG'MA YURAK POROKLARINING JINS BILAN BOG'LIQLIGI

Tug'ma yurak nuqsonlarining jins bilan bog'liqligini o'rganish 1970-yillarning boshlarida, bir nechta yirik kardioxirurgik markazlarda to'plangan ma'lumotlar va adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan. Tug'ma yurak va magistral tomirlar nuqsonlari bilan og'rigan 31814 nafar bemorni tahlil qilish natijasida porok turi va bemorning jinsi o'rtasida aniq bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Jinslarning nisbati bo'yicha tug'ma yurak nuqsonlari uch guruhga bo'linishi mumkin: «erkak», «ayol» va «neytral». Jadvalda **E** — **erkak**, **A** — **ayol**.

Tug'ma yurak porogining sababi genetik (irsiy) yoki ekologik (atrof-muhit) omil bo'lishi mumkin, lekin odatda, ikkalasining kombinatsiyasi.

GENETIK OMILLAR

Tug'ma yurak poroklarining eng o'rganilgan sabablari — nuqtali genetik o'zgarishlar yoki DNK segmentlarining deletsiya yoki dublikatsiyasi shaklidagi xromosomal mutatsiyalardir. 21, 13 va 18 trisomiya kabi asosiy xromosomal buzilishlar TYP holatlarining taxminan 5-8% ni tashkil qiladi. 21-xromosoma trisomiyasi — eng keng tarqalgan genetik sababdir. Ba'zi genlar muayyan poroklar bilan bog'liq. Yurak mushaklari oqsilining, α -miozin og'ir zanjirining (*MYH6*) mutatsiyalari bo'lmalachalararo to'siqning nuqsonlari bilan bog'liq.

MYH6 bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ba'zi oqsillar ham yurak nuqsonlari bilan bog'liq. **GATA4** transkripsiya faktori MYH6 bilan ta'sir qiluvchi **TBX5** geni bilan kompleks hosil qiladi. Yana bir omil, **NKX2-5** oqsili gomeoboksi ham MYH6 bilan ta'sirlashadi. Bu oqsillarning mutatsiyalari bo'lmalachalararo va qorinchalararo to'siq nuqsonlari rivojlanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, NKX2-5 yurakning elektr o'tkazuvchanligi nuqsonlari bilan, TBX5 esa Holt-Oram sindromi bilan bog'liq. Boshqa T-box gen, **TBX1**, Di Jorj sindromi bilan bog'liq bo'lib, uning deletsiyasi ko'plab alomatlar paydo bo'lishiga olib keladi, shu jumladan yurak qon otilishi nuqsonlari, shu jumladan Fallo tetradasi.

EKOLOGIK OMILLAR

Genetik mutatsiyalar uchta asosiy mutagenlarning ta'siri oqibatida kelib chiqadi:

- **Fizik mutagenlar** — asosan ionlashtiruvchi nurlanish.

• **Kimyoviy mutagenlar** — laklar, bo'yoqlar fenollari, nitratlar, tamaki chekishda *benzpiren*, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, gidantoin, litiy, talidomid, teratogen dorilar — antibiotiklar va HTP, NYQP va boshqalar).

• **Biologik mutagenlar** — asosan onaning tanasida qizilcha virusi mavjudligi, u homilada tug'ma qizilcha va xarakterli Gregg triadasi — tug'ma yurak nuqsoni, katarakta va karlikka olib keladi; shuningdek, onada tizimli qizil volchanka, qandli diabet, fenilketonuriya bo'lishi ham biologik mutagen sifatida xizmat qilishi mumkin.

TUG'MA YURAK POROKLARINING JINS BILAN BOG'LIQLIGI

Tug'ma yurak nuqsonlarining jins bilan bog'liqligini o'rganish 1970-yillarning boshlarida, bir nechta yirik kardioxirurgik markazlarda to'plangan ma'lumotlar va adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan. Tug'ma yurak va magistral tomirlar nuqsonlari bilan og'rigan 31814 nafar bemorni tahlil qilish natijasida porok turi va bemorning jinsi o'rtasida aniq bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Jinslarning nisbati bo'yicha tug'ma yurak nuqsonlari uch guruhga bo'linishi mumkin: «erkak», «ayol» va «neytral». Jadvalda **E** — **erkak**, **A** — **ayol**.

Tug'ma yurak porogining sababi genetik (irsiy) yoki ekologik (atrof-muhit) omil bo'lishi mumkin, lekin odatda, ikkalasining kombinatsiyasi.

GENETIK OMILLAR

Tug'ma yurak poroklarining eng o'rganilgan sabablari — nuqtali genetik o'zgarishlar yoki DNK segmentlarining delesiya yoki dublikatsiyasi shaklidagi xromosomal mutatsiyalardir. 21, 13 va 18 trisomiya kabi asosiy xromosomal buzilishlar TYP holatlarining taxminan 5-8% ni tashkil qiladi. 21-xromosoma trisomiyasi — eng keng tarqalgan genetik sababdir. Ba'zi genlar muayyan poroklar bilan bog'liq. Yurak mushaklari oqsilining, α -miozin og'ir zanjirining (*MYH6*) mutatsiyalari bo'lmachalararo to'siqning nuqsonlari bilan bog'liq.

MYH6 bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ba'zi oqsillar ham yurak nuqsonlari bilan bog'liq. **GATA4** transkripsiya faktori MYH6 bilan ta'sir qiluvchi **TBX5** geni bilan kompleks hosil qiladi. Yana bir omil, **NKX2-5** oqsili gomeoboksi ham MYH6 bilan ta'sirlashadi. Bu oqsillarning mutatsiyalari bo'lmachalararo va qorinchalararo to'siq nuqsonlari rivojlanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, NKX2-5 yurakning elektr o'tkazuvchanligi nuqsonlari bilan, TBX5 esa Holt-Oram sindromi bilan bog'liq. Boshqa T-box gen, **TBX1**, Di Jorj sindromi bilan bog'liq bo'lib, uning delesiyasi ko'plab alomatlar paydo bo'lishiga olib keladi, shu jumladan yurak qon otilishi nuqsonlari, shu jumladan Fallo tetradasi.

Genetik mahsulotlar va ular bilan bog'liq namoyishlar misollari					
	MYH6	GATA4	NKX2-5	TBX5	TBX1
Lokus	14q11.2-q13	8p23.1-p22	5q34	12q24.1	22q11.2
Sindrom				Holt-Oram sindromi	Di Jorj sindromi
Bo'lmachalararo to'siq nuqsonlari	✓	✓	✓	✓	
Qorinchalararo to'siq nuqsonlari		✓	✓	✓	
Elektr o'tkazuvchanlik buzilishi			✓	✓	

Qon qayta oqishi buzilishi					✓
Yurak bilgan bog'liq bo'lmagan alomatlar				Qo'llar nuqsoni	Timusning kichikligi yoki yo'qligi; Qalqonsimon orqa bezning kichikligi yoki yo'qligi; Yuz nuqsonlari.

EKOLOGIK OMILLAR

Genetik mutatsiyalar uchta asosiy mutagenlarning ta'siri oqibatida kelib chiqadi:

- **Fizik mutagenlar** — asosan ionlashtiruvchi nurlanish.
- **Kimyoviy mutagenlar** — laklar, bo'yoqlar fenollari, nitratlar, tamaki chekishda *benzpiren*, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, gidantoin, litiy, talidomid, teratogen dorilar — antibiotiklar va HTP, NYQP va boshqalar).
- **Biologik mutagenlar** — asosan onaning tanasida qizilcha virusi mavjudligi, u homilada tug'ma qizilcha va xarakterli Gregg triadasi — tug'ma yurak nuqsoni, katarakta va karlikka olib keladi; shuningdek, onada tizimli qizil volchanka, qandli diabet, fenilketonuriya bo'lishi ham biologik mutagen sifatida xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

- 1 Sulaymonov A.S. va boshqalar, Bolalar xirurgiyasi, T., 2000;
- 2 Xaydarov G'.O., Ermatov Sh.X., Ichki kasalliklar, T., 2002.

TARBIYA DARSLARIDA O`YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ergasheva Umida Oripovna

JDPU, o`qituvchisi.

Mail: umida.oripovna@mail.ru

Pedagogikada o`yinli texnologiyalar turli shaklda bo`lsada, ularning barchasi o`z mazmuniga ko`ra yagona maqsad sari yo`naltirilgan bo`ladi. Bunda ular o`quvchilarning nazariy bilimlarini kengaytirish, egallangan ushbu bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko`nikmalarini hosil qilish, ijtimoiy faollikni yuksaltirish, yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog`lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo`lgan komil shaxsni tarbiyalashdek muhim vazifani bajaradi.

Tarbiya darslarida o`yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga qaratilgan bo`ladi. Ular quyidagilar:

- kommunikativlik (uyushtiruvchilik)
- o`z imkoniyatlarini amalga oshirish
- millatlararo muloqot
- ijtimoiylashuv

Ta`lim jarayonida didaktik o`yinli texnologiyalar didaktik o`yinli dars shaklida qo`llaniladi. Ushbu darslarda o`quvchilarning bilim olish jarayoni o`yin faoliyati orqali uyg`unlashtiriladi. Shu sababli o`quvchilarning ta`lim olish faoliyati o`yin faoliyati bilan uyg`unlashgan darslar didaktik o`yinli darslar deyiladi.

Dars jarayonida o`yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O`yin faoliyati orqali o`quvchining o`qishga, mehnatga bo`lgan qiziqishi ortadi;
2. O`yin davomida o`quvchining muloqotga kirishishi ya`ni, muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;
3. O`quvchining o`z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o`zligini namoyon etishiga imkon yaratadi;

Didaktik o`yinli mashg`ulotlarni o`quvchilarning bilim olishi va o`yin faoliyatining uyg`unligiga qarab: sujetli-rolli o`yinlar, ijodiy o`yinlar, ishbilarmonlar o`yini, anjumanlar, o`yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Pedagogik o`yinlar quyidagi asosiy yo`nalishlarda bo`ladi:

- didaktik maqsad o`yinli vazifa shaklida qo`yiladi;
- o`quv faoliyati o`yin qoidalariga bo`ysunadi;
- o`quv materialidan o`yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o`quv jarayoniga didaktik vazifa o`yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

Didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o`yin natijalari bilan bog`lanadi.

Quyida «Tarbiya» fanini o`qitishda didaktik o`yinli mashg`ulotlardan ayrimlarini ko`rsatib o`tamiz.

Didaktik o`yinli mashg`ulotlar orasida anjuman mashg`ulotlari ham muhim o`rin tutadi. Anjuman mashg`ulotlari o`quvchilarning bilish faoliyatini oshirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo`shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko`nikma va malakalarini shakllantirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anjuman mashg`ulotini o`tishdan avval mashg`ulot mavzuini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo`shimcha adabiyotlar ko`zdan kechiriladi.

Mashg'ulotni o'tkazishdan bir hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib, unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda «IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan rivoji» mavzusida “Buyuk allomalar” rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma'ruza tayyorlash o'quvchilarning ixtiyorida bo'ladi.

Ilmiy anjuman mashg'ulotini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:

1. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi “Buyuk allomalar” bilan o'quvchilarni tanishtiradi.
2. O'quvchilar ma'ruzalarni tinglash. “Buyuk allomalar” mavzu yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon qiladilar.
3. Ma'ruzalar muhokamasi. Bunda “Buyuk allomalar” va guruhdagi boshqa o'quvchilar o'rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara o'tkaziladi.
4. Ilmiy anjuman yakuni. O'qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g'oyalarni ta'kidlab, darsni yakunlaydi.
5. O'quvchilarni baholash. Mashg'ulotda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.
6. Uyga vazifa berish.
7. Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

Bu darsda o'quvchi tomonidan aytilgan ma'lumotlar to'g'ri ekanligini aniqlash boshqa o'quvchilarga yuklatilganligi barcha o'quvchilarni darsga jalb qilinishiga erishiladi.

Tarbiya darslarida bunday o'yinli texnologiyalardan foydalanish darsni bir xillikdan, dars markazida faqat o'qituvchi bo'lishidan yiroqlashtiradi. Bu esa o'quvchida o'ziga nisbatan ishonchni oshishiga hamda darsni samarali bo'lishiga olib keladi. Bunday texnologiyali darslarni har bir o'qituvchi o'z malakasidan kelib chiqqan holda darslarida foydalansa bo'ladi. Zero, interfaol darslar bugungi kunning talabi hamdir.

O‘RTA ASRLARDA XORAZM VOHASIDA QURILISH MADANIYATI TARIXI

Hurmat Rahimboyev Xursand o‘g‘li

Ish joyim Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani

13-son umumiy o‘rta ta‘lim maktab.

Lavozim Tarix fanidan o‘qituvchi

Annotatsiya: maqolada Xorazmda joylashgan qadimiy yodgorliklar qo‘rg‘onlarning qisqacha tarixi va ularni avaylab-asrash zarurligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘rg‘on, Xorazm, Fir saroyi, Burgutqal‘a, Teshikqal‘a, Kuyukqal‘a, Mizdakhon.

Xorazm hududidan ilk o‘rta asrlar davriga oid shahar va mustahkamlangan qo‘rg‘oncha qoldiqlari topib o‘rganilgan. Fir saroyi, Burgutqal‘a, Teshikqal‘a, Kuyukqal‘a, Mizdakhon va boshqalar shular jumlasidandir. Burgutqal‘a, Teshikqal‘a qasr-istehkomlari VI-VIII asrlarga mansubdir. Mazkur davrda qal‘alar balandligi 4-8 m bo‘lgan mustahkam tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. Burgutqal‘a xarobalari eramizdan avvalgi I asrda odamlar yashaydigan 200x150 metrlik hajmdagi qo‘rg‘on bo‘lganligi aniqlangan. Bizgacha yetib kelgan Burgutqal‘a xarobalari VII—VIII asrlardan boshlab qayta qurilgan qal‘a-qo‘rg‘on hisoblanadi. Qal‘a to‘rt tomoni baland istehkomli devor bilan o‘rab olingan. Qo‘rg‘on maydonini (100 x 160 m) o‘rab turuvchi devorning balandligi 10 metr bo‘lib, uning pastki qismi qalinligi 2,5 metr keladi. Qo‘rg‘on devoriga yopishtirilib tashqariga g‘ishtdan val shaklida qurilgan minora inshootining yuqori qavatida paxsa devordan bo‘lib, mudofaaning mustahkam bo‘lishini ko‘zlab qilinganligini ko‘rsatadi. Minoradagi navbatchi soqchilarning mo‘ljalga olish teshiklari kengligi 20 santimetr bo‘lib, balandligi 30 santimetrni tashkil etsa-da, tashqaridan 1 metr ko‘rinish beradi. Minoraning pastki qavatidagi nishonga olish joyi qat‘iy tartibda parallel ishlangan. Bu esa kuzatuv punktlarida turgan himoyachilarning bostirib kelayotgan dushmanga aniq zarba berishlarini ta‘minlash bilan birga qayerdan turib qarshilik ko‘rsatayotganligini sezdirmaslik maqsadida ishlanganligidan dalolat beradi. Burgutqal‘ada qo‘shimcha past to‘siq devorlarining bo‘lganligi qadimgi harbiy san‘atdagi yutuqlardan foydalanishning ko‘rinishidir. Past to‘siq devor urush paytida devor buzuvchi mashinalarning hujumidan qal‘a aholisini himoya qilishga mo‘ljallangan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xorazmshoh Chagon ukasi Xurshod turgan Burgutqal‘aga qarshi urush ochadi. Xurshod boshchiligida burgutqal‘aliklar shoh Chagon qo‘shinlarini yengib, vohadan va Xorazmdan surib tashlaydilar. O‘z ukasining qo‘shinlaridan yengilgan shoh Chagon nomardlik qilib, Xorazmni o‘zlariga qaram qilib olishga shay turgan arab bosqinchilariga Xurshodni yengib olishda yordam so‘rab murojaat qiladi. Natijada arab qo‘shinlari 712 yilda Xorazmning poytaxti Katni, keyin Burgutqal‘a va uning atrofidagi aholi punktlarini uzoq kurashlardan keyin bosib oladi va qarshilik ko‘rsatganligi uchun aholini qirib tashlaydi. Natijada Burgutqal‘ada hayot so‘nadi. Qal‘a atrofida bu qirg‘indan omon qolgan aholi yana bir asrga yaqin hayot kechirgan. Arablar istilosidan ancha keyin, ya‘ni X asrda Burgutqal‘a va uning atrofida turli to‘qnashuvlar hamda suvsizlik oqibatida hayot tugaydi. Odamdar suvga qulay joylarga ko‘chib ketadilar. Teshikqal‘a maydoni 1 gektarni egallaydi. Qal‘a mudofaa inshootlariga ega bo‘lgan, unga faqat ko‘tarma yo‘l orqali kirilgan. Bu yerdan devorlarga ishlangan rasmlar, gilamparchalari, tangalar topilgan. Qal‘a VII-VIII asrlarda qurilgan. Teshikqal‘a VI—VIII asrlarga oid afriq‘iy davrining ko‘shkidir. Qal‘a Ellikqal‘a tumanidagi “Qirqqiz” ovuli hududida joylashgan. Bu qal‘a

VI-VIII asrlar hayoti va turmushini ifodalovchi muhim tarixiy obidalardan biri hisoblanadi. Teshikqal'a qurilishi me'morchiligining boshqa qal'alarga nisbatan o'zgacha tomoni shundaki, unda ayrim xonalar usti gumbaz qilib bostirilgan. Ya'ni, bu qal'a qurilishida yangicha me'morchilik uslublari qo'llanila boshlangan. Teshikqal'a vohasidagi barcha aholi yashaydigan punktlarning mustahkamlanganligi va moddiy madaniyat qoldiqlarining joy jihatdan farq etish holati vohaning siyosiy va iqtisodiy jihatdan O'rta Osiyoning boshqa viloyatlaridan ajralib qolganligini ko'rsatadi. Bunday ahvol Xorazmning boshqa qal'alarida ham uchraydi. Bu vaziyat arablar istilosidan sal oldingi davrga to'g'ri keladi. Demak, bu davrdagi ichki ziddiyatlar, to'qnashuvlar kuchayib va hukmdorlar bir-birlari bilan kelishmasdan ajralgan holda hayot kechirishlari xorazmshoxlar oliy hokimiyatining zaiflashuviga olib kelgan hamda Xorazmning arablar tomonidan tez va oson bosib olinishiga sabab bo'lgan deyishga asos bo'ladi. Teshikqal'adagi hayot quldorlik tuzumining inqirozga uchrashi, feodalizmning shakllanishi va rivojlanishi, arablar istilosi, zardushtiylik o'rniga islom dinining kirib kelishi kabi siyosiy voqealar bilan ham ifodalanadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Teshikqal'a vohamizdagi juda noyob tarixiy qal'alardan birihisoblanadi. V-VI asrlarda qurilgan Kuyukqal'a 41 gektar maydonni egallagan. Uning ichki qismida ikkita qasr bo'lganligi aniqlandi. Ilk o'rta asrlar devorida Xorazmda ham xo'jalik va madaniy hayot yuksak bo'lganligini moddiy ashyolar tasdiqlaydi. Bu yerning yodgorliklari arablar istilosi arafasida tushkunlik bo'lganini ko'rsatadi. VI-VII asrlarda yangi ko'rinishdagi qishloqlar katta-katta oilalar yashaydigan mustahkamlangan qasr-qo'rg'onlar paydo bo'la boshladi. Bunday qasr-qo'rg'onlar Xorazmda yaxshi o'rganilgan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan erkin aholi mustahkamlangan mayda qo'rg'onchalarda yashaganlar. Xorazmda ana shunday qo'rg'onlarning 200 dan ortig'i topildi. Ular bir-biridan 200 m masofada joylashgan va 34 km kv maydonni egallagan. Har bir qo'rg'onning atrofi devor bilan o'rab olingan. Arab tarixchisi Al-Makdisiyning ma'lumotiga ko'ra Mizdakhon atrofida X asrda 12 mingta qo'rg'onlar bo'lgan. Sobiq ittifoq davrida ko'hna qal'alar qismati achinarli tus olib, bu bebaho yodgorliklarga yaqin joylashgan ayrim xo'jalik rahbarlarining beparovligi, tarix oldidagi mas'uliyatsizligi oqibatida ularning yemirilishiga, hatto kesaklari dalaga "o'g'it" sifatida ishlatilishigacha borib etdi. Holbuki, dunyoning boshqa joylarida uchramaydigan bu noyob va betakror qal'alarning qoldig'ini, uning har bir qarich tuprog'ini ko'zga surtib avaylab-asrashimiz, o'zimizdan keyin keladigan avlodga juda bo'lmasa, hozirgidek holatda bus-butun topshirishimiz darkor.

ADABIYOTLAR:

1. M. Allambergenov. Qadimiy mudofaa qo'rg'onlari. Toshkent; 2007 yil.
2. Vaynberg B. I. Qadimiy Xorazm tangalari. M., 1977.
3. Vorobyeva M. G. Antik davrdagi Xorazm sopolchiligi // TXAEE. IV. M.

ZAMONAVIY AGRAR TERMINAR VA ULARNING XUSUSUSIYATLARI

Gulzoda Xidirova

Toshkent davlat agrar universiteti o'qituvchisi

E-mail: gulzoda@yandex.ru

tel: 90933 63 78

Annotatsiya: *Ushbu maqolada agrar ta'lim yo'nalishlarida adabiy til me'yorlarini o'qitishga oid mulohazalar yuritilib, punktuatsion me'yorlar, modal so'zlar, undalmalarning nutq jarayonidagi ahamiyati, shuningdek, sohaviy atamalarning o'rni haqida so,,z boradi*

Kalit so'zlar: *til, punktuatsiya, modal so,,z, undalma, atama, lug'at.*

Til - millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri. Til mavjud ekan, millat mangu yashaydi, tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. O'zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari, Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"i, Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ulmaoniy", Boburning "Boburnoma" asarlarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va keyingi davr adiblarimiz ijodida jilolanib turibdi. Shuning uchun ham milliy til ta'limi millat kelajagi, rivojlanishi, taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi. Yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy, grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalar. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilari) ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. (G'ulomov & Asqarova, 1978) Tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim belgilar miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yig'indisi - punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi. Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir.

"Terminlar fan, texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir" (Jamolxonov, 2005).

Tadqiqot metodologiyasi: Agrar ta'lim yo'nalishlariga adabiy til me'yorlarini o'qitish borasidagi mulohazalarda lingvistik tahlil, qiyosiy-tipologik, analitik va struktural tahlil metodlaridan foydalanildi.

Talabalar tomonidan tayyorlanayotgan matnlar, diktant va insholarda shu narsa ko'zga tashlanyaptiki, ularning yozma savodxonligini oshirish uchun orfografiya qoidalari bilan bir qatorda tinish belgilari haqida ham alohida bo'lim tashkil etish yoki boshqa mavzular tarkibiga har bir tinish belgisini ham qo'shimcha mavzu yoki topshiriq sifatida qo'shib, dars davomida ular haqida ma'lumot berib o'tilishi va tahlil etilishi kerak (Yazdonov, 2019).

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi modal so'zlar, undalmalar, kirish so'zlar, umuman olganda, gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklar haqida bo'lim yoki mavzular "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fani doirasiga kiritilib, ushbu mavzular bo'yicha talabalarga bilim va ko'nikmalar berilsa, ular kelajakda tinish belgilari bilan bog'liq

xatoliklarga yo'l qo'yish ehtimoli kamayadi. Talabalarining yozma nutqida uchraydigan kamchiliklarning aksariyati punktuatsiyaga oidligi bilan birga ushbu ishoraviy xatolarning ko'pchiligi aynan vergul va tireni qo'llash bilan bog'liqligi ko'rinib qolyapti. Bu o'rinda modal so'zlarni o'qitishda ulami ma'noviy guruhlariga ajratgan holda ishonch ma'nosidagi modal so'zlar (albatta, shaksiz, shubhasiz), gumon (ehtimol, chamasi, shekilli), tasdiq (darhaqiqat, haqiqatan), quvonch (xayriyat), achinish (attang, afsus, esiz), taajjub (ajabo), fikrning dalillanishi (jumladan, masalan), fikrning tartibi (avvalo, avvalombor), o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatliligi darajasi (birinchidan, ikkinchidan), fikrni xulosalash (xullas, demak, umuman) kabi ma'no turlari bilan berilsa, bu kabi modal so'zlarni boshqa gap bo'laklaridan qanday tinish belgisi bilan ajratish lozimligi mashqlar, matnlar yordamida tahlil qilinsa, ko'zlangan maqsadga erishish osonlashadi.

Ma'lumki, "undalma vazifasidagi so'z undash intonatsiyasiga ega bo'ladi. U odatda bosh kelishik shaklidagi (masalan, ega vazifasidagi) so'zga o'xshash bo'ladi, lekin boshqa xususiyatlar bilan birga, undash intonatsiyasi uning ega funksiyasidagi so'zdan farqlanishini ko'rsatib turadi"(Egamberdiyeva, 2022). Bu kabi ko'nikmalar (undalmaning gap bo'lklaridan, xususan, egadan farqli tomonlari) adabiy til me'yorlari bo'limida talabalarga yetkazib berilsa, undalma va undov so'zlar birga kelgan o'rinlarda tinish belgilarining qo'llanishi haqida, shuningdek, yig'iq va yoyiq undalma va ularda tinish belgilarining qo'llanilishi haqida mavzu bayonida tushunchalar berilib, misollar asosida tahlil qilinsa, yuqoridagi kabi holatlarda vergul yoki boshqa tinish belgilarini ishlatishda tushunmovchiliklar kelib chiqmaydi(Yuldosheva, 2022).

Umuman olganda, punktuatsion me'yorlarga chuqurroq ahamiyat berilsa, tire va boshqa tinish belgilarini ham o'z o'rnida qo'llash malakasi shakllanishi, shubhasiz.

Bunda qoidani quruq yodlatish kerak emas, nutq qaysi qonuniyat doirasida ketayotganini anglatish zarur. Odatda mavzu bayonida qoida berilib, ortidan misol berilib ketilaveradi. Bu an'ana doim ham kutilgan natija beravermaydi. Misoldan qonuniyat yaratish kerak. Darsliklarda, odatda, bu hisobga olinmaydi. Talabaning o'zi amaliy mashg'ulot davomida mashq bajarib ko'rishi, o'zi misoldan qoidani chiqarishi kerak. Ya'ni misoldan qoidaga qaytiladi. Misollar asosida tushuntiriladigan barcha mavzularda shu tamoyil asosida yondashilishi, darslik, o'quv qo'llanmalarda zarur mavzularning tahliliy qismi shunday asosda tuzilishi lozim. Ya'ni o'quvchi yoki talaba ushbu tinish belgisini nima uchun qo'llayotgani, o'sha qo'shma so'zni nima uchun qo'shib yoki ajratib yozayotganligini ko'r-ko'rona emas, balki qaysi punktuatsion yoki orfografik me'yorga asosan ish tutayotganligini bilsagina, kelgusida ham bunday o'rinlarda imloviy va ishoraviy xatolarga yo'l qo'ymaydi deya olishimiz mumkin.

Bundan tashqari, yaratilayotgan matn, yozilayotgan insholarda uslubiy g'aliz jumalarni kamaytirish uchun to'g'ri so'z tanlash imkoniyatlarini ham ko'rib chiqish lozim. So'zga uslub jihatdan yondashuv fikrni aniq ifodalashga ko'mak beruvchi so'z tanlash zaruriyatini paydo etadi. Muallif tomonidan so'zning to'g'ri tanlangani faqat uslub alomatlari bo'lib qolmay, matnning axborot tashish qimmatini oshirib, mazmun ta'sirini kuchaytiradi. So'zni o'rinsiz tanlash esa fikrni anglatishda qiyinchilik keltirib chiqarish barobarida, mantiqiy xatoliklarga ham sabab bo'ladi. Bu o'rinda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini mavzular tarkibida o'rganib, og'zaki va yozma nutq jarayonida sinonim, paronimlar so'zlarni to'g'ri qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirish, shakldosh (omonim) so'zlarning ma'no qirralarini bilish nutq sohibining lug'at boyligini oshirib, so'z qo'llash mahoratini oshiruvchi asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan jadal islohotlar, joriy qilinayotgan ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy texnologiyalar, agrar ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi hamda globallashuvi

jarayonlari, bu boradagi zamonaviy innovatsiyalar sohada qo'llanib kelinayotgan atamalar an'anaviy tarkibining o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu yangi so'z va iboralar bevosita bo'lajak mutaxassislar leksikasida aks etib borishi uchun agrar sohadagi atamalarning izohli lug'atini yangi kirib kelgan va yasalgan terminlarni kiritgan holda nashr etish kun tartibidagi masala ekanligi sir emas. Bu borada yetakchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor, albatta. Ayrim atamalar o'ta ommalashib, umumtil birligiga aylanib qolmoqda. Mazkur jarayon lingvistikada "determinlashish"(Jamolxonov, 2005) hodisasi deyiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tili lug'at tarkibida atamalarning tutgan o'rnini ko'rsatib beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, to'g'ri va ravon so'zlaydigan, bexato yozadigan savodxon mutaxassisni tayyorlash uchun yuqoridagi kabi adabiy me'yorlar chuqurroq tahlil qilinsa, o'ylaymizki, ko'zlagan maqsadimizga erishishimiz osonroq bo'ladi. Kasbiy sohaga oid terminlar bilan ishlashda agrar tarmoq atamaları suv va havodek zarur. Har bir mavzuga oid matn bilan ishlash jarayonida bu kabi lug'atlarning o'rni sezilib qolmoqda. Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning lug'ati nashr etilsa, bunday muommalarga barham berilgan bo'lardi. Zero, talaba qancha ko'p atama (termin) bilsa, ularni tushunib sharhlay olsa, uning nutqi

FOYDALANILGAN ADABITYOTLAR:

1. Egamberdiyeva, H. S. (2022). GENERAL TECHNIQUE FOR DREAM ANALYSIS. Academic research in educational sciences, 3(1), 699-704.
2. G'ulomov, A., & Asqarova, M. (1978). Hozirgi o 'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent: O 'qituvchi, 23-24.
3. Jamolxonov, H. (2005). Hozirgi o 'zbek adabiy tili. Toshkent-2007.
4. Yazdonov, U. b. T. (2019). ОРГАНИЗАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ ПОД ВЛИЯНИЕМ ФОРМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ. Theoretical & Applied Science(9), 88-92.
5. Yuldosheva, L. T. (2022). IMPLEMENTATION OF VISUAL LITERACY IN A MUSEUM USING THE NEW MODELS OF PEDAGOGUE. Academic research in educational sciences, 3(1), 686-690.
6. Komilova, N. K., Hudayberganova, R. T., Murtazaev, I. B., Abdinazarova, H. O., & Madaminov, Z. H. (2019). Economic and geographic problems of improvement of industrial sectors and local structure of Uzbekistan. J. Advanced Res. L. & Econ., 10, 1916.
7. Обидов, У., Усманов, М., & Мадаминов, З. (2020). ФАРЕОНА ВОДИЙСИДА ЩЛИМИЙ ВА ГИДРОЛОГИК ТАД^ЩОТЛАРНИНГ ОЛИБ БОРИЛИШИ. ОБЩЕСТВА УЗБЕКИСТАНА, 196.
8. Madaminov, Z. K. (2020). PRODUCTION AND CONSUMPTION OF GOODS OF PEOPLE'S CONSUMPTION AS AN OBJECT OF GEOGRAPHICAL RESEARCHES. Экономика и социум, (1), 61-63.
9. Мадаминов, З. Х., Салиджанов, С. О., & Сабилов, Т. С. (2019). ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПРИРОДА-НАСЕЛЕНИЕ-ХОЗЯЙСТВО (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСНОЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОСТИ). Экономика и социум, (10), 481-484.
10. Мадаминов, З. Х. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИИ. Экономика и социум, (10), 485-488.

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEV HIKOYALARIDA XARAKTER VA RUHIYAT IFODASI

Rushana Zaripova

*Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida inson ruhiyatining o‘zaro tasvirlanishi, hamda hikoyalaridagi obrazlarning tasviri atroflicha yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abduqayum Yo‘ldoshev, hikoya, janr, realistik, ruhiyat, ota obrazi, qahramonlar, inson, davr muammosi, badiiy tasvir*

Аннотация: *данной статье подробно изложено взаимное описание человеческой психики в рассказах Абдукаюма Юлдошева, а также описание персонажей его рассказов.*

Ключевые слова: *Абдукаюм Юлдошев, повесть, жанр, реализм, психика, образ отца, персонажи, человек, проблема эпохи, художественный образ.*

Annotation: *In this article, the mutual description of the human psyche in the stories of Abduqayum Yoldoshev, as well as the description of the characters in his stories, is detailed.*

Key words: *Abduqayum Yoldoshev, story, genre, realistic, psyche, father image, characters, human, period problem, artistic image*

Davr va inson muammosi adabiyotshunoslikda muhim o‘rin egallab kelayotgani, inson xarakteri va ijodkor badiiy olamining mushtarakligi, ijodkor badiiy dunyosining hali ilg‘anmagan jihatlarini, ochilmagan qirralarini tadqiq qilish zarurligini taqozo etmoqda.¹⁷ Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarini kuzatar ekanmiz, unda bosh qahramon hayotida kechayotgan ruhiy evrilishlarga duch kelamiz. “Tushov”, “Biz bo‘lmagan joylarda”, “Bezori” kabi hikoyalari yozuvchining ijodiy shaxs konsepsiyasini belgilab beruvchi asarlar deb ayta olamiz. Bugungi kunda adibning bir qator sara qissalari, hikoyalari nashr qilindi. A.Yo‘ldoshevning har bir asari matbuot yuzini ko‘rar ekan, ijodkor o‘z uslubi bilan kitobxon qalbini zabt eta oldi. Adib asarlarini o‘quvchi o‘z xayollarida hamda ko‘z o‘ngida gavdalandira oladi. Buning boisi, muallif, asosan, syujetni o‘z hayotida guvohi bo‘lgan voqealarga tayanib aks ettiradi. Buni biz birgina “Bezori” hikoyasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Avvalo hikoya nomiga e‘tibor qilish zarur. “Bezori”. Qo‘shirnoqqa olingan “Bezori”... Qiziq kim “bezori”? Kitobxonni dastlab o‘ylantirgan savol shu bo‘lishi tabiiy hol. Nega hikoya nomi qo‘shirnoqqa olingan? Bu bilan nima demoqchi? Mutolaa davomida yozuvchi qo‘shirnoqni kinoya uchun ishlatayotganini hikoyaning so‘ngidagina tushunasiz. Chunki, asar boshlanishida sarlavha kitobxon e‘tiborini u qadar jalb qilmaydi. Bosh qahramon No‘monjonning xursandchiligi bilan boshlangan voqealar biz kutganday yakun topmaydi. Voqealar rivojiga qiziqib, davom etganingiz sari ko‘nglingizni g‘ashlik, mahzunlik egallaydi. No‘monjonga achinasiz yoinki jahlingiz chiqadi. Umuman olganda No‘monjon siz va bizga o‘xshagan bir inson. Shu jamiyatning a‘zosi. O‘z ishiga mas’uliyat

¹⁷ Кобулова Нодира “Эркин Аъзам насрида давр ва инсон концепцияси” филология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Самарқанд, 2020 й.

bilan yondashadi. Uzoq yillik mehnati samarasi o'laroq unga Yangi yil archasiga ishxonasidan chipta berishadi. No'monjon tili bilan aytganda, "odamga o'xshab dam olish" uchun uning ham haqqi bor, albatta. Yangi yil archasi, boz ustiga qizi Mehrinisaning tug'ilgan kuni. O'zi aytganiday qo'shaloq bayram. Afsuski, farzandini baxtiyor qilmoqchi bo'lgan otaning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi.

Muallif No'monjon haqida batafsil to'xtalmasa-da, obraz xatti-harakati yordamida uning xarakterini ochib berishni uddalaydi. Hikoya davomida, No'monjon ishga o'zini qurbon qilgan, hatto oilasi uchun yetarli vaqt ajrata olmagan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Xo'p, mayli, shuncha o'lib-tirilganiga yarasha ish haqqi oilasini ta'minlashga yetsa-ku yaxshi, lekin, o'qish davomida No'monjonni topgani bazo'r oila tebratishga yetishi, shunda ham ayoli tikuvchilik qilib topgan pullari bilan bu oydan keyingi oyga bir amallab yetib olishlari ma'lum bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, turmush qurganiga o'n yil bo'lgan-u, lekin, bekam-u ko'st ro'zg'or tebratmayotganligini ilg'ab olish qiyinmas. Shuningdek, qizini Yangi yil archasiga olib chiqish jarayonida, qizini, hatto ko'ngildagidek sayr qildirishni uddalay olmasligi, hayoti faqat ishxonasida kechgan, real voqelikdan uzilib qolgandek taassurot uyg'otadi, go'yo.

*"...O'zi yam shahardagi bari istirohat bog'larining attraksionlari ko'chib kelibdi-yov. Buning ustiga rang-barang sharlar, Qorbobo bilan Qorqiz, kattagina sahnada esa ertaklar qahramoni raqs tushib yotishibdi. Rosti, bularning barini ko'rib No'monjonning o'zi ham hayajonlanib ketdi. Yodiga paxta dalalarida o'tgan bolaligi tushib, xo'rsinib ham oldi."*¹⁸

Muallif No'monjonning bolaligi ertaknamo bolalar bog'ida emas, aksincha, minglab, millionlab o'zbeklarning hayot-mamot masalasiga aylangan paxta dalasida o'tganini birgina so'z bilan ifodalab beradi. Kitobxon ko'z o'ngida o'tgan asrning 80-yillarida avj olgan "O'zbeklar ishi", "paxta ishi" voqealari namoyon bo'ladi. Chunki, No'monjon davr taqozosi bilan bolaligidanoq kelajagi majruh qilingan millionlab o'zbek bolalarining bittasi edi. Mutelikka, bosh egib yashashga o'rgatilgan, turmush sharoitini yaxshilash uchun durustroq bir ishga qo'l urishga ham jur'ati yetmaydigan, hayotini faqat qorin g'amida o'tkazishga o'rgatilgan va ta'bir joiz bo'lsa, shunga mahkum etilgan o'tgan asrning 80-yillaridagi bola bugun oila boshlig'i. Ota! Umri o'tib ketayotganini sezmagandek, farzandi ulg'ayib qolganini ham keyin anglab yetadi. Buni o'zi ham tan oladi.

"Bola, bola deymiz-u, bolalarning juda farosatli, sezgir ekanliklarini, ularning birdan katta bo'lib qolganliklarini sezmas ekanmiz-da".¹⁹ Bolalarning birdan katta bo'lib qolishi qachon bilinadi? Qachonki, ota-onaning mashaqqatli hayotiga guvoh bo'layotgandagina!

...-Mehri, biron nima ob beray.

Qizaloq jon holatda sovg'asini bag'riga bosib, keskin bosh chayqadi:

- Hech nima kerakmas.

- Nega axir?

Qizaloq dadasiga tiniq ko'zlarini tikdi:

- Bu yer qimmat bo'ladi...

No'monjonning yuragi simillab og'rib ketdi. Buni qizchasiga sezdirmaslikka uringach, iloji boricha quvnoq va beparvo tarzda gapirishga urindi:

- Bugun pulimiz ko'-o'p. istagan narsangni aytaver...²⁰

Hikoya davomida bayram bahonasida sayr qilish binoyidek bo'layotgan edi. Ammo, teatrga yaqinlashganda No'monjonni ishxonadan berilgan teatr chiptasini yo'qotib qo'yishim aniqrog'i, chiptani yo'qotganini bilib qolishi, kitobxonni No'monjonga nisbatan kayfiyatini yanada keskinlashtirishi, tabiiy. "Odam degani ham shunaqa go'l bo'ladimi?!"

¹⁸ Yo'ldoshev A. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". Hikoyalar. Toshkent- "Yangi asr avlodi"- 2021. 68-b.

¹⁹ Yo'ldoshev A. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". Hikoyalar. Toshkent- "Yangi asr avlodi"- 2021. 68-b.

²⁰ Yuqoridagi kitob. 70-b.

degan o‘y-xayol kechadi, behos. Lekin, aytish mumkin, ana shu o‘rinda ijodkor mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Shundoq ham qiziga qanday etib vaqt ajratib, sayrga olib chiqqan otaning, qizi oldida noqulay holatga tushib qolishi asarda kutilmagan burilish bo‘ladi. Chipta yo‘q. yo‘qolgan. Teatrda kirmaylik desa, qiziga va‘da berib qo‘ygan. Kirish uchun chipta yo‘q. Lekin, qizi uchun, uning xursand bo‘lishi uchun oxirgi chorani ham qo‘llaydi. Ushbu jarayonni muallif mohirlik bilan tasvirlaydiki, teatr qorovuli va u yerdagi mushtumzo‘rning xatti-harakatlari kitobxonni biroz o‘ylantiradi.

Abduqayum Yo‘ldoshev asarlaridagi qahramonlar timsolida o‘zligida bo‘lgan xatoliklarni yengishga harakat qilayotgan shaxslarni ko‘rishimiz mumkin. Hikoyalarida shaxs uchun muhim bo‘lgan e‘tiqod masalalari ruhiy olamida kechayotgan gunohkorlik hissi No‘monjon misolida aks ettiriladi:

“Chiqmagan jondan umid” qabilida kirish eshigi yoniga bordi. Semirib ketganidan qorni oldinga osilib tushgan, harsillab nafas olayotgan, yog‘ochi chidamaganidanmi, kattakon temir stulga yalpayib o‘tirib olgan tund basharali eshik bonning avzoyidan yaxshilik kutib bo‘lmasdi...²¹

Shu o‘rinda halizamon ko‘ngilni g‘ash qiluvchi nimadir bo‘lishini sezib turasiz.

Dunyoda birovdan bir nimani iltimos qilishdan og‘iri yo‘q. ayniqsa, hamsuhbating senga oshkora ishonqiramay, shubhalanib qaray boshlasa. Bunday vaziyatga tushgan kishigina No‘monjonning holatini qalban his etishi mumkin.

... Eshik bon pinak buzmasdi:

- yo‘q. Senga o‘xshagan odamlarning gapiga ishonaversam, teatrni odam bosib, turishga yam joy qolmasdi.

Dili og‘rigan No‘monjon qizi yaqinlashib qolganligi bois beixtiyor shivirlab so‘radi:

- Men qanaqa odam bo‘libman?

- Eshikbon bo‘ynini cho‘zdi:

- Qanaqa bo‘larding, yolg‘onchi odamsan-da. Bir yarim ming so‘mlik bilet uchun qizingni o‘rtaga qo‘yib qasam ichyapsan. Imonsiz...²²

Teatr chiptasini yo‘qotib qo‘yib, “tund basharali” eshik bondan ichkariga chiptasiz kirishga ijozat so‘rayotgan ota mardlik, shijoat timsoli deya ko‘ruvchi qizchasi ko‘z o‘ngida “Yolg‘onchi”, “Qasamxo‘r”, “Imonsiz” bo‘lib, uyatda, dahshatli darajadagi uyatda qoldi. No‘monjon bir narsadan, qizining oldida uyalib qolishdan, uning o‘ziga nisbatan cheksiz hurmatini yo‘qotib qo‘yishdan cho‘chib yurardi. Mana shu dahshatli voqea yuz bergandi...²³

Eshikbonning haqoratlari, zo‘ravonning kaltaklari, qizining oldida sharmandai sharmisor bo‘lgani-bularning barisi uning sabr kosasini to‘ldirgandi. “O‘lganning ustiga tepgan” qilgandek bezbet chiptachining haqoratomuz gaplari No‘monjonni “bezori” qilganini tushunib yetasiz.

Aksariyat hollarda, yaxshi insonlarning yomon xulqli odamlarga aylanishiga jamiyat, atrof-muhitning salbiy ta‘siri sababchi bo‘ladi. Bu aynan No‘monjondek kishilar timsolida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida davr va inson muammosi, davrning inson xarakteriga ta‘siri va yozuvchining barqaror xarakterlar yaratish borasidagi mahorati ochib berilgan. Abduqayum Yo‘ldoshev yaratgan xarakterlarni tushunish uchun uning birgina hikoyasini o‘qib chiqish kifoya qilmaydi, negaki, bir asarida yaratgan obraz, xarakter boshqa bir asarida yaratilgan obraz va xarakterning mantiqiy davomidek tuyuladi

²¹ Yo‘ldoshev A. “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”. Hikoyalar. Toshkent- “Yangi asr avlodi”- 2021. 72-b

²² O‘sha kitob. 73-b

²³ Keltirilgan manba. 73-b

Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida davr va inson muammosining yoritilishida, yozuvchi nuqtai nazari va qahramon tabiati, xarakterlar rangbarangligi va ruhiyat tasviri, maishiy hayot tasvirini gavdalantirishda yozuvchining individual uslubi, nasr va janr imkoniyatlari, badiiy til vositalarining adib ijodidagi o‘rni alohida seziladi. Asarlarda yozuvchi qahramonlarning ichki va tashqi qiyofadoshligi, adibning poetik mahorati, individual poetik uslubga xos ruhiy psixologik ijod uslubining o‘ziga xos ko‘rinishi deyish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Qobulova N., “Erkin A’zam nasrida davr va inson konsepsiyasi” filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya, Samarqand, 2020 y.
2. Yo‘ldoshev A. “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”. Hikoyalar. Toshkent-“Yangi asr avlodi”- 2021.
3. Abduqayum Yo‘ldoshev, “Ishq afsunlari” Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2019 y.,

AQLI ZAIF BOLALARNING IDROKI, XOTIRA VA DIQQAT XUSUSIYATLARI

Yusupova Ziyoda Xodjimuratovna
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aqli zaif bolalarning idroki, xotira va diqqat xususiyatlari haqida ma'lumotlar aytib o'tiladi*

Kalit so'zi: *aqli zaif, idrok, diqqat, sezgi, korreksiya, oligofren*

Idrok-tirik organizmning ma'lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni organizmga ob'yektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi.

Psixologiya idrokning quyidagi turlari mavjud:

- ko'ruv
- eshituv - - taktil
- ta'm bilish
- hid bilish

Aqli zaif bolalar ko'ruv idroki torligi ham karakterlidir kichik sinf o'quvchilari bir vaqtning o'zida 4-6 tadan 8-12 ta katta bo'lmagan buyumlarni ko'ra oladi. (I.M.Soloyeva)

Aqli zaif bolalar ko'ruv idroki torligi atrof borliqni o'rganish imkoniyatlarini kamaytiradi. Aqli zaif bolalar ko'ruv idrokining yana bir o'ziga xos xususiyati: ular rang ajrata olmaydilar, atrofda obyektning ularga harakterli bo'lgan qismlarsiz ajratadi.

Masalan: 4-5 yoshli aqli zaif bolalar oq, qora, to'q qizil va to'q ko'k ranglarni ajrata oladi. Ko'p holatlarda ko'k msiyohrang, olov rang va qizil ranglarni ajrata olmaydilar.

6-7 yoshga kelib oligofren bolalar rang ajratish xususiyatlari aniqlangan.

Aqli zaif bolalar rang ajrataolmasliklari sababi anglash faoliyatidagi ranglarni sezish xususiyatlari pastligi nuqsoni asosiy ro'l o'ynaydi.

Aqli zaif bolalar ko'rish o'tkirligi pasaygan bo'ladi sog'lom tengdoshlariga nisbatan och fondagi narsalarni qiyinchilik bilan idrok etadi. Aqli zaif bolalar ko'ruv idroki differensiallashmaganligi tanish obyektlarni sharxlash jaryonida aniq seziladi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra 5-6 yoshli oligofren bolalar olmaxon va mushuk shuningdek soat va kompasni ajrata olmagan.

Aqli zaif bolalar uchun fazodagi obyektlarni o'zaro aloqadorligini aniqlash ham qiyin masaladir. Ular uzoqdagi narsalarni rasmda kichiklashtirib tasvirlaydilar. Aqli zaif bolalarning idrok qilishi bilan bir qatorda normal aql-idrokga ega bolalar rivojlanishidan sezilarli farqlar ham bor. Bolalar

ko'rish orqali tushunish asosida namunaga ko'ra tanlashni egallab, biroq, ko'p sonli belgilardan tanlashni amalga oshira olmaydi, yaqin xususiyatlarni faqlashda qiynaladilar, bu xususiyatlarni didaktik o'yinchoqlar bilan harakatlarda hisobga ololmaydilar. Ajratilgan belgilar bo'yicha umumlashtirish imkoniyati, muayyan belgi bo'yicha predmetlar qatorini buza olish, shu qatorda predmet joyini topishga maxsus o'quvlarsiz erishib bo'lmaydi.

Taktil sezgi – odam tanasining faqat issiq, sovuq, og'riq, sanchiq, bosish, ezish kabilarni bir-biridan farq qilib sezish emas, balki sekin esgan shabada, salgina tekkan narsalar (paxta, latta va boshqa(lar) yoki juda mayda hasharotlar)ni ham sezishi. Taktil sezgi yo'llari orqa miyaning orqa ustunlaridan o'tadi va talamus orqali markaz tomon yo'naladi.

Aqli zaif bolalarda taktil teri-tuyish jarayoniga oid ilmiy ma'lumotlar kam o'rganilgan va 2 ta ilmiy tadqiqot mavjud.

A.P.Gozova, R.B.Kafemasning tadqiqot natijalariga ko'ra:

-Aqli zaif bolalarda teri-tuyish orqali idrok etishning rivojlanishi uchun, dars va darsdan tashqari vaqtlarda ko'proq e'tibor berilsa katta natijalarga erishiladi

-Maxsus maktab bitiruvchilari joylashadigan turli ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnat teri tuyish orqali idrok etishning rivojlanganligini talab etadi

-Aqli zaif bolalar idrok hususiyatlarini o'rganish va to'g'ri tashxislash uchun "Rasmda kim yashiringan", "Raqamli kodlash" va boshqa metodikalardan foydalanish tavsiya etiladi

Aqli zaif bolalar xotirasi normal rivojlanayotgan bolalar xotirasidan birmuncha farq qiladi. Aqli zaif bolalar xotirasi qachonki korreksion ishlar erta boshlansa va to'g'ri yo'lga qo'yilsa rivojlanib boradi. Aqli zaif bolalar xotira xususiyatlarini bir qancha olimlar G.Y.Troshin, L.V.Zankov,

B.I.Pinskiy, G.M.Dulnev va boshqalar ilmiy-tadqiqot sifatida 30 o'rganganlar. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, aqli zaif bolalarning darajalariga qarab, xotira xususiyatlarini rivojlantirish mumkin. Maktabgacha va maktab yoshidagi aqli zaif bolalar xotirasini rivojlantirish maqsadida tadqiqotchilar bir nechta ishlarni taklif qiladilar: bular asosan qo'l barmoqlar bilan ishlash, ishlash vaqtida boladan nima qilayotgani haqida so'rab olish, uni tahlil etish va qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga joylashtirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni xotirasini rivojlantirish uchun mayda qo'l motorikasidan foydalanish samarali natija beradi. Frontal va individual mashg'ulotlar jarayonida bolalarni barcha tomondan rivojlantirishga e'tibor beriladi. Bolalarda ihtiyoriy xotiradan to' ihtiyorsiz xotiraga o'tish uchun bir qancha vazifalar amalga oshiriladi. Individual mashg'ulotlarda bolalarning nafaqat nutq nuqsoni ustida balki xotira turlari haqida ham ish tashkil etiladi. Chunki bolaning nutqiy nuqsonini bartaraf etish vaqtida bolaning individual hususiyatlariga alohida e'tibor berib, mashg'ulot tashkil etiladi.

Aqli zaif bolalarda barcha ishlar samarasi asosan takrorlashga bog'liq. Vazifalarni bir necha marta takrorlash vaqtida o'tilgan topshiriqlar bolaning xotirasida olib qolinishiga ko'mak beradi. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar xotirasi ustida ish olib borish vaqtida tasavvurga ham e'tibor beriladi.

Ma'lumki tasavurning rivojlanishi xotiraga ham bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, inson xotirasi qanchalik yaxshi rivojlansa, bu uning barcha bilish jarayonlariga (tafakkur, tasavvur, idrok, xayol kabilar) ijobiy natija beradi. Aqli zaif bolalar bilan ishlash davomida shular namoyon bo'ladiki, ularning xotirasi hajm jihatdan rivojlanishi orqada. Xotiraning asosiy xususiyatlaridan biri bu uning hajmidir. Aqli zaif bolalar xotira hajmi qisqa bo'ladi.

Bolalarga bilim berish vaqtida ular ma'lumotni juda oz miqdorda qabul qiladilar. Xotira hajmi qancha rivojlansa, bu ularning bilim olish malakalarini rivojlantiradi. Xotira xajmini rivojlantirish uchun bolaning yakka xususiyatlari inobatga olinadi. Hozirgi kunda tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aqli zaif bolalar xotirasi mexanik ravishda rivojlanmagan. Chunki mexanik xotira rivojlanishi uchun ham analiz-sintez malakalari yaxshi shakllangan bo'lishi kerak.

Aqli zaif bolalarda esa analiz-sintez malakalari rivojlanishi bir qancha orqada qolgan. Shuni ta'kidlash lozimki, aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi, faqatgina aqli zaif bolalarning o'ziga hos xususiyatlari bilan. Aqli zaif bolalar xotirasini tekshirish uchun "10 ta so'zni yod olish" metodikasi, "L.V.Zankov" metodikasi, "Voqealar ketma-ketligini aniqlash" metodikalari tavsiya etiladi.

Diqqat – ongning ma'lum manbani to'laroq aks ettirishi uchun o'sha manbaga qaratilishidir. O'sha manbalarga diqqatni qarata bilish esa, shaxsning faolligini bildiradi. Diqqat xayotda ruhiy faoliyatning bir tomoni bo'lib ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga muvaffaqiyatli bilim, ko'nikma, malaka egallashning asosi hisoblanadi.

K.D.Ushinskiy diqqatni inson qalbining eshigi deb bejiz ta'riflamagan bo'lsa kerak.

Insonning faollik darajasiga ko'ra diqqatning 3 turini ajratish mumkin:

- Ixtiyorsiz diqqat.
- Ixtiyoriy diqqat.
- Ixtiyoriydan so'ngi diqqat.

Aqli zaif bolalar diqqatining o'ziga xosligi anchagina faktorlarga bog'liqdir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari aqli zaiflikning o'zak belgilari (nerv jarayonlarining kam harakatliligi, dominantaning zaifligi, mo'ljal olishning buzilishi) uning butun shaxsiy rivojlanishining borishida chuqur iz qoldiradi, diqqatning tahliliga olib keladi. Bu esa o'z navbatida psixik faoliyatning mazmuniga kirarkan, uning jarayoniga hamda natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan bu bolaning analiz va sintez jarayonlarining nisbatan yuqoriroq darajasini talab etuvchi vazifalarni bajarayotganida ayon bo'ladi.

Diqqatning chalg'uvchanligi uning parishonxotirligida o'z ifodasini topadi. Bu esa diqqatning barqarorligiga batamom ziddir. Toliqish, asablarning bo'shligi, asab tizimining xoldan toyishi natijasida tashqi quzg'atuvchilarni kuchaytiruvchi chalg'uvchanlik sodir bo'ladi. Chalg'uvchanlikning oldini olish uchun ma'lum bir vaqtda faoliyat turini o'zgartirib turgan ma'qul. Agar bunday qilinmasa bolalar tormozlanish xolatiga tushib qolishib, mehnatdan chiqib ketishadi. Aqli zaif bolalarning irodaga bog'liq ishlarni har doim deyarli qoniqarsiz bajaradilar. Bu o'rinda mashhur fransuz pedagogi E.Segenning ushbu misralari e'tiborga loyiq : "Chuqur aqli zaif bola hech narsa qila olmaydi, hech narsa bilmaydi, eng kerakligi esa - u hech narsani xohlamaydi". Demak, aqli zaif bolalardagi asosiy nuqson xohish, istakning yetishmasligidir.17 Shu narsa ma'lumki aqli zaif bolalar dars jarayonlarida tez charchaydilar. Bu bolalarning diqqatlari uzoq muddat biror nuqtaga, ta'limga qaratilmaydi. Shuning oqibatida bu bolalar tez-tez darsdan chalg'ib turadilar. Aqli zaif bolalarning dars vaqtlarida chalg'ib turishlari, ularning o'z xohish-istaklari bilan emas, balki bosh miyalarida yuz bergan kasallikning natijasidir. Shu sababli yordamchi maktablarning xodimlari bunday xolatlarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kerak.

Aqli zaif bolalar bilan korreksion ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bola diqqatining fiziologik mexanizmlarini bilish talab etiladi. Aqli zaif bolalardagi ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan pastdir. Buning sababi, ichki tormozlanishning zaifligi va tashqi tormozlanishning yaqqol ko'zga tashlanishidir. Qiyin boshqariladigan tashqi tormozlanish aqli zaif bolalarda diqqatning turg'unsizligiga olib keladi. Aqli zaif bolalardagi diqqatning taqsimlanishi, o'qitishining qiyinligi tormozlanish va qo'zg'atish jarayonlarining mo'rtligi asosida yuz beradi. aqli zaif bolalar diqqatini tarbiyalab borishda ularning oliy asab faoliyatining tiplarini e'tiborga olish darkor. Aqli zaif bolalar diqqatini shakllantirib borish shaxsni shakllantirib borish bilan uzviy bog'liq. Aqli zaif bolalar diqqatini qator psixologik metodikalar bilan o'rganish mumkin. Ayniqsa, "Shulte jadvali" metodikasi, "Korrektur sinov" metodikasi va "Belgilarni qo'yib chiq" metodikalar yaxshi natija beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. SH.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, N.Abidova va boshqalar "Maxsus psixologiya" o'quv qo'llanma T-2012
2. Mo`minova L. Xamidova M. va boshqalar "Maxsus psixologiya", Noshir nashriyoti Toshkent 2012
3. Spetsialnaya psixologiya. Pod.red. V.I.Lubovskogo. M.2005

HUMBUZTEPA ARXEOLOGIK YODGORLIGINING TURIZMDAGI O'RNI

Yarashova Munisa Yusup qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
3-bosqich talabasi
Tel: + 998977210112,
munisayarashova045@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi madaniyat va tarix beshigi bo'lmish Xorazm viloyatida joylashgan arxeologik yodgorlik hisoblangan Humbuztepa haqida so'z boradi. Ushbu arxeologik yodgorlik eramizdan avvalgi davrlarga oid kulolchilik markazi hisoblanib, maqolada arxeologik yodgorlikni sayyohlik markaziga aylantirish va muzeylashtirish haqida so'z boradi. Bundan tashqari Xorazm vohasidagi boshqa arxeologik yodgorliklarni ochilishi va shu bilan birga madaniy qatlamni o'rganilishi haqida qimmatli ma'lumotlarga yo'naltirilgan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: arxeologik yodgorlik, kulolchilik markazi, Humbuztepa, sopol buyumlar, milliy madaniy meros, muzey, konservatsiya, ekspeditsiya.

МЕСТО АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ПАМЯТНИКА ХУМБУЗТЕПА В ТУРИЗМЕ

Аннотация: В этой статье речь пойдет о хумбузтепе, археологическом памятнике, расположенном в Хорезмской области, колыбели древней культуры и истории. Этот археологический памятник считается центром керамики, датируемой до нашей эры, и в статье рассказывается о превращении археологического памятника в туристический центр и его музеефикации. Он также фокусируется на ценных сведениях об открытии других археологических памятников в Оазисе Хорезм, а также на изучении культурного слоя.

Ключевые слова: археологический памятник, гончарный центр, гумбузтепа, керамика, национальное культурное наследие, музей, сохранение, экспедиция.

THE PLACE OF THE HUMBUZTEPA ARCHAEOLOGICAL MONUMENT IN TOURISM

Annotation: this article will talk about Humbuztepa, considered an archaeological monument located in the Khorezm region, the cradle of ancient culture and history. This archaeological monument is considered a center of pottery dating back to BC, and the article will talk about the transformation of the archaeological monument into a tourist center and museumization. It is also considered to be oriented towards valuable information about the opening of other archaeological monuments in the Khorezm Oasis, and at the same time the study of the cultural layer.

Keywords: archaeological monument, pottery Center, Humbuztepa, pottery, National Cultural Heritage, Museum, conservation, expedition.

Xumbuztepa - yodgorligi Xazorasp shahridan 17 km sharqda Amudaryoning so'l sohilida joylashgan. Dastlab bu yodgorlikni o'rganish jarayoni O'zR FA Qoraqalpoq filialining tarix, til va adabiyot instituti arxeologiya bo'limining M.Mambetullaev boshchiligidagi arxeologik otryadi tomonidan 1973-yilda Xorazm viloyatining arxeologik xaritasini tuzish asnosida tadqiq qilindi. 1974 va 1978 yillarda aynan M.Mambetullaev

boshchiligida yodgorlikda arxeologik tadqiqotlar davom ettirildi. M.Mambetullaev tadqiqotlariga ko'ra Xumbuztepa yodgorligi 4,6 ga ni tashkil etadi. Lekin hozirgi kunga kelib bu hudud ekin maydonlari va turar-joylar hisobiga qisqargan. Shuningdek yodgorlikning katta qismini Amudaryo suvlari yuvib ketgan. Daryo tomondan jarlikda 1,5 – 2 m qalinlikdagi madaniy qatlamlar izlari aniq bilinib turibdi²⁴. Qurilish konstruksiyalari ichida ko'plab kulolchilik xumbuzlarining aks etishi yodgorlikda kulolchilik ishlab chiqarishining uzoq davom etganligini va Xumbuztepa nomining yodgorlikka bejiz berilmaganini ko'rsatadi. V.A.Livshits xulosasiga ko'ra „Xum“ so'zi qadimgi Eron tilida yirik sopol idish (Avesto tilida „xumba“, qadimgi hind tilida „kumbha“, fors va tojik tillarida „xumb, xum“), shuningdek pishirishga tayyorlangan har qanday loy idish, bundan tashqari — idishni pishirishga mo'ljallangan maydoncha ma'nolarini anglatadi. Xumbuztepa manzilgohi dastlabki tadqiqotlar davrida janubi-sharqqa tomon 520 m ga cho'zilgan, eni 65–82 m ni tashkil etgan. Yodgorlik hududi asosan tekislikdan iborat bo'lib, uning yuzasi juda ko'plab sopol buyumlarning qoldiqlari bilan qoplangan. Kulolchilik xumbuzlarining yongan qizil dog' holatidagi izlari va kuchli pishirilgan sopol qoldiqlari asosan yodgorlikning o'rta qismida uchraydi. Manzilgohning yoshini va hayot bosqichlarini aniqlash maqsadida, uning o'rta qismida stratigrafik shurf solindi. Shurf materikkacha yetkazildi va madaniy qatlam qalinligi 2,1 m ni tashkil etdi. Yodgorlikning sharqiy qismida jarlik tomondan yaqqol ko'rinib turgan madaniy qatlamni tozalash orqali ham stratigrafik ma'lumotlar olindi. Olib borilgan qidiruv ishlari natijasida juda boy sopol majmualari qo'lga kiritildi. Eng quyi madaniy qatlamlardan (V — IV yaruslar) qovurg'asimon jussali va manjetsimon gardishli idish devorlari topildi. Tashqi yuzasi oq yorug' angob bilan bo'yalgan. Shuningdek manjetsimon gardishli tog'ora va jom ham topildi. Bu topilmalarning o'xshash jihatdan topilmalari Dingilja qo'rg'oni va Ko'zaliqir yodgorliklarida topilgan bo'lib mil.av. VI — V asrlar bilan belgilangan. Xumbuztepada topilgan sopol buyumlar ham aynan shu davrga to'g'ri keladi.

IV — III yaruslardan topilgan sopol bo'laklari ichida asosan xumlar, xumchalarning ko'pligi e'tiborlidir.



Bu xumlar va xumchalarning gardishlari oval shaklda bo'lib, yuzasi asosan yorug' rangli angob bilan qoplangan, jingalaksimon yoki vertikal shakldagi qizil bo'yoqlar bilan naqshlangan.

Bunday tipdagi idishlar Xorazmda mil.av. IV — III asrlarda keng tarqalgan bo'lib, Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'a, Bozorqal'a, Qal'aliqir — 1 va 2 yodgorliklarida ham aniqlangan. II — I yaruslardan topilgan sopol buyumlar bo'laklarining ba'zi detallarida o'zgarishlar yuz bergan.

Yirik idishlar gardishi cho'zinchoq, ancha shishirilgan bo'lib, yuzasi oq yorug' va qizil angob bilan qoplangan.

²⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xumbuztepa>



Xorazmda bunday shakldagi idishlar mil. I — III asrlarda keng tarqalgan.²⁵ M.Mambetullaev tadqiqotlari asosan, arxeologik qidiruv doirasida bo'lgani uchun yodgorlikning paydo bo'lishi va hayot bosqichlarini aniqlash lozim edi. Shunga ko'ra, yodgorlikda hayot mil.av.VI asrdan to mil. IV asrgacha davom etgan, degan xulosaga kelingan. 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ya.G'ulomov nomidagi Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari Yu.Manilov boshchiligida Xumbuztepa manzilgohida navbatdagi tadqiqotlarni olib bordilar. Bu davrga kelib yodgorlik hududi ancha qisqardi. Bunga sabab sobiq Sho'rolar davrida yangi ekin maydonlarining kengayishi, turar-joylarning barpo etilishidir. Manzilgoh hududi uzunligi 520 m dan 225–235 m gacha, eni esa 65–82 m dan 20–40 m gacha qisqardi. Yodgorlikda 3 ta joyda transheya qazildi. Transheya № 2 va № 3 larda madaniy qatlamlar aniqlanmadi. Ekin tomorqalarini barpo etish jarayonida madaniy qatlamlar buzilib Amudaryo sohiliga surib chiqarilgan va turli davrlarga oid sopol idishlar aralashmasidan iborat ahlal yuzaga kelgan. Faqat transheya № 1 da arxaik davrga oid madaniy qatlamlar qayd qilingan. 1996 — 1997 yillarda Xumbuztepada keyingi tadqiqotlarni O'zR FA Arxeologiya institutining Xorazm mintaqaviy bo'limi va Rossiya FA N.N.Mikluxo-Maklay nomidagi etnologiya va antropologiya institutining ilmiy xodimlari olib bordilar. Yodgorlikning shimolida 2 ta joyda qazishma va 1 ta joyda stratigrafik shurf qazildi. Arxeologik tadqiqotlar manzilgohda hayot bosqichlarining ketma-ket davom qilgan bir necha davrini aniqladi. S. Bolelov yodgorlikda hayot mil.av. VII asrdan to mil.av. IV asr oxirigacha davom etgan degan xulosaga keldi. Madaniy qatlamlardan aniqlangan boy kulolchilik materiallari asosida 3 ta kulolchilik majmuasini ishlab chiqdi. Bular: Xumbuztepa — I (mil.av. VII asr oxiri — mil.av. VI asrning 1-yarmi); Xumbuztepa — II (mil.av. VI asr oxiri — mil.av. V asr boshi); Xumbuztepa — III (mil.av. V asr oxiri — mil.av. IV asr boshi) majmualaridir. 2002 yilda Xumbuztepada arxeologik tadqiqotlarni O'zR FA qoshidagi Arxeologiya instituti hamda shu institutning Xorazm mintaqaviy bo'limi va O'zR FA sining Qoraqalpoq filialining arxeologiya bo'limi ilmiy xodimlari davom etdirdilar. Tadqiqotlar davomida 4 ta joyda qazishma qilindi (Qazishma № 3, № 4, № 5, № 6). Biroq shulardan faqat 2 tasida madaniy qatlamlar saqlanib qolgan (Qazishma № 4, № 6). Bu qazishmalarda madaniy qatlamlar qalinligi 2 m dan ziyodni tashkil etdi va ishlar materikkacha olib borildi. Stratigrafik tahlillar asosida yodgorlik hayoti 4 ta xronologik davrga ajratildi va quyidagi 4 ta kulolchilik majmuasi ajratib ko'rsatiladi: Xumbuztepa — I (mil.av. VII — VI asrlar); Xumbuztepa — II (mil.av. VI — V asrlar); Xumbuztepa — III (mil.av. V — IV asrlar); Xumbuztepa — IV (mil.av. IV — III asrlar) majmualaridir. Olingan ma'lumotlar asosida S.Baratov yodgorlikda hayot mil.av. VII — III asrlarda mavjud bo'lganligini ta'kidladi.

²⁵ <https://zenodo.org/record/6620827#.ZBsOt3ZBy3A>

Tadqiqotchilar Xumbuztepadagi sopol buyumlar davrini aniqlashda nafaqat shakli, balki ishlanish texnikasi bilan ham o'ziga yaqin bo'lgan Yoz II, III xronologik jadvali asosida xulosaga kelishgan. Xumbuztepa Janubiy Xorazm kulolchilik ishlab chiqarish markazi sifatida arxaik va antik davrning ilk bosqichlarida Xorazmning katta hududini sopol buyumlar bilan ta'minlab turgan. Arxaik va antik davrga oid bunday yirik ishlab chiqarish markazlari O'rta Osiyoda ko'p uchramaydi. Hozirgacha Xumbuztepa bilan birgalikda Afrosiyob yaqinida shunday kulolchilik ishlab chiqarish markazi aniqlangan. Kulolchilik ishlab chiqarishining uyushgan tarzda tashkil etilishi bu markazlarga davlat darajasida e'tibor berilganligini ko'rsatadi. Yodgorlik hali to'laligicha tadqiq qilib bo'lingan emas. Kulolchilik sohasini o'rganishdagi ahamiyatini e'tiborga oladigan bo'lsak yodgorlikda keng statsionar tadqiqotlar olib borish zarur. Xumbuztepani arxeologik jihatdan to'liq o'rganish orqali Xorazm vohasida o'zbek davlatchiligining shakllanishi, shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va arxaik davr kulolchilik ishlab chiqarishining taraqqiyotiga dahldor yangi manbalarni qo'lga kiritish imkoniyatlari mavjuddir.



Miloddan avvalgi V asrdagi olov ibodatxonasining poydevori va unga qo'shni dahma (zardushtiylarning dafn marosimiga muvofiq marhumlarni yotqizish uchun sun'iy tepalik bo'lgan. Dahma ostidan bir nechta odam suyaklari topilgan va ularni ossuariyga (dafn idishi yoki suyak omboriga) joylashtirish va nekropolga ko'mish uchun suyaklarni yig'ishgan.²⁶ Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Xorazm hududida bugungi kunda ma'lum bo'lgan eng qadimgi va eng yirik keramika sanoati bo'lgan Xumbuz-tepani kulolchilik ishlab chiqarish markazi sifatida tasniflash mumkin, bu yerda kulolchilikdan tashqari metallga ishlov berish ishlab chiqarish ham faoliyat ko'rsatgan. Shahar Amudaryo quyi oqimida shahar madaniyati shakllanishining dastlabki bosqichida Janubiy viloyatlardan kelgan hunarmand mutaxassislar tomonidan tashkil etilgan, ehtimol, Marg'iyonadan, Xumbuztepning konkonstruksiyasi Murg'ab quyi oqimida qazilgan konlar bilan o'xshashligini hisobga olsak, bitta holat e'tiborni tortadi, ya'ni arxaik davrning madaniy qatlamlarida katta silindrsimon humlarning pastki qismlarining bo'laklari topilgan, ularning pastki qismida tamg'a shaklidagi belgilar bosilgan. Barcha silindrsimon idishlar konveks-konkav disk yordamida ishlab chiqarilganligini hisobga olib, idishning pastki qismidagi stigma diskda kesilgan belgining izi bo'lgan. Xumbuz-tepada topilgan tamg'a shaklidagi belgilar juda xilma-xildir, bu ularning individual belgilarga ega ekanligini va birinchi usta keramika ustalari yoki ularning shogirdlarining tamg'alari ekanligidan dalolat. Xorazm bo'ylab yuqori texnologiyali hunarmandchilik kulolchilik markazi, birinchi navbatda, ikki qavatli otash gorna va ikki diskli kulolchilik g'ildiragidan foydalanish tarqalgan markaz bo'lgan bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda Tuproqqal'ani tadqiq qilish bilan Xorazm Ma'mun Akademiyasi (Xiva shahri)ning arxeologlari shug'ullanmoqdalar. So'nggi izlanishlar natijasida Humbuztepa qadimgi ibodatxona va O'rta Osiyodagi eng qadimgi zardushtiylik

²⁶ Болелов С. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепа ОНУ, № 9-10. Тошкент, 1999.

otashgohi aniqlandi. Yodgorlikning noyob jihatlarini e'tiborga olgan holda uni muzeylashtirish va sayyohlik markaziga aylantirish hozirgi kunning dolzarb masalasi sanaladi. Buning uchun ibodatxona maydonini to'liq ochib o'rganish lozim. Ibodatxona arxeologik jihatdan to'liq tadqiq qilingandan so'ng, uni muvaffaqiyatli ravishda ta'mirlash, qayta tiklash va muzeylashtirish mumkin. Yodgorlikni konservatsiyalash va restavratsiya qilish jahon tajribasida erishilgan yutuqlardan foydalangan holda qurilish sohasidagi mahalliy xususiyatlarni ham e'tiborga olish lozim. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda yodgorlikni saqlab qolish uchun maxsus oyna bilan qoplangan bostirmalardan foydalanish uslubi keng qo'llanib kelinmoqda. Bu usulda yodgorlikni yorqin holatda tomosha qilish imkoniyati bo'ladi. Shuningdek, turistik marshrut yo'nalishiga qo'shish orqali esa turizm biznesiga daromad keltirishi mumkin. Ta'mirlangan ibodatxona yonida esa muzey tashkil qilinsa, arxeologik tadqiqotlar natijasida to'plangan topilmalar ushbu muzey ekspozitsiyasining noyob fondiga aylanishi mumkin. Muzey ekspozitsiya qoshida tegishli xonalar va infrastrukturaga ega bo'lgan ilmiy-o'quv markazini tashkil qilish orqali yozgi davrda bu yerda O'zbekiston va Xorazm viloyati OTMning tarix va arxeologiya, muzeyshunoslik yo'nalishidagi talabalar, bakalavr va magistrleri uchun ilmiy-amaliy seminarlar va arxeologik dala amaliyotini o'tkazish mumkin. Hozirgi kunda Humbuztepa kulolchilik ustoxonalarida bir nechta Oliy o'quv yurt talabalari uchun arxeologiya amaliyoti ob'ektiga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 <https://life-on-earth.ru/srednyaya-aziya/khumbuz-tepa>
2. Баратов С.Р. Археологические исследования в Южном Хорезме//Археологические исследования в Узбекистане в 2002 году. Самарканд, 2003.
3. Болелов С. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепа ОНУ, № 9-10. Тошкент, 1999.
4. Маньлов Ю.П. Отчёт об археологических исследованиях па поселении Хумбузтепе Хазараспского района Хорезмской области//Архив ИА АН РУз. Самарканд, 1992

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INFLYATSION JARAYONLARNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Ismailova Shaxnoza Uktamovna

TDIU "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakulteti

Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 2-kurs magistranti

Inflyatsiya jarayonlari zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Inflyatsiya fuqarolarning turmush darajasiga, iqtisodiy o'sishga va butun mamlakat rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun bu sohada samarali qarorlarni tushunish va qabul qilish uchun inflyatsiya jarayonlarini iqtisodiy va statistik tahlil qilish zarur.

Inflyatsiya - bu butun iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar narxlari darajasining oshishi. Bu turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, jumladan, talabning oshishi, tovar va xizmatlar taklifining kamayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi va boshqalar. Inflyatsiya turli darajada namoyon bo'lishi va turli shakllarda, jumladan, giperinflyatsiya, stagflyatsiya, deflyatsiya va boshqalarni olishi mumkin.

Inflyatsiya jarayonlarining iqtisodiy va statistik tahlili inflyatsiya bilan bog'liq iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va sharhlashni o'z ichiga oladi. Bunday tahlilni o'tkazish uchun ishonchli va aniq ma'lumotlarga, jumladan, iste'mol narxlari, bandlik darajasi, YaIM, pul massasi, inflyatsiya kutilmalari va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.

Inflyatsiya jarayonlarini iqtisodiy va statistik tahlil qilishning asosiy vositalaridan biri iste'mol narxlari indeksi (INI) hisoblanadi. CPI oddiy fuqarolar tomonidan sotib olingan iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari darajasining o'zgarishini aks ettiradi. CPI odatda mamlakatda eng ko'p sotib olinadigan tovarlar va xizmatlarning ma'lum bir to'plami narxlarining o'rtacha vazni asosida hisoblanadi.

Umuman olganda, inflyatsiya jarayonlarini iqtisodiy va statistik tahlil qilish mamlakat iqtisodiyoti holatini baholash, inflyatsiya jarayonlarining tendentsiyalari va xususiyatlarini aniqlash, ularni tartibga solish chora-tadbirlarini belgilashning eng muhim vositasi hisoblanadi. Turli model va usullardan foydalanish inflyatsiyani har tomonlama tahlil qilish va uni boshqarishning samarali choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Inflyatsiya, odatda, iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarga talabning ushbu tovarlar va xizmatlar taklifidan oshib ketishi natijasida yuzaga keladi. Bu esa narxlarning oshishiga olib keladi, chunki korxonalar talab yuqori bo'lganligi sababli o'z mahsulotlari uchun qo'shimcha haq olish imkoniyatiga ega. Shu bilan bir qatorda, inflyatsiya tovarlar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin, bu esa korxonalarning cheklangan taklif uchun raqobatlashishi natijasida narxlarning oshishiga olib keladi.

Inflyatsiya jarayonlarini tahlil qilish uchun turli xil statistik usullar, jumladan, vaqt seriyalari tahlili, regressiya tahlili va prognozlash qo'llaniladi. Vaqt seriyalarini tahlil qilish tendentsiya va naqshlarni aniqlash uchun vaqt davomida ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Regressiya tahlili turli o'zgaruvchilar va inflyatsiya sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun, bashorat qilish esa o'tmishdagi ma'lumotlar asosida kelajakdagi inflyatsiya sur'atlarini bashorat qilish uchun qo'llaniladi.

Xalqaro tajriba va statistik amaliyotimiz shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyani o'lchashning eng ishonchli, qulay va keng tarqalgan usuli bu indeks usuli hisoblanadi. U zanjir usuli yordamida ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblashni o'z ichiga oladi. Indeks har oyda hisoblab chiqiladi va o'tgan oy ma'lumotlari va oldingi moliyaviy davrlarning xuddi shu oylaridagi narxlar darajasi ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Ular oylik indekslarni uzoq muddatga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Amaldagi shkala hisob-kitoblar uchun asosiy asos sifatida olinadigan yillik ishlab chiqarish qiymati to'g'risidagi ma'lumotlardir. Indeks usulidan

inflyatsiyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ham, korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlariga ham ta'sirini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu usulni qo'llash bilan bog'liq holda quyidagi muammolar paydo bo'ladi:

- indekslarni hisoblash usuli;
- indekslarni yaratish va tuzatish uchun narxlar statistikasi metodologiyasi;
- tahlil bilan qamrab olingan davr uchun bazaviy ko'rsatkichlarni tanlash;
- tegishli narxlar indeksidan foydalangan holda tanlangan ko'rsatkichlarni haqiqiydan doimiy narxlarga qayta hisoblash.

1) Indeksni hisoblashning asosiy usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari.

Eng keng tarqalgan indekslardan biri Paashe indeksidir:

$$J_p^{t+1} = \frac{\sum_{i=1}^n p_i^{t+1} q_i^{t+1}}{\sum_{i=1}^n p_i^t q_i^{t+1}}$$

bunda:

J_p^{t+1} t+1 yildagi narxlar indeksi,

$p_i^t \cdot p_i^{t+1}$ t va t+1 yillarida tovar bahosi,

q_i^{t+1} t+1 yilida tovarning sotilish hajmi.

n - sotiladigan mahsulot turlarining soni

Qachonki $J_p^{t+1} = 1$ bo'lsa, shuni ta'kidlash mumkinki, ko'rsatilgan yilda narxlar o'rtacha barqaror bo'ladi, $J_p^{t+1} > 1$ tengsizlik esa narxlarning o'sishi va $J_p^{t+1} < 1$ pasayishini ko'rsatadi. Paashe indeksi kamchiliklardan xoli emas. U yig'ishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ammo aholining turli qatlamlarining iste'mol savatlari bir xil emas. Paashe indeksi tanlab olinmaydi va har qanday narx oshishini qamrab oladi, garchi u har doim ham inflyatsiyadan uzoq bo'lsa ham [2]. U mahsulot taklifi tarkibidagi assortimentning o'zgarishi va mahsulot sifatidagi kichik o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan yashirin narxlarning o'sishiga umuman munosabat bildirmaydi, chunki ushbu indeksga muvofiq narxlar faqat t yili va t + 1 yilida sotilgan tovarlar uchun taqqoslanadi. Shuning uchun, so'nggi yilda "yangi" va qimmatroq mahsulotning ko'rinishi hisobga olinmaydi. Paashe indeksi ochiq inflyatsiyaning borishi haqida aniq tasavvurga ega emas, chunki u talabning o'zaro narxlari egiluvchanligi bilan bog'liq ko'plab ta'sirlarni o'zlashtiradi.

Inflyatsiya darajasini statistik hisoblash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning bir necha yo'li mavjud bo'lib, bu vaqt o'tishi bilan tovarlar va xizmatlar narxlarining o'sish sur'atining o'lchovidir. Quyida bir qancha misollar keltiramiz:

Veb-qirqish: yondashuvlardan biri onlayn chakana sotuvchilar va boshqa manbalardan narxlar to'g'risida ma'lumot to'plash uchun veb-qirqish vositalaridan foydalanishdir. Ushbu vositalar ma'lum mahsulotlar yoki tovarlar va xizmatlar toifalari to'g'risida ma'lumot to'plash uchun dasturlashtirilgan bo'lishi mumkin va vaqt o'tishi bilan narxlarning o'zgarishini kuzatish uchun muntazam ravishda ishga tushirilishi mumkin.

Ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng, inflyatsiya darajasini hisoblash uchun regressiya tahlili kabi statistik usullardan foydalanish mumkin.

Big Data Analytics: Yana bir yondashuv ijtimoiy media, onlayn bozorlar va tranzaksiya ma'lumotlari kabi turli manbalardan olingan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanishdir. Mashinani o'rganish algoritmlari vaqt o'tishi bilan narxlarning o'zgarishini ko'rsatadigan ma'lumotlardagi naqshlarni aniqlash uchun o'qitilishi mumkin. Misol uchun, agar algoritm ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum bir mahsulot haqida eslatmalar sonining ko'payishini aniqlasa, bu o'sha mahsulot narxi oshib borayotganining belgisi bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiya darajasini statistik hisoblashda raqamli texnologiyalardan foydalanish iqtisodiyotdagi narxlar o'zgarishini o'z vaqtida va aniqroq o'lchash imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar turli manbalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa vaqt o'tishi bilan narxlarning naqshlari va tendentsiyalarini aniqlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

- [1] Чобану К. Статистическая оценка уровня воздействия инфляции на показатели СНС // Вопросы статистики, 1997, №7.
- [2] Гольдина Л., Пахомов Ю. Об индексе потребительских цен // Вестник статистики, 1992, № 10.
- [3] Ремизов А. Инфляция и дефляторы // Вестник статистики, 1993, № 11.
- [4] Diewert, W. E., & Nakamura, A. (2013). Scanner data and price indexes. *Journal of Business & Economic Statistics*, 31(4), 300-316.
- [5] Einav, L., & Levin, J. (2014). Economics in the age of big data. *Science*, 346(6210), 1243089.
- [6] Evans, R. B., & Nichols, A. (2018). How accurate is the BLS measure of the cost of living? Evidence from MIT's billion prices project. *American Economic Journal: Economic Policy*, 10(3), 58-89.

UDC: 633.18/631.17.

THE EFFECT OF DIFFERENT WATER THICKNESSES ON SEED AND MILLED RICE YIELD OF “GULJAHON”, “ISKANDAR” AND “LAZURNIY” RICE VARIETIES

Khojamkulova Yulduzoy Jahonkulovna,

PhD, head of “Plant physiology and biochemistry” laboratory,

e-mail: yulduzoyxojamkulova@gmail.com

Rice Research Institute;

Buriev Abdivakhob Abdirazzaqovich,

PhD Associate professor,

Karimov Abbas Togaymuradovich,

graduate student,

Termiz Institute of Agrotechnology and Innovative Development.

Annotation. *The effect of different water thicknesses on seed and milled rice yield during the growth periods of rice varieties is studied in this article, and it is discovered that planting the "Iskandar" variety in rice fields and keeping 15 cm of water thickness gives the best results, with seed yield of 77,1% and milled rice yield of 72,1%.*

Key words: *rice, water, seeds and milled rice, linear, developmental times, varieties.*

Introduction: Taking into account that the development of rice cultivation is an urgent task, agricultural workers have been paying serious attention to this field in recent years, and efforts are being made to carry out both extensive and intensive ways of development. According to the decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 2, 2021, “On Measures for the Further Development of Rice Cultivation” № PD-4973, wide use of water-saving technologies in rice cultivation, planting of 20% of rice fields by seedling method, introduction of a leveling system using laser equipment in 50%, and tasks of planting rice seeds in modern seeders in 30% are set. [1].

Level of study of the problem. Rice is the staple food for about half of the world's population. Rice is characterized by its nutritional value and quick and complete digestion in the human body. Rice and its products contain protein, fat, starch, ash, fiber and phytin. One kilogram of rice contains 4000 calories. When rice is milled, it yields an average of 54% rice, 10% milled grain, 13% rice bran, 3% flour and up to 20% bran. When rice is milled, the grain is rubbed, and as a result, the quality of the rice changes. As a result of friction, the protein content decreases from 8.44 to 7,75%, the oil content from 1,82 to 0,53%, the ash content from 1,29 to 0,64%, and the tissue from 0.35 to 0.18%. [2; p. 118-128].

In the course of the study, there are conflicting opinions about the effect of the water thickness of rice planted in the field on productivity, seed quality and biochemical composition. In the conducted experiments, it was noted that the biotechnological parameters of the seed depended on the beneficial air temperature (temperature, harvest, sowing period, seed rate, amount of fertilizer, amount of rain and air humidity).

Research aim. 3 early-ripening “Guljahan”, mid-ripening “Iskandar” and late-ripening “Lazurniy” varieties were planted in the field, with different water thicknesses 5; 10; consists of studying the effect of 15 and 20 cm.

Research methods. It was carried out on the basis of methodological manuals such as “Methods of conducting field experiments”, “Methodology of field experiments” (B.A.

Dospekhov, 1985) and “Rice cultivation in Uzbekistan up to the height of water-saving use (2019) methodical instructions” [4].

Research results. The seed yield of the early “Guljahon” rice variety was 66.3% when the water thickness was 5 cm, 76,6% when the water thickness was 10 cm, 76,7% when the water thickness was 15 cm, and 76,8% when the water thickness was 20 cm in the experiments, and rice yield was 66,9% when the water thickness was 5 cm, 71,2% when the water thickness was 10 cm, 71,2% when the water thickness was 15 cm, and 71,1% when the water thickness was 20 cm (see Table 1).

When the water thickness was 5 cm, the seed yield of the rice variety "Iskandar" was 68,7%, 71,7% when the water thickness was 10 cm, 77,1% when the water thickness was 15 cm, and 78,4% when the water thickness was 20 cm. Milled rice yield was found to be 68,2% in 5 cm water thickness, 72,0% in 10 cm water thickness, 72,1% in 15 cm water thickness, and 72,0% in 20 cm water thickness.

The seed yield of the “Lazurniy” variety of rice was 65,3% when the water thickness was 5 cm, 71,1% when the water thickness was 10 cm, 75,3% when the water thickness was 15 cm, and 75,2% when the water thickness was 20 cm. Milled rice yield was 61,2% at 5 cm water depth, 63,3% at 10 cm water depth, 64,0% at 15 cm water depth and 64,1% at 20 cm water depth. In all studied rice varieties, the seed quality and rice yield increased as the water thickness increased.

Table 1

Effect of different water thicknesses on seed and milled rice yield,

Varieties	Sample weight, g	Water thickness, cm				The number of grains in the sample, pcs	Water thickness, cm			
		5	10	15	20		5	10	15	20
		Milled rice, %					Milled rice, %			
“Guljahon”	1000	69,3	76,6	76,7	76,8	100	66,9	71,2	71,2	71,1
“Iskandar”	1000	68,7	71,7	77,1	78,4	100	68,2	72,0	72,1	72,0
“Lazurniy”	1000	65,3	71,1	75,3	75,2	100	61,2	63,3	64,0	64,1

Among the studied rice varieties, it was observed that the rate of seed yield was 5,2-7,2% lower in the “Lazurniy” variety compared to other varieties. One of the main reasons for this is due to the variety's botanical (Indica) type and biology, which is long-grained and highly glassy.

Conclusion: In all studied rice cultivars, it is found that seed quality and milled rice yield increased with increasing water depth. The seed and milled rice yield of the middle-ripe “Iskandar” rice variety was 77,1% and 72,1%, respectively, when the water depth was 15 cm in the paddy fields. Among the studied rice varieties, it was observed that the rate of seed yield was 5,2-7.2% lower in the “Lazurniy” variety compared to other varieties. One of the main reasons for this is due to the variety's botanical (Indica) type and biology, which is long-grained and highly glassy.



REFERENCES:

1. Decision PD-4973 of the President of the Republic of Uzbekistan of February 2, 2021 “On measures to further develop rice cultivation”.
2. Zaurov.D., Sborshikova.M. “Rice growing” Tashkent. Mekhnat, 1989, p. 118-128.
3. Armor. B.A. Methods of field experience. M., Kolos, 1985. p. 350
4. Sattarov.M.A., Ergashev.M.A., Otamirzaev.N.G', Kalandarov.B.I., M.Khaitov. “Recommendation on how to save water for rice cultivation in Uzbekistan”. Tashkent 2019. p. 6-7.

SEED GERMINATION OF THE PROSPECTIVE RICE VARIETY OF “SADAF”

Khojamkulova Yulduzoy Jahonkulovna

PhD, head of “Plant physiology and biochemistry” laboratory,

e-mail: yulduzoyxojamkulova@gmail.com

Rice Research Institute;

Eshboev Nurbek Kholmumin ugli

Salomova Zarina Zakir qizi

Graduate students, Termiz Institute of

Agrotechnology and Innovative Development.

Annotation. *The article provides information on the ability of “Sadaf” rice seeds to germinate in laboratory conditions on average 90% in 5 days, 94% in 7 days and 97% in 10 days.*

Key words: *rice, “Sadaf”, laboratory, temperature, germination rate, seed germination, day.*

Introduction: To form a unified system of rice cultivation and its purchase on the scale of our country, rational use of land and water resources, as well as to fill the domestic consumer market with high-quality products, the President of the Republic of Uzbekistan dated February 2, 2021 "On measures for the further development of rice cultivation" Decision № PD-4973 was adopted. Based on this decision, it is determined as an urgent task to use water-saving technologies in the field on a large scale, to plant 20% of the rice fields by seedling method, to level 50% with the help of laser equipment, and to implement rice seeds in modern planting devices on 30%. [1].

Relevance of the study. Rice is one of the staple grain crops in our country, and it is one of the significant sources of carbohydrates [2, 3]. The sharp increase in population (0,9 million people per year) causes the need for rice to be higher than the consumption [4, 5].

Therefore, soil fertility and its sufficient supply of nutrients are important in growing a high-quality rice crop. At this point, it is worth highlighting that, based on global experience, the scientific basis for reducing the negative impact on the environment and producer health by combining mineral fertilizers with organic fertilizers for rice growing is being developed and implemented [6, 7].

Research aim. Determination and scientific justification of seed germination of Sadaf rice variety in laboratory conditions.

Results obtained. One of the main factors in obtaining a high-quality harvest is the timely and high-quality germination of rice seedlings, as well as timely care. For this, it is essential that the seeds used for planting fully meet the requirements of the state standard based on the laboratory fertility determination.

Rice seeds were harvested at a variable temperature of 20-30°C. During the first 6 hours, the temperature was kept at 30°C, and the remaining 18 hours of the daytime at 20°C. Germination ability and germination of seeds were determined by counting germinated seeds after 2-3 days. The seeds with high germination ability germinated and the plants developed simultaneously. The capability of seeds to sprout was expressed as the percentage of seeds that germinated within a specified number of days for a particular seed. The seeds whose roots were developed in the norm, the length of the main root equal to the length of the seed, were counted as germinated seeds.

When 100 seeds of the Sadaf rice variety were germinated and observed in laboratory conditions for 5 days, the germination rate was 91% in the 1st option, 90% in the 2nd option, 89% in the 3rd option, and 90% in the 4th option, and the average seed germination was 90% (see Table 1).

Rice seeds germinated for 7 days and when counted, 5% germinated in option 1, 94% germinated in option 2, 93% germinated in option 3, and 94% germinated in option 4, for an average seed germination of 94%.

In the experiment, when the seeds were germinated for 10 days, the germination rate was 96% in the 1st option, 97% in the 2nd option, 95% in the 3rd option, 96% in the 4th option, and the average seed germination rate was 96%.

Table 1
Germination of rice seeds in the conditions of laboratory (2022)

Name of variety	Number of seeds, pcs	Laboratory germination, %		
		Day 5	Day 7	Day 10
Sadaf	100 seeds 4 replications	91,0	95,0	96,0
		90,0	94,0	97,0
		89,0	93,0	95,0
		90,0	94,0	96,0
Average		90,0	94,0	96,0
LSD		0,018	0,021	0,019

Therefore, in laboratory conditions (at a temperature of 20-30°C during the first 6 hours at 30°C, the remaining 18 hours of the day at 20°C), the seeds of the Sadaf rice variety germinate on average 90% in 5 days, 94% in 7 days, and up to 97% in 10 days.

REFERENCES:

1. Decision PD-4973 of the President of the Republic of Uzbekistan of February 2, 2021 "On measures to further develop rice cultivation".
2. Panuju.D.R, Mizuno.K and Trisasongko.B.H 2013. The dynamics of rice production in Indonesia 1961–2009 J. Saudi Soc. Agric. Sci. V.12. p. 27–37.
3. Sutariati.G.A, Arif.N, Muhidin, Rakian T C, Mudi L and Nuralam 2017 Persistency and seed breaking dormancy on local upland rice of Southeast Sulawesi, Indonesia Pakistan J. Biol. Sci. V.20. p.563–70.
4. Muhidin, Syam'Un E, Kaimuddin, Musa Y, Sadimantara G R R, Usman, Leomo. S and Rakian TCC. The effect of shade on chlorophyll and anthocyanin content of upland red rice IOP Conf. Ser. Earth Environ. Sci. 2018. V.122. p.20-30.
5. Muhidin, Leomo.S, Alam.S and Wijayanto.T. Comparative studies on different agroecosystem base on soil physicochemical properties to development of Sago Palm on Dryland Int. J. ChemTech Res.2016. V. 9. p. 511–8.
6. Bora.R, Pandey.P.C, Singh.D.K, Yadav.S.K and Chilwal.A. 2018 Assessment of soil fertility status under long term balance fertilizer application on rice (*Oryza sativa* L.) IJCS. 2018.V. 6 (5). p. 16961699.
7. Rahman.K.M and Zhang.D 2018 Effects of fertilizer broadcasting on the excessive use of inorganic fertilizers and environmental sustainability. 2018. 10 (3). p. 759.

THE IMPORTANCE OF OIL AND GAS IN THE MODERN WORLD

Za'ripbaev Tursinbay Sarsenbay uli

2nd year student of Faculty of Geography and Natural Resources of Karakalpak State University

Abstract: *In this article, we will talk about the importance of oil and gas in the modern world, its role, and especially its importance in Uzbekistan. Oil and gas have been known to humanity for a long time, and the consumption of products obtained from them in the national economy, the need for them have been increasing year by year.*

Key Words: *gas production, petroleum, economy, importance, humanity, the need of the population.*

Introduction: Oil has been used in Uzbekistan since ancient times. Oil is used in the fight against agricultural pests due to its characteristic pungent smell. In order to prepare medicine from oil, Abu Ali ibn Sina conducted experiments on driving oil. Khorezm geographer Bakrom (in the 13th century) was the first to mention the technology of oil drilling in Baku. That is why oil and its processing is one of the oldest industries in Uzbekistan. Oil production in Uzbekistan began in 1876. Russian businessman D.P, in the early 80s of the 19th century, Petrov produced up to 10 pounds (160 kg) of oil per day from each of the 2 wells drilled up to 25 meters. In 1880-1883, the number of these wells reached 4. The wells were dug by the percussive method. Their walls were covered with boards, and oil was extracted using special long buckets. According to some information, up to 5-10 tons of oil per day obtained from such wells.

Materials And Discussion: Russian businessman D.P. In 1885, Petrov dug two wells in Shorsuv and obtained 400-500 kg of oil per day from them, from which kerosene and kerosene were extracted in a special boiler. It is for this reason that sources indicate that the beginning of the oil industry in Uzbekistan dates back to 1885.

The first oil field in Uzbekistan was opened in 1904, it was mined from a depth of 278 m in the Chimyon oil field in the Fergana Valley (formerly Vankovsk). About 130 tons of oil released from it per day. In the same year, an oil refinery was launched near the Altiariq railway station. There are also opinions that the emergence of the oil industry in Uzbekistan begins from this date. Kerosene is mainly obtained from refined oil. Kerosene and residual kerosene were loaded on carts and camels and sold in the markets of Central Asia, Afghanistan to cotton processing factories in Tashkent, Andijan, Kokan, oil growers and residents.

Oil residues were used as fuel in railway transport. Later, several mines were opened in the Fergana basin (in the fields of Yorkoton and Moylisoy near Chimyon), the Chimyon-Altariq oil pipeline was built, and the oil refinery was expanded. During this period, Russian and foreign capital took full control over oil production, oil processing, and sale of oil products. In 1913, a total of 13 thousand tons of oil was extracted. After the October coup in former Tsarist Russia, oil fields and oil refining enterprises were transferred to the state, and the exploration and operation of oil fields was also given to the power of the Soviets. In the following years, new oil fields were opened and put into operation quickly. The Altariq plant has been expanded. In that period, the infrastructure of the oil industry was created in the republic. 196,000 tons of oil were produced in 1941, and 478,000 tons in 1945. By 1950, oil production in Uzbekistan reached 1 million 342 thousand tons. Since the 50s of the 20th century, mechanization tools have been used in oil fields, and turbine drilling has been introduced. In 1959, more than 1 million 460 thousand tons of oil were

extracted from 9 oil fields in Fergana Valley and Surkhandarya region. At that time, the oil fields discovered in the Bukhara-Khiva region were put into operation, and the oil and gas production department was established on their basis. At the beginning of the 70s of the 20th century, oil production decreased as a result of the depletion of reserves in some oil fields. Deep wells had to be dug to find new oil fields. 5,200 m deep oil wells were drilled in Vorukh, 5,670 m in Gumkhana, 5,805 m in Chust-Pop, and 6,006 m in Mingbulok. As can be seen from the given information, the first oil and gas fields in Uzbekistan were discovered and put into operation in the Fergana swamp.[1.103]

The first use of gas in our republic began in Fergana. In 1944, a gas pipeline was laid from the Andijan mine in the Fergana valley to the city of Andijan, and in 1951, gas extraction from the Polvontash mine began. In 1933, a deep exploration well was drilled in the Khovdok field in Surkhandarya, and in 1934, oil erupted from a depth of 158 m in the form of a fountain. 75-100 tons of oil per day started coming out of 4 drilled wells. Also, in 1936, the Uchkizil field was opened on the north side of Termiz, and in 1939, the Kokaydi oil field was opened. Later, Lalmikor, Amudaryo, Koshtor, Mirshodi, Gajak oil and gas fields were explored. After Fergana and Surkhandarya regions, geological exploration was carried out in the Bukhara tectonic plate of Western Uzbekistan.[2.87]

The history of the composition and development of the gas industry in Uzbekistan began mainly in 1953 with the opening of the first gas field in the Setanlantepa region in the Kyzylkum desert. A large amount of work has been carried out in the oil and gas areas of Bukhara region. On October 17, 1956, a powerful gas fountain erupted from a 600-meter well in Gazli Square. With this, a new era has begun in the gas industry in Uzbekistan. Later, SHortan, Zevarda, Pamiq, Alan, Kokdumaloq, North Ortabuloq, Kruk mines were discovered and put into operation in the Bukhara-Khiva region. [3.62]

In the years of independence, a number of gas condensate fields such as Urga, Sharqiy Berdakh, Uchsoy, Surgil were discovered in Ustyurt region, and some of them were put into operation. It is appropriate to directly connect the development and progress of the oil and gas industry in Uzbekistan with the independence of our Republic, and reflect on the significant achievements made in this field in the following years. After the independence of the Republic of Uzbekistan, the development of the oil and gas industry became an important issue. On December 23, 1992, the oil and gas industry and all related enterprises and organizations were united under a single management and the Uzbekneftgaz was established. In 1993, oil spewed out of the very deep layers of the Fergana basin (Mingbulok structure), as a result of exploration and drilling operations, an anomalously high-pressure oil layer was found at a depth of 6,000 meters, and today, work on it continues intensively. The oil industry of the republic has the ability to fully satisfy the oil requirements of the national economy. In particular, after the opening of the Kokdumalak oil and gas condensate field, the Bukhara Oil Refinery was completed in 1996 in Karavulbazar district of the Bukhara region in cooperation with the French company TEKTER. In 1997, the Uzbek-US joint venture "Uz-Exaco" was established, specializing in the production of high-quality lubricants. In 2000, the Fergana oil refinery was completely renovated. This plant specializes in the production of lubricants and fuels, more than 30 technological oils are produced, and the Altariq Oil Plant was re-equipped in the fuel direction.

Conclusion: The increase in oil production leads to the development of industry, transport and agriculture, while the demand for motor fuels and oils, bitumen and coke, and liquefied natural gas has grown rapidly and petroleum products in order to improve the volume of production, their quality and increase production efficiency, to provide the republic's need for oil products at the expense of internal reserves, to increase the capacities

of the oil refining industry, to speed up the oil refining process, to increase the product type and improve the quality of oil and gas processing and petrochemical industries are facing huge challenges. The republic's oil refining industry fully meets these needs for now.

REFERENCES:

1. Amyx, J.W., D.H. Bass, and R.L. Whiting (1960): Petroleum Reservoir Engineering, New York: McGraw-Hill.
2. Batzle, M. (2006): "Chapter 13: Rock Properties," Petroleum Engineering Handbook, Volume 1: General Engineering, Edited by J.R. Fanchi, Richardson, TX: Society of Petroleum Engineers; Editor-In-Chief L.W. Lake.
3. Beggs, H.D. (1984): Gas Production Operations, Tulsa, OK: OGCI Publications.

“ТИББИЙ ДИСКУРС” ТУШУНЧАСИ ТАҲЛИЛИ ВА ТАДҚИҚИ МАСАЛАСИ.**Бабаева Гулноза Латифовна***Анджон машинасозлик институти,
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ассистенти,
boboyevagulnoza6@gmail.com*

Аннотация: Ушбу мақолада шифокор ва бемор ўртасидаги ўзаро мулоқот жараёнидаги коммуникатив компетенцияни тўлақонли очиб бериши билан бир қаторда, тиббий дискурс тушунчасини бир неча олимларнинг фикрига қўра таҳлил қилиниб, унда шифокорларнинг нутқини тасдиқлаш ва сақлаш воситаси, шунингдек манипуляция воситаси сифатида ўрагинилиб, тадбиқ қилинишини кўриши мумкин.

Калит сўзлар: *Тиббий дискурс, medicina, аффиксация, қўшма сўзлар, конверсия, аббревиатура, метафора-соматизм, геоморфик метафора, аффиксал,*

Сўнгги йилларда тиббиётнинг ижтимоий роли кенг жамоатчилик муҳокамасига сабаб бўлмоқда, чунки соғлиқни сақлаш тизимида олиб борилаётган ислохотлар баъзи долзарб вазифаларни ҳал қилишга имкон берган бўлса-да, янги муаммоларни келтириб чиқарди. Буларга тиббийлаштиришнинг кенгайиши, ташкилий ва техник омилларнинг: тиббиёт ходимлари сонининг камайиши, уларга иш соатининг ошиши, бюрократизация ва маслаҳатлашувлар учун ажратилган вақтнинг қисқариши, шунингдек, янги биотехнологиялар таъсири остида тиббий амалиётларнинг ўзгариши киради. Бу муаммоларнинг барчаси шифокор ва бемор ўртасидаги коммуникатив муносабатлар моделларининг ўзгаришига олиб келди, бу эса ўз навбатида тиббий дискурсни лингвистик, психологик, ижтимоий ва маданий ҳодиса сифатида ўрганиш ва тавсифлашга бағишланган кўплаб тадқиқотларнинг пайдо бўлишига олиб келди ва методологик ёндашув асосида тиббий дискурс шакллари аниқлаш, тизимлаштириш ва умумлаштириш фикри юзага келди.

“Тиббий дискурс” тушунчаси доирасини аниқлаштириш ва кўриб чиқиш учун унинг тузилиши тамойиллари, “тиббиёт” сўзининг таърифларини таҳлил қилиниши ўринлидир. Этимологик жиҳатдан лексема лотин *medicina* атамасига бориб тақалади ҳамда нормал ва патологик жараёнларни ўрганиш бўйича инсон саломатлигини сақлаш, турли касалликлар бўйича патологик шароитлар яратиш каби илмий ва амалий соҳани англатади. Семантик тузилишга асосланган “тиббиёт” тушунчасидан “тиббий дискурс” феномени доирасини аниқлаш мумкин.

Тиббий дискурс – бу илгари бир-бирини танимайдиган, лекин керак бўлганда одамлар орасида жамият ва ушбу жамоатчилик муассасаси нормаларига мувофиқ мулоқот қилиши шарт бўлган махсус алоқа тури. Тиббий дискурс глобал муаммо бўлиб, муҳтожларга тиббий ёрдам кўрсатиш ва турли соҳа ходимлари билан белгиланган профессионал ўзаро таъсир (мулоқот) туридир²⁷.

Тиббий дискурс ўтган асрнинг 60-70-йилларида АҚШ ва Европада фаннинг бошқа антропологик соҳалари қаторида ўрганила бошланди. Ҳарб тилшунослигида тиббий дискурсни таҳлил қилишнинг иккита ёндашувини ажратиш мумкин. Биринчидан, АҚШда социолингвистика нуқтаи назаридан ривожланаётган клиник суҳбатларни таҳлил қилиш (тадқиқотчилар бу ёндашувни микроаналитик деб таърифлайдилар), иккинчидан, Европада М.Фуко асарларида кўрсатилган фалсафий

²⁷Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: автореф. дис...канд. филол. наук [Текст]/ М.И. Барсукова. – Саратов, 2007. – 21 с.

фанлар йўналиши билан боғлиқ дискурсив тадқиқотлар. Уларда нутқ шифокорнинг ваколатларини тасдиқлаш ва сақлаш воситаси, шунингдек, манипуляция воситаси сифатида таҳлил қилинади (макроаналитик ёндашув). Иккала, фалсафий ва социологик ёндашувларнинг марказий муаммоси беморга тиббий дискурсада таъсир қилиш усулларини ўрганиш, тиббий нутқнинг ижтимоий назорат шакли сифатида ишлашини аниқлаш эди²⁸.

Француз тиббий дискурси ҳақида гапирганда, рус тадқиқотчилари Ф.Л.Косицкая ва М.В.Матюхина тиббий дискурсни полифониясини қайд этиб, “бу мураккаб ташкил этилган дискурсив, кўп ўлчовли, бир хил бўлмаган шаклланишдир. Унинг коммуникатив майдони – бу реклама, тиббий академик, тиббиёт соҳасидаги қонунчилик (хукуқий), илмий тиббий ва шахсий тиббий дискурсларнинг ўзаро таъсири”, деб қайд этадилар²⁹.

Ҳозирги вақтда тиббий дискурсни таснифлашни кўриб чиқиладиган муаммолари орасида терапевтик нутқнинг лингвистик хусусиятлари, яъни маданиятлараро учрашувларда таржима; бемор ва шифокор ўртасидаги учрашувга сабаб бўлган аниқ тиббий муаммолар ва улар ўртасида ўзаро тушунишга эришишда, шунингдек, профессионал назорат усуллари сифатида ажралиб туради³⁰. Тиббий дискурс тадқиқотлари натижалари янги шифокорларни тайёрлаш ва уларни сертификатлаш (тегишли гувоҳнома билан таъминлаш) учун қўлланилган.

Тиббиёт тилини ўрганиш бўйича ишларда, биринчи навбатда, тиббий терминология, семантика ва тиббиётда сўзларнинг шаклланиши, турли тилларда тиббиёт атамалари, уларни таққослашга бағишланган асарлар, шунингдек, терминология соҳаларини ўрганишда тиббиётнинг алоҳида тармоқлари (гастроэнтерология, офталмология)ни ажратиш лозим. Худди шундай тиббий дискурсни синтаксиси ва алоҳида жанрлари (клиник протокол, стационар беморнинг тиббий картаси)нинг ўзига хос хусусиятлари

ҳам ўрганилади. Масалан, Э.И.Саҳратова ва А.В.Агеева инглиз, француз ва рус (кам даражада) тиббий атамалари шаклланишининг ўзига хос хусусиятларини ўрганган. Тадқиқотчилар метафоризация ва деривацияга алоҳида эътибор бериб, тиббий дискурсада уларнинг тобора ортиб бораётган байналмилаллашувини қайд этишади³¹.

М.А.Логинованинг тадқиқоти инглиз тилида тиббий терминларнинг ясалишига бағишланган. Тадқиқотчи сўз ясалишининг энг фаол усуллари орасида аффиксация (*inhaler, unstable, disconnection*), кўшма сўзлар (*thromboembolism*), конверсия (*acid*), аббревиатуралар (қисқартма) (*Adverse Event (AE)*) кўпроқ учрашини таъкидлайди. Ўзлашма сўзлар эса кўпинча касаллик, синдром ва симптомларнинг номлари (*parkinsonism, albinism*)³² (паркинсонизм, албинизм) эканлигини қайд этади.

И.С.Данилова ва Ю.С.Даниловалар инглиз, француз ва рус тилларидаги тиббий термин-эпонимларни ўрганган. Улар тиббий атамаларда турдош отлар потенциалининг мавҳумлиги даражаси ошиши, синонимия жараёнида эпонимларнинг

²⁸Фуко М. Рождение клиники. – М.: Смысл, 1998. – 310 с.

²⁹Косицкая Ф.Л., Матюхина М.В. Французский медицинский дискурс в сфере профессиональной коммуникации//Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2017. 3 (180). – С. 14-17.

³⁰Hughes D. Control In The Medical Consultation: Organising Talk In A Situation Where CoParticipants Have Differential Competence. *Sociology*. 1982. – P. 359-375.

³¹Агеева А.В., Саҳратова Э.И. Принципы формирования медицинской терминологии (сопоставительный анализ русского, французского и английского языков) // Язык и культура (Новосибирск), 2016. №25. – С. 77-81.

³²Логинова М.А. Особенности перевода терминов в клинических исследованиях // Scripta manent. 2016. №22. – С. 89-93.

иштирок этиши билан қайд этилишини (масалан, эпонимик термин *Даун синдроми* / инг. *Down syndrome (DS)* ёки *Down's syndrome* / франц. *syndrome de Down* – инг. абсолют термин *trisomy* / франц. *acromimie*)³³ тадқиқ қилган.

Пан Ке Ен ва С.В.Шурипа корейс тилидаги тиббий атамаларнинг аффиксал ясалишини кўриб чиқади ва тиббий дискурсада хитой тили суффиксларининг самарадорлигини таъкидлайди³⁴.

И.В.Семенчук ва А.Н.Товстикова инглиз тиббий дискурсада метафораларни ўрганган. Улар гастроэнтерология соҳасига оид терминологияларда метафоризация (метафорик кўчириш) хусусиятларини кўриб чиқади. Шу билан бирга, муаллифлар тиббиётнинг турли соҳаларида метафоризация турли хил ва бевосита махсус соҳа хусусиятларига боғлиқлигини аниқлайдилар. Шундай қилиб, анатомияда ташқи ўрганишга асосланган объектнинг хусусиятлари, ҳажми, шаклига асосланган метафорик кўчиришлар, терапияда визуал, акустик, сезги, кечинмалар билан боғлиқ метафоралар, психиатрияда – ҳис-туйғулар билан боғлиқ концептуал метафоралар муҳим роль ўйнашини таъкидлайдилар. Гастроэнтерологияда муаллифлар ҳаётий (*bowel wall* – ичак девори), концептуал (*digestive disturbance* – овқат ҳазм қилишнинг бузилиши), географик (*gastric area* – ошқозон майдони), биоморфик (*tail of the pancreas* – ошқозон ости беши думи), геоморфик метафора (*Sigmoid colon* – сигмасимон ичак)лар ва метафора-соматизмлар (*hairy tongue* – тукли тил)ни аниқлайдилар. Тузилиш нуқтаи назаридан, метафораларнинг ясалишида терминологик комбинациялар (бирикмалар) самарали усул ҳисобланади³⁵.

Илмий тиббиётнинг маълум бир жанрига бағишланган тадқиқотлар ҳам мавжуд. О.В.Ромашованинг илмий ишида стационар беморнинг тиббий картасидаги жанрий-услубий, расмий ва илмий услубларнинг интеграцияси (боғлиқлиги) кузатилади. Муаллиф ушбу жанрнинг вазифаси информацион-кумулятив, деб белгилайди ва стационар беморларнинг тиббий карталари матнларида илмий услубнинг тиббий терминология ва терминологик жумлаларни (мия шикастланиши, чап қўл биринчи бармоғининг проксимал фалангасини силжишсиз синиши, қулай прогноз (олдиндан айтиш)), аббревиатуралар (қисқартмалар) (СДВГ, РТЧ), пассив конструкциялар (тадқиқот давомида қуйидаги натижалар олинди, даволанишдан кейин қайд этилди), феълдан ясалган отлар (тузалиш, оғирлашиш), новербал (оғзаки бўлмаган) элементлар: рақамлар, графикалар, рентгенограммаларни белгилайди³⁶.

Дискурснинг ҳар хил турларида нутқ жанрлари Ж.Свелс³⁷ томонидан тавсифланган. Унинг “Genre Analysis: English in Academic and Research Settings” (“Жанр таҳлили: академик инглиз тили ва тадқиқот соҳамалари”) монографиясида ва В.К.Батианинг “Worlds of Written Discourse. A Genre-Based View”³⁸ (“Ёзма нутқ

³³Данилова И.С., Данилова Ю.С. Структурно-семантические особенности медицинских терминов в английском и французском языках и проблемы их перевода на русский язык (краткое сообщение) // Вестник новых медицинских технологий. Электронное издание. 2014. №1. URL: <http://www.medtsu.tula.ru/VNMT/Bulletin/E2014-1/5047.pdf> (дата обращения: 25.12.2014).

³⁴Пан Ке Ен, Шурипа С.В. Структурные особенности терминообразования в агглютинирующем языке (на примере корейской медицинской терминологии) // Вестник МГОУ. Сер: Лингвистика. 2015. №3. – С. 31-38.

³⁵Семенчук И.В., Товстикова А.Н. Метафора в английской медицинской терминологии (на примере предметной области “гастроэнтерология”) // Журнал Гродненского государственного медицинского университета. 2015. №3. – С. 111-115.

³⁶Ромашова О.В. Жанрово-стилевая специфика медицинского документа (на мат-ле медицинской карты стационарного больного) // Мир науки, культуры, образования. 2014. №5(48). – С. 127-131.

³⁷Swales J. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.

³⁸Bhatia V.K. Worlds of Written Discourse. A Genre-Based View // Bloomsbury Classics in Linguistics. London; New York: Bloomsbury Academic, 2004. – 259 p.

олами. Жанрга асосланган кўриниш”), “Critical Genre Analysis. Investigating Interdiscursive Performance in Professional Practice³⁹” (“Танқидий жанр таҳлили. Касбий амалиётда интердискурсив кўрсаткичларни ўрганиш”) китобларида бу ҳақда батафсил ёритиб берилган.

Тиббий дискурс соҳасидаги тадқиқотлар натижаларини хорижий тадқиқотчилар S.Поирер ва D.Бронер⁴⁰, J.Кайпес⁴¹, P.Эткинсон^{42,43}, J.Вилс⁴⁴ илмий ишларида яққол кўриш мумкин. Тиббиёт социологияси соҳасида – R.Энпеч⁴⁵, H.Вайтскин⁴⁶, R.Чарен, M.Грин ва R.Аделмен⁴⁷, A.Вернер⁴⁸, ёзма ва оғзаки дискурс соҳасида эса M.Готта⁴⁹, M.Готти ва Ф.Сележер-Меер⁵⁰ ва бошқалар салмоқли тадқиқотлар амалга оширишган.

Шунингдек, рус тадқиқотчилари В.Г.Борботько⁵¹, В.Н.Бабаян, С.Л.Круглова⁵², М.Л.Макаров⁵³, Н.Ф.Алефиренко⁵⁴ Л.М.Алексеева ва С.Л.Мишланова⁵⁵, Е.П.Богатикова, С.Л.Мишланова, А.А.Филиппова⁵⁶, С.В.Майборова⁵⁷ ва бошқаларнинг ҳам асарларида мазкур мавзу ҳақида фикр юритилган.

Тиббий дискурс бўйича эса М.И.Барсукова, Л.С.Бейлисон, Н.В.Гончаренко, В.В.Жура⁵⁸ махсус тадқиқот олиб боришган.

³⁹ Bhatia V.K. Critical Genre Analysis. Investigating Interdiscursive Performance in Professional Practice. London: Routledge, 2016. – 232 p.

⁴⁰ Poirier S., Brauner D. Ethics and the Daily Language of Medical Discourse // The Hastings Center Report. 1988. Vol. 18. № 4. – P. 5-9.

⁴¹ Kuipers J. „Medical Discourse” in Anthropological Context: Views of Language and Power // Medical Anthropology Quarterly. 1989. № 3. – P. 99-123.

⁴² Atkinson P. Medical discourse, evidentiality and the construction of professional responsibility // Talk, work, and institutional order: Discourse in medical, mediation, and management settings. 1999. – P. 75-108.

⁴³ Atkinson P. Medical Talk and Medical Work. London: Sage Publications, 1995. – 176 p.

⁴⁴ Wilce J. Medical Discourse // Annual Review of Anthropology. 2009. № 38. – P. 199-215.

⁴⁵ Anspach R. Notes on the Sociology of Medical Discourse: The Language of Case Presentations // Journal on Health and Social Behavior. 1988. Vol. 29. № 4. – P. 357-375.

⁴⁶ Waitzkin H. A Critical Theory of Medical Discourse: Ideology, Social Control, and the Processing of Social Context in Medical Encounters // Journal of Health and Social Behavior. 1989. Vol 30. № 2. – P. 220-239.

⁴⁷ Charon R. Multi-dimensional interaction analysis: A collaborative approach to the study of medical discourse // Social Science and Medicine. 1994. Vol. 39. № 7. – P. 955-965.

⁴⁸ Werner A. A sociological perspective of the medical consultation // Tidsskrift for Den norske legeforening. 2011. Vol. 20. № 131. – P. 2032-2034.

⁴⁹ Gotti M. Variations in Medical Discourse for Academic Purposes // Medical Discourse in Professional, Academic and Popular Settings. Bristol: Multilingual Matters, 2016. – P. 9-30; Investigating Specialized Discourse. Bern: Peter Lang, 2011. – 230 p.

⁵⁰ Advances in Medical Discourse Analysis: Oral and Written Contexts / ed. by Gotti M., Salager-Meyer F. Pieterlen: Peter Lang, 2006. – 492 p.

⁵¹ Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: ЧИГУ, 1981. – 113 с.

⁵² Бабаян В.Н., Круглова С.Л. Теория дискурса в системе наук о языке // Ярославский педагогический вестник. 2002. № 3. – С. 55–57.

⁵³ Макаров М. Л. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – 280 с.

⁵⁴ Алефиренко Н.Ф. Текст и дискурс. – М.: Флинта, 2012. – 232 с.

⁵⁵ Алексеева Л.М., Мишланова С.Л. Медицинский дискурс: теоретические основы и принципы анализа. Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 2002. – 200 с.

⁵⁶ Богатикова Е. П., Мишланова С. Л., Филиппова А.А. Особенности представления специального знания в медицинском дискурсе // Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. № 3. – С. 215-217.

⁵⁷ Майборода С.В. Медицинский дискурс: современные теоретико-методологические подходы и перспективы исследования // Коммуникативные исследования. 2017. № 1. – С. 63-74.

⁵⁸ Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – Саратов, 2007. – 21 с.; Бейлисон Л.С. Характеристики медико-педагогического дискурса (на материале логопедических рекомендаций): дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – 177 с.; Гончаренко Н.В. Суггестивные характеристики медицинского дискурса: дис. на соиск. учен. степ. канд. фил. наук. – Волгоград, 2007; Жура В.В. Речевые стратегии врача в устном медицинском дискурсе // Альманах современной науки и образования: Языкознание и литературоведение в синхронии и диахронии и методика преподавания языка и литературы: в 3 ч. – 2007. – № 3, Ч. 2. – С. 59-61.

Ҳар қандай институционал соҳанинг дискурси турли хил жанрлардан иборат. Тиббий дискурс ижтимоий ўзаро таъсир майдони сифатида қуйидагиларни ўз ичига олади:

- 1) кўплаб нутқ жанрларининг ёзма ва оғзаки шакллари;
- 2) тиббий идораларда ёки оммавий ахборот воситаларида шифокор ва беморнинг клиник учрашувлари (тиббий форумлар ва блоглар);
- 3) телевидениянинг машҳур тиббий дастурлари ва стационар тиббий ёзувлар, клиник конференциялардаги тақдимотлар ва ҳ.

Илмий ва тиббий дискурсда учта умумий макро жанр мавжуд. Булар:

- 1) илмий тадқиқот ишлар;
- 2) шифокорнинг бемор билан суҳбати;
- 3) дарслик.

Бундай дискурс иштирокчилари тиббиёт вакиллари ёки бошқа касб эгалари бўлиши мумкин. Бунда тиббий дискурсни ўзи вертикал (шифокордан беморга) ёки горизонтал (шифокордан шифокорга, олимдан олимга) амалга оширилиши мумкин.

Тиббий дискурсни ёзма ва оғзаки усуллари мавжуд.

Биринчидан, тиббий дискурс тиббий матн бўлиб, кўпинча касаллик, унинг диагностикаси, даволаш, олдини олиш ва ҳоказолар ҳақида гапирадиган махсус тиббий нашрдир. Тиббий маърузанинг мақсади – тиббиёт оламидаги тажриба алмашиш, айрим мутахассисларнинг тадқиқот маълумотларини очиқ бериш. Илмий тиббий маъруза иштирокчилари қаторига мутахассислар, амалиётчи шифокорлар, тиббиёт ходимлари, тиббиёт муассасалари талабалари киради.

Иккинчидан, илмий ва оммабоп тиббий дискурс илмий мақолалар, монографиялар, шарҳлар ва маърузалардан иборат дискурс жанрларига бўлинади. Уларнинг барчаси беморга мукамал тиббий ёрдам кўрсатишга қаратилган.

Учинчидан, тиббий дискурс муайян тиббий атамаларни тақдим этишнинг ўзига хос усули, бемор билан мулоқотнинг махсус шакли бўлиб, шифокор беморнинг соғлиғи билан боғлиқ муайян муаммони оддий тилда тушунтиради. Врач ва бемор мулоқотининг лингвистик роли шундан иборатки, адабиётларни ўқиш ва шифокор билан мулоқот қилишнинг тиббий дискурсдан фойдаланиш лингвистик йўналишга хос бўлиб, беморга, ҳатто оғир касаллик бўлса ҳам, даволаниш ва тикланишига ишониш имконини беради.

Илмий ва тиббий нутқнинг махсус дискурсив жанрлари Европада тиббиёт тарихи фани билан бирга пайдо бўлди. Улар орасида илмий мақола; картадаги клиник эслатмалар; тиббий дарслик ва атласлар бор⁵⁹. Француз тиббий дискурсида Ф.Л.Косицкая ва М.В.Матюхина ёзма жанр сифатида амбулатория бемор картасини, касал рўйхатини, касалликнинг кундалигини, шифокорнинг рецептини, дастлабки ташхисни, касалхонага ётқизиш, хулоса, ҳарорат варағи, маслаҳат учун йўлланма ва бошқаларни ажратиб кўрсатишади⁶⁰. Тиббиёт бу микрожанрларда нафақат фан сифатида, балки таъсир воситаси сифатида гавдаланади.

Тиббий дискурсни тиббиёт мутахассисларининг касбий маданиятини амалга оширишнинг коммуникатив-нутқ даражаси деб таърифлаш мумкин. Тиббий дискурс профессионал тиббиёт ҳамжамиятининг кадриятлари ва меъёрларини тўплайди ва намоиш қилади, касбий ва маданий интеграция, унинг вакилларини тарбиялаш воситаси, шунингдек, ушбу профессионал ҳамжамиятга хос бўлган ижтимоий ва касбий муносабатларни тартибга солиш воситасидир.

⁵⁹Armstrong, D. The Patient's View'. In Social Science & Medicine. 1983. – P. 737-744.

⁶⁰Косицкая Ф. Л., Матюхина М. В. Французский медицинский дискурс в сфере профессиональной коммуникации//Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2017. 3 (180). – С. 14-17.

Тиббий дискурс ҳар қандай нутққа хос хусусиятларга эга. Бундай белгиларга фаоллик табиати (динамизм, жараёнлилик), очиклик, интерактивлик, информативлик, изчиллик, яхлитлик, структуралилик, дискретлик (артикулярлик) киради. Асосий хусусиятларга кўра, тиббий дискурс одамларнинг ўзаро таъсирининг институционал ёки мақомга йўналтирилган нутқий тури деб аталади⁶¹. Тиббий дискурс – бу тиббиёт мутахассисларининг касбий ва коммуникатив ўзаро таъсири соҳаси, шунинг учун у деонтологик йўналиш, бағрикенглик, қатъиятлилик каби белгиларга эга. Аммо тиббий дискурснинг асосий, базавий категорияси лингвотерапевтик йўналиши – “сўз билан даволаш” тан олиними керак.

Машҳур қадимги Рим ёзувчиси Плиний шундай деган: “Тиббиётдан фойдалироқ санъат йўқ⁶²”. Энг буюк юнон шифокори Гиппократнинг сўзларига кўра, “тиббиёт санъати учта элементдан иборат: касаллик, бемор ва шифокор”⁶³. Шифокор ва бемор касалликни даволашнинг асосий иштирокчилари, шунинг учун улар мулоқотининг тегишли натижаси терапиянинг ўзига катта таъсир кўрсатади. Тилдан ва унга асосланган матнлардан фойдаланмасдан муваффақиятли мулоқот қилиш мумкин эмас.

Дискурс мавзусини, айниқса тиббиётда муҳокама қилиш учун М.Пилегард сўзлари муҳим роль ўйнайди: “Замонавий билимлар жамияти буни махсус нутқ ва умуман бошқа мутахассисликлар, жамоатчилик учун очик бўлиши керак, деб талаб қилади. Бугунги мутахассислар ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ мулоқот қилишлари керак⁶⁴”.

Касбий алоқа ва тиббий дискурс масаласини кўриб чиқиш учун нутқнинг бир нечта таърифларини такдим этиш билан бошлаш керак. Дискурс коммуникатив ўзаро таъсир (алоқа ҳодисаси) сифатида белгиланади ва учтадан иборат алоқа босқичлари: тилдан фойдаланиш, ғояларни етказиш ва ижтимоий вазиятларда ўзаро таъсирлардан иборат⁶⁵.

Тиббий коммуникация икки асосий турга бўлинади:

- 1) шифокорнинг бемор билан алоқаси;
- 2) мутахассислар ўртасидаги алоқа.

Биринчи гуруҳни учта кичик гуруҳга ажратиш мумкин:

- а) шифокор маслаҳати пайтидаги алоқа (тиббий кўрик);
- б) бутун даволаш жараёни;
- в) тикланиш ва назорат пайтидаги текшириш.

Иккинчи гуруҳга эса қуйидаги мулоқотлар киради:

- а) мутахассис (шифокор-шифокор);
- б) шифокор ва ҳамшира;
- в) шифокор ва фельдшер;
- г) шифокор ва тиббиёт йўналиши талабаси, магистр, ординатор;

⁶¹Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача // Автореф.дисс...канд.фил.наук. – Саратов, 2007. – 23 с.; PR-дискурс: Теоретико-методологический анализ. – Екатеринбург, 2008. – 340 с.

⁶²Цитаты и афоризмы. URL: <http://citysu.ru/aforizmy-i-citysu-o-medicine>

⁶³Цитаты и афоризмы. URL: <http://citysu.ru/aforizmy-i-citysu-o-medicine>

⁶⁴Pilegaard, M. Review: Advanced in Medical Discourse Analysis: Oral and Written Contexts. Marurizio Gotti & Francoise Salager-Meyer // LSP & Professional Communication. 2007. Vol. 7. № 2. – P.113-118.

⁶⁵Taavitsainen I. Medical discourse: early genres, 14th and 15th centuries // The Encyclopedia of Language & Linguistics. New York: Elsevier, 2006. – P. 668-694.

д) шифокор ва бошқа ходимлар (тиббиёт котиби, касалхона директори ва бошқалар)⁶⁶.

Польшалик олимлар тиббий алоқанинг тўрт турини ажратиб кўрсатишади:

- 1) назарий (мутахассис-мутахассис);
- 2) дидактик (мутахассис ва талаба, тиббиёт соҳасидаги резидент);
- 3) илмий-оммабоп (мутахассис-номутахассис);
- 4) амалий (амалий фанлар соҳасида ишлатилади)⁶⁷.

Мулоқотнинг биринчи асосий тури (шифокорнинг бемор билан мулоқоти) ҳам хорижий, ҳам рус махсус адабиётида кенг муҳокама қилинади. Шифокор-бемор ўртасидаги тиббий мулоқот даволаниш жараёнида жуда муҳим роль ўйнайди, унинг ёрдамчи элементи ҳисобланади. Бу борада кўплаб ишларда муаммо турли нуқтаи назардан, масалан, тиббиёт социологияси томонидан кўриб чиқилади⁶⁸.

Мулоқотнинг иккинчи асосий тури мутахассислар ўртасида, шунингдек, тиббиёт мутахассислари ва бошқа касб вакиллари ўртасида – XX асрда мунозара учун мавзу бўлди. Мазкур мавзуга доир Е.Фрейдсоннинг “Patient’s Views of Medical Practice⁶⁹” (“Беморнинг тиббий амалиётга қарашлари”), “Profession of Medicine⁷⁰” (“Шифокор касби”) ва “Doctoring Together⁷¹” (“Биргаликда даволаш”) монографияларини социология нуқтаи назаридан ёзилган деб ҳисоблаш мумкин.

Таъкидлаш жоизки, тиббиётда мулоқот оғзаки ва ёзма равишда содир бўлади. Мулоқотнинг оғзаки шаклларига мутахассислар ўртасидаги мунозаралар, илмий учрашувлар, конференциялар (конференцияда маъруза билан чиқишлар), муайян ишни муҳокама қилиш кабиларни киритиш мумкин. Ёзма мулоқотга хатлар (масалан, беморни касалхонага олиб бориш талаби билан), тиббий ҳужжатлар, шунингдек, журналларда илмий мақолалар чоп этилиши киради⁷².

Чет эл адабиётида тиббий мулоқотда маслаҳатлар, матн ва баёнотларни тўғри яратиш бўйича маслаҳатларни ўз ичига олган кўплаб асарлар мавжуд. Масалан, М.М.Ван Наерссен⁷³ тиббий ҳужжатлар масаласи билан шуғулланади, яъни, унинг турлари, нормалари, яратилиш қоидалари ва функцияларини тақдим этади. Муаллиф бемор учун ҳам, шифокор учун ҳам асосий ва энг муҳим ҳужжат – беморнинг

⁶⁶Van Naerssen M. M. Medical Records: One Variation of Physician’s Language // International Journal of the Sociology of Language. 1985. № 51. – P. 43-73.

⁶⁷Gajda S. Podstawy badań stylistycznych nad językiem naukowym. Warszawa; Wrocław: Państwowe Wydawnictwo Naukowe, 1982. – 187 p.

⁶⁸Samora J., Saunders L., Larson R. F. Medical Vocabulary Knowledge Among Hospitals Patients // Journal of Health and Human Behavior. 1961. Vol. 2. № 2. – P. 83-89.

⁶⁹Freidson E. Patients’ Views of Medical Practice. New York : Russell Sage Foundation, 1961. – 268 p.

⁷⁰Freidson E. Profession of Medicine: A Study of the Sociology of Applied Knowledge. New York: Dodd Mead, 1970. – 285 p.

⁷¹Freidson E. Doctoring Together: A study of professional social control. New York : Elsevier, 1975. – 298 p.

⁷²Baylon Ch., Mignot X. Komunikacja. Krakow : FLAIR, 2008. – 431 p.

⁷³Van Naerssen M.M. Medical Records: One Variation of Physician’s Language // International Journal of the Sociology of Language. 1985. № 51. – P. 43-73.

касаллик тарихига алоҳида эътибор беради. Ушбу муаммо L.L.Вид⁷⁴, S.Рейсер⁷⁵ ва Е.Сиглер⁷⁶лар томонидан ҳам ўрганилган.

Тиббий дискурс мавзуларига турли касалликларни ўрганиш, шифокорлар ихтисослиги билан боғлиқ кенг қўламли муаммолар киради. В.И.Карасик⁷⁷ фикрига кўра институционал дискурснинг тузилиши бўйича тиббий нутқда қуйидаги компонентларни ажратиш мумкин:

1) иштирокчилар (тиббиёт олими – ҳамкасблари, турли тиббиёт мутахассисликлари вакиллари, тиббиёт соҳасидаги олимлар, шифокор-мутахассис, шифокор-амалиётчи, талабалар, стажёрлар; бемор, беморларнинг қариндошлари; тиббиёт, соғлиқни сақлаш, илмий-оммабоп журналларни ўқиш муаммолари билан қизиқадиган кенг жамоатчилик);

2) хронотоп (ушбу турдаги дискурс учун хос бўлган вазият: тиббиёт муассасаси, бўлими, лабораторияси ва бошқалар.);

3) мақсад (беморга ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ нутқ тафаккури: касалликнинг таърифи, даволаш, илмий муаммони ҳал қилиш ва бошқалар.);

4) қадриятлар (асосий тушунчалар “Саломатлик”, “Касаллик” ва бошқалар.);

5) стратегиялар (диагностика, тавсия қилиш ва ҳоказо.).

Ушбу компонентлар педагогик ва диний дискурсларнинг тавсифида тўлиқ таъкидланган⁷⁸. Тиббий дискурс тавсифи институционал нутқ турларининг эскизи сифатида берилган.

Л.С.Бейлинсон тиббий дискурснинг қуйидаги жанрларини аниқлайди:

1) диагностик маслаҳат (сухбат); 2) беморнинг шикояти; 3) анамнез картаси; 4) объектив тиббий кўрик сертификатлари (кардиограмма транскрипти, қон таҳлили, рентгенограмма ва ҳоказо); 5) тиббий консилиум (маслаҳат); 6) вербал (оғзаки) даволаш; 7) тиббий тавсиянома; 8) рецепт; 9) тиббий маълумотнома (касаллик варақаси); 10) эпикриз⁷⁹.

“Тиббий нутқ” атамасининг ўзи уни бошқа дискурс турларидан ажратиб турадиган ва тиббиётга тегишли эканлигини белгилайдиган компонентни ифодалайди. Бироқ “тиббиёт” лексемаси ушбу концепция кўриб чиқиладиган позицияларга қараб турли хил маъноларга эга бўлиши мумкин. Демак, кенг маънода тиббиёт “саломатлик ва касалликлар, касалликларни даволаш ва олдини олиш, шунингдек, одамлар саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлашга қаратилган амалий фаолият ҳақидаги фанлар мажмуи” деб таърифланади⁸⁰.

⁷⁴Weed L. Medical records that guide and teach // *New English Journal of Medicine*. 1968. № 278. – P. 593-600; *Medical Records, Medical Education and Patient Care*. Cleveland : The Press of Case Western Reserve University, 1969; *Medical records, patient care, and medical education // Irish Journal of Medical Science*. 1964. Vol. 39. № 6. – P. 271-282.

⁷⁴ Weed L. *Medical Records, Medical Education and Patient Care*. Cleveland : The Press of Case Western Reserve University, 1969.

⁷⁵Reiser S. J. *The Clinical Record in Medicine. Part 1: Learning from Cases // Annals of Internal Medicine*. 1991. Vol. 114. № 10. – P. 902-907.

⁷⁶Siegler E. *The Evolving Medical Record // Annals of Internal Medicine*. 2010. Vol. 153. № 10. P. 671-677.

⁷⁷Карасик В.И. О типах дискурса / В.И. Карасик // *Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. / В.И. Карасик*. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 5-20.

⁷⁸Карасик В.И. Характеристики педагогического дискурса / В.И. Карасик // *Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики*. – Волгоград: Перемена, 1999. – С. 3-18. 98; *Религиозный дискурс / В.И. Карасик // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики*. – Волгоград: Перемена, 1999. – С. 5-19.

⁷⁹Бейлинсон Л.С. Характеристики медико-педагогического дискурса (на материале логопедических рекомендаций): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01 / Любовь Семеновна Бейлинсон. – Волгоград, 2001. – 177 с.

⁸⁰Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фраз.выражений / Российская академия наук; Институт русского языка им.В.В.Виноградова. 4-е изд., доп. М.: Азбуковник, 1999. – 348 с.

Социологияда тиббиёт ўзига хос кадриятларга (мақсадлар, тамойиллар, кодекслар), тузилишга, функцияларга, институционал ташкилот ичидаги шаклларга, рамзларга, мақомларга ва ролларга (шифокорлар, беморлар, давлат ва б.) эга бўлган касбий табақаланиш тизими ва касб-ҳунар таълими тизими сифатида ажралиб туради.

Тиббиётни тушунишга йўналтирилган ёндашувлар замонавий тилшуносликда тиббий дискурсни ўрганишнинг етакчи йўналишларини белгилаб берди, уларни шартли равишда қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Тиббий дискурсни “тиббиёт тили”, “махсус мақсадлар тили” (LSP – Language for Special Proposes – махсус таклифлар тили), махсус тил, касбий нутққа қаратилган функционал ва коммуникатив ёндашув нуқтаи назаридан тадқиқ қилинган⁸¹ нутқ сифатида ўрганиш.

2. Тиббий дискурсни ижтимоий тиббиёт институти билан боғлиқ ҳолда⁸², институционал нутқ сифатида ўрганиш.

Шуни таъкидлаш керакки, бу ёндашувлар бир-бирига зид эмас, балки эътиборни тиббий дискурсни алоҳида жиҳатларига қаратади ва бир-бирини тўлдириб, бу ҳодисанинг жиддийлигини очиқ беради.

Кўпгина олимлар (Н.В.Майсак, С.И.Маджаева, Н.Ю.Сидорова, В.В.Жура) тадқиқот натижалари тиббий дискурсни лингвистик, нутқий ва коммуникатив амалга ошириш билан боғлиқ бир қатор муаммоларни: деперсонализация, стандартлаштириш, девиативлик⁸³, зиддият⁸⁴ ва ушбу ҳодисаларга ҳисса қўшадиган коммуникатив тўсиқлар: иштирокчилар ўртасидаги муносабатларнинг ассиметрияси⁸⁵, мулоқотнинг ҳиссийлиги⁸⁶ ва ҳ. аниқлаш имконини берганлиги ҳақида фикр билдирганлар.

Тиббиёт – бу инсоннинг бутун ҳаётини қамраб оладиган мураккаб фан экан, асосий жиҳати нафақат олимлар томонидан янги касалликларни кашф этиш ва уларни даволаш усуллари, балки тиббиёт ходимларининг касбий маҳоратидир. Шифокор кўп даражали билимлар омбори бўлиб, уларнинг баъзилари касбий этика баъзилари тиббий дискурс қоидаларини ўз ичига олади. У буларнинг барчасини ўз амалиётида қўллаши шарт.

Тиббий дискурс қоидалари инсон саломатлиги ва унинг ҳаёт сифатини яхшилашга қаратилган касбий нутқ меъёрларнинг барча таркибий қисмларини ўз ичига олади.

Тиббий дискурсни мақсади беморга ёрдам бериш, яъни беморга ташхис қўйиш, даволаш ва унинг соғлиғини сақлаш учун ўзини қандай тутиш кераклигини тушунтиришидир. Мақсадга асосий ниятлар билан белгиланган стратегиялар орқали эришилади. Ташхис қўйиш, даволаш ва йўналтириш стратегиялари шифокор ва бемор

⁸¹Кочеткова Т.В. Языковая личность носителя элитарной речевой культуры: дис...д-ра фил.наук. – Саратов, 1999. – 534 с.

⁸²Карасик В.И. О типах дискурса / В.И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. / В.И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 5-20.

Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: дис...канд.филол.наук. – Саратов, 2007. – 141 с.

⁸³Майсак Н.В., Маджаева С.И. Девиативный медицинский дискурс как неэффективный стиль взаимодействия врача и пациента // Астраханский медицинский журнал. 2010.Т.5. – С.133-137.

⁸⁴Карымшакова Т.Г. Лингвистические технологиеречевого воздействия в медицинском дискурсеб автореф.дис...канд.филол.наук. – Улан-удэ, 2016. – 26 с.

⁸⁵Сидорова Н.Ю. Коммуникативное поведение неравностатусных субъектов медицинского дискурса: на материале немецкого языка: дис...канд.филол.наук. – Волгоград, 2008. – 177 с.

⁸⁶Жура В.В. Эмоциогенность общения «врач-пациент» как коммуникативная проблема устного медицинского дискурса // Известия Российского пед.университета им. А.И.Герцена. 2008. – С. 25-33.

ўртасидаги муносабатларнинг турли босқичларига кўра фарқланади. Булар борасида кейинги фаслларда батафсил тўхталиб ўтилади, таҳлил қилинади.

Юқорида жаҳон тилшунос олимларининг тиббий дискурс тушунчасига берган таърифлари ҳамда турлича ёндашув билан таҳлил қилганларини кузатдик, ўргандик ва умумлаштирдик.

Ўзбек тилшунослигида ҳам бугунги кунда тиббиёт тилшунослиги, тиббий лингвистика деб аталадиган янги фан тармоғи ривожланиб бормоқда. Тиббиёт тили тиббиёт тарихчилари учун ҳам, тилшунослар учун ҳам долзарб масалаларни ҳал этади. Классик олимлар энг қадимги тиббий ёзувларнинг мазмуни ва тилини батафсил таҳлил қилдилар, бугунги кунда эса тиббий лингвистиканинг, тиббий терминологиянинг кейинги ривожланиши тилшунослигимизнинг ютуғидир.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, бизда тиббиёт қадимдан ривожланган соҳадир. Ибн Синонинг табобатда қилган ишлари унинг номини бир неча асрларга шу фан соҳаси билан чамбарчас боғлади. Олимнинг табобат тараққиётидаги буюк хизмати шундаки, у ўзигача ўтган турли халқ намоёндалари томонидан асрлар давомида тиб илми соҳасида тўпланган маълумотларни саралаб, муайян бир тартибга солди ва уларни ўз тажрибалари билан бойитган ҳолда маълум назария ва қонун-қоида асосида умумлаштирди. Бунга унинг “Тиб қонунлари” ва бу асарнинг жаҳон тиб илми тарихида тутган мавқеи ва қозонган шуҳрати ёрқин далилдир⁸⁷.

Ибн Синонинг табобат соҳасида қилган ишлари ўша давр табобатини бир неча асрларга илгарилатди ва айрим соҳаларда ҳатто ҳозирги замон тиббиётига яқинлаштирди ҳам. Ўз-ўзидан англашиладики, ўша даврдан тиббий дискурс термини билан бўлмаса-да мазкур масала буюк бобомиз томонидан кун тартибига қўйилган. Хусусан, унинг: “Табиб хастага ширин сўз, хуш хулқ, хушмуомалалик билан ёндашиши, унинг дардини ўзининг дарди деб билиб, оғриси оғриб, йиғласа йиғлаб, инграса инграши, беморга бегона ёки хирс кўзи билан қарамаслиги, қиз бўлса, қизим, ўғил бўлса, ўғлим, аёл бўлса, онам, эркак бўлса, отам, ака ва укам деб ёндашиши шарт”, - деган мулоҳазаси шундан дарак беради.

Тилшунослигимизда тиббий лингвистика бўйича санокли ишлар амалга оширилган. Жумладан, Н.Ғайбуллаева⁸⁸ тиббий эвфемизмларни, А.Қобилова⁸⁹ тиббий перифразаларни, Д.Собирова⁹⁰ тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятларини монографик планда ўрганган. “Тиббий метафораларнинг қисқача изоҳли луғати” ҳамда “Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати” яратилган⁹¹. Бундан ташқари, тиббиёт ходимлари нутқининг социолингвистик хусусиятлари⁹² борасида айрим мулоҳазалар юритилган. Хусусан, тадқиқотчи эркак ва аёл шифокорларнинг нутқини ўрганиш асосида қуйидаги тенденцияларни ажратиб кўрсатади:

1. Танишув ва саломлашиш, жинси ва профилидан қатъи назар, мутлақо барча шифокорлар учун бир хил.

⁸⁷ <https://xalq-tabobati.uz/uz/1645/maqolalar/abu-ali-ibn-sino-hayot-yoliga-nazar/>

⁸⁸ Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар: Филол.фан.бўйича фал.док-ри.дисс... – Бухоро, 2019. – 145 б.

⁸⁹ Қобилова А. Тиббий перифразаларнинг лингвомаданий хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фал.док-ри.дисс... – Бухоро, 2022. – 155 б.

⁹⁰ Собирова Д.Р. Тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фал.док-ри.дисс... – Бухоро, 2022. – 153 б.

⁹¹ Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати”. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 77 б.; Абузалова М.К., Юлдашева Д.Н., Болтаева Н. Тиббий метафораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 63 б.

⁹² Курбанова Н. Тиббиёт ходимлари нутқининг социолингвистик хусусиятлари // CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2022. – Б. 351-354.

2. Эркак ва аёл шифокорлар беморларга нисбатан бир хил даражада хушмуомала бўлиб, даволаниш режасига оид маълумотларни ўрганиш ва тушунтиришда конструктивдир.

3. Аёл шифокорларнинг нутқи баъзан эркакларники каби хазил аралаш, норасмий ҳам бўлиши мумкин.

Тиббиёт вакиласи С.Ёрованинг “Бевосита тиббиётнинг касб компетенцияси ва унинг деонтологик асослари”⁹³ мақоласида дискурс, шифокор-бемор муносабати, шифокор деонтологияси ҳақида қисман маълумот берилган. Муаллиф таъкидлаганидек, тиббий мулоқотга тилшунослик нуктаи назардан баҳо берилган аксарият ишларда мулоқот кечимида лисоний бирликлар танлови, нутқнинг когнитив ва лингвомаданий асослари, синтактик-семантик хусусиятлари билан бирга, ушбу касб соҳибларининг юксак инсоний фазилатларга эга бўлиши ҳам алоҳида муҳокама қилинади.

Шу ўринда тиббий деонтология тушунчасига тўхталиб ўтсак.

Тиббиёт деонтологияси – тиббиёт ходимларининг касбга алоқадор этикаси, дори-дармон, умуман давонинг таъсирини оширишга қаратилган хулқ-атвор таомиллари. Деонтология, яъни кишининг хулқи, одоби ҳақидаги тушунча XVI асрнинг бошларида инглиз файласуфи ва иқтисодчиси И. Бентам томонидан таомилга киритилган. Тиббиёт деонтологиясига оид маълумотлар узоқ тарихга эга. Аслида, тиббиёт деонтологияси кенг фалсафий мазмунга эга бўлиб, бир қанча йўналишлардан иборат: 1) шифокор билан бемор ўртасидаги; 2) шифокор билан беморнинг яқин кишилари ўртасидаги муносабат; 3) шифокорнинг ҳамкасблари билан муносабати ва ҳ. к.

Тиббиёт деонтологиясига врачнинг сир саклаши, беморнинг ҳаёти ва соғлиғи учун тиббиёт ходимининг жавобгарлиги, тиббиёт ходимларининг ўзаро муносабати масалалари ва б. киради. Тиббиёт деонтологиясига мувофиқ, тиббиёт ходими беморга катта эътибор бериши, унинг соғлиғини тиклаш ёки азобини енгиллатиш учун бутун билимини сарфлаши, беморга унинг соғлиғи ҳақидаги фақат фойда келтира оладиган маълумотларни айтиши, беморнинг врач билан сирдош бўлишига эришуви зарур. Беморнинг касаллиги ҳақида унинг иштирокида ҳамкасблари билан сўзлашиши ярамайди.

Тиббиёт деонтологиясининг тиббиёт амалиётида тўғри жорий қилиниши, шифокорнинг онги, савияси, маданияти, дунёқараши, билим ва қайси жамиятда яшаётганлиги билан чамбарчас боғлиқ. Кишилиқ жамиятининг турли даврларида деонтологик муносабатлар турлича кечган, у замон талабига мос равишда ўзгариб борган⁹⁴.

Демак, тиббиёт таълим муассасаларида махсус фан сифатида ўқитиладиган тиббиёт деонтологиясининг бир қисмини тиббий дискурс ташкил қилади.

Кўринадики, замонавий ўзбек лингвистикасида тиббий дискурс масаласи монографик планда ўрганилмаган ва кун тартибига кўйилмаган. Бундан англашиладики, тиббий нутқнинг дискурсив, коммуникатив ва прагматик стратегияларни аниқлаш ва фарқлаш масаласи долзарб бўлиб қолмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, тиббий нутқ ижтимоий мақсад билан шартланган коммуникатив фаолиятнинг бир қисми бўлганлиги, лингвистик воситалар ва касбий мулоқотнинг экстралингвистик таркибий қисмларини бирлаштирганлиги сабабли,

⁹³ Ёрова С. Бевосита тиббиётнинг касб компетенцияси ва унинг деонтологик асослари // "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11. – Б. 899-905.

⁹⁴ Косимов Э.И. Шифокорнинг нутқ маданияти ва бемор билан мулоқот санъати. Тиббиёт деонтологияси. – Тошкент, 2002.

ушбу ходисани нутқ хатти-харакатларининг самарадорлиги, усуллари ва функциялари нуктаи назаридан ўрганиш долзарбдир.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. АБДУЛЛАЕВА М., АБДУРАШИДОВ М., АБИЛОВ У. ФАЛСАФА ҚИСҚАЧА ИЗОҲЛИ ЛУҒАТ. – ТОШКЕНТ: ШАРҚ, 2004. – Б. 126.
2. Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. – Челябинск, ЧГКИ, 2018, – 315 с.; Прагмалингвистика. – Тошкент: 2008. – 318 б.;
3. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – 37 б.
4. Пардаев А. Дискурсив юкламаларнинг прагматик вазифаси хусусида // Бадий асарларни шарҳлаб ўрганиш: тарих, тажриба, технология. Республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТДПУ, 2014. – Б. 197-200.
5. «Дискурсив юкламалар» ҳақида // Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ЎзФА, 2014. – Б.271-272.
6. Дискурсивные маркеры в узбекском языке // Дискурсология: язык, культура, общество: материалы XIII Международной научной конференции. – Луганск: ЛНУ, 2014. – С.81-91.
7. Дискурс ҳақида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТошДЎТАУ, 2016. – Б.49-51.
8. Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: филол. фан. д-ри...дисс. автореф. – Т.: 2012.
9. Диалогик дискурсада миллий ментал омилларнинг намоён бўлиши // “Амударё” журнали, № 5. 2010. – Б. 125-128.
10. Dialogical discourse as an environment in which a polypredictive unit is implemented. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (83), 451-457.
11. Диалогический дискурс как среда, в которой реализуется полипредикативная единица // Theoretical & Applied Science. № 3. 2020. – С. 451-457.
12. Diyalojik diskursa sosyal mental ve pragmatik etkenler // Turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar qurultoyi. – 2017; Диалогик дискурс босқичлари ва уларнинг шаклланиши // Дунёвийлик ва динийлик ёшлар нигоҳида. 2010. – Б. 68-72.
13. Бадий ва санъат асарларида маданий нутқ орқали миллий ментал омилларнинг ифодаланиши. Монография. – Тошкент: Инновация- зиё, 2019.
14. Нормуродова Н.З. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Автореф. ... дисс.д.ф.н.– Т., 2020. – 81 с.
15. Verbal explication of discursive personality in the light of antropthentrism // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 10 Issue 12, December 2020.
16. Одилова Г. К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти Автореф. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2020. – 80 б.
17. Турниёзов Н. Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар // Хорижий филология. № 4, 2016 йил. – Б. 10-13.
